ISSN: 3030-377X

SCIENCE SHINE
ILM NURI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL | XALQARO ILMIY JURNAL | МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

Issue XV



ABSTRACT

This international scientific journal is created for new scientific research.

Articles are accepted in the following areas:

- specific and technical directions
- social directions
- directions of philology
- pedagogic directions
- directions of discovery and invention
- natural science majors

May 20
2024

Google Scholar zenodo OpenAIRE doi WORLD of JOURNALS

http://science-shine.uz

SCIENCE SHINE | ILM NURI | СВЕТ НАУКИ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL | XALQARO ILMIY JURNALI | МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE SHINE

Issue XV.

20. 05. 2024

ISSN: 3030-377X

International scientific journal

“SCIENCE SHINE”

Bosh muharrir:
D. Z. Olimjonov

Jurnal bir oyda bir marta chop etiladi.

Jurnal

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-y il 16-fevralda

№063974 sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan

Maqola ko‘chirilib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart

Aloqa uchun:
Telefon: +99899 011 6303
E pochta:
scienceshine@mail. ru

Veb sayt:
http://science-shine. uz/

Tahrir kengashi:

Xurshid Jumanazarov Sirojiddinovich
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma‘naviyat va huquq asoslari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Impuls universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Haydarova Umida Xojiakbar qizi
Farg‘ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi

Nozima Mamadjanova Adxamovna
Namangan davlat universiteti Ingliz tili fani o‘qituvchisi, Pedagogika fanlari fansafa doktori (PhD)

SO‘G‘DNING SHARQIY OSIYO MINTAQASI DAVLATLARI BILAN ALOQALARI

Sarvar Rizaqulov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sug‘dning antik va ilk o‘rta asrlarda Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlari izchil aloqalari yoritilgan. Xitoylik sayyohlarning keltirgan ma’lumotlari, qadimgi Sug‘d davlatining xitoydagi yirik mulklari, sug‘dlik savdogarlarning ko‘plab shaharlardagi savdo aloqalari yoritib berilgan. Shuningdek, arxeologik qazishmalar natijasida Afrosiyob xarobasidan topilgan topilmalar haqida ham ma’lumotlarni uchratamiz.

Kalit so‘zlar: Afrosiyob, Dunxuan, Panjikent, Varaxsha, Maymurg‘, Orlot. Barket, Dabusiya, Do‘rmon, Kushoniya , Xe, Fumo, Kyuyshuan Djaovu (Chjoau), Kan (Samarqand), Sao (Ishtixon), An (Buxoro)

Annotation: In this article, Sugd’s consistent relations with the countries of the East Asian region in antiquity and the early Middle Ages are highlighted. The information provided by Chinese tourists shed light on the large estates of the ancient Sugd state in China, trade relations of Sugd merchants in many cities. we will also find information about the finds found in the ruins of Afrosiyab as a result of archaeological excavations.

Key words: Afrosiyab, Dunhuan, Panjikent, Varakhsha, Maimurg, Orlot. Barket, Dabusiya, Dormon, Kushonia, He, Fumo, Kyushuan Djaovu (Zhou), Kan (Samarkand), Sao (Ishtikhan), An (Bukhara)

So‘g‘diyonada olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida Afrosiyob harobasidan V asrga oid So‘g‘diyona tangalari, ko‘za siniqlari ibodatxonalaridan spopol haykallarda Samarqand savdogarlarining O‘rta Osiyo, va uning tashqarida ham (masalan Buyuk Xitoy devori yaqinidagi Dunxuanda) kaloniyalari mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi. Lekin knyazliklar orasida kuchli birlik yo‘q yedi. Bu albatta uning keyinroq arablarga qaram bo‘lib qolganligiga sabab bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu davrda ham san’at ijtimoiy hayotda muhim o‘rinni yegallagan va davr kishilarning estetik-g‘oyaviy qarashlarini ham namoyon yetgan. Shu davrda qurilgan hashamatli qasr va ibodatxonalar, ularning devorlariga ishlangan suratlar davr mafkurasining ifoda yetgan mamlakat hayotini ko‘rinarli obrazlarda aks yettirgan Xitoylik tarixchi Samarqand va Buhoro o‘rtasida qurilgan hashamatli bino

hayratlanarligi, binoning shimoliy devorida bo‘yoqlar bilan Xitoy impertorlarining tasviri, sharqiy devorda turk xonlari va Hindiston hukmdorlari, g‘arbiy devorda esa Eron va Rim podsholari tasviri tushirilganligi haqida yozib qoldirilgan.

Topilgan ashyolar shuni ko‘rsatadiki, bobokalonlarimiz hunarmandchilikning kulolchilik soxasida antik olamda tengi yo‘q ustalar bo‘lganlar. Baqtriya, Marg‘iyona va Sug‘diyona kulol ustalari yasagan sopol idishlar o‘ziga xos san’at asarlari darajasiga ko‘tarilgan. Bundan tashqari shohhona saroylar, ibodatxonalar, mudofaa inshootlari va uy-joy qurishda o‘lkamiz xalqlari antik davr olamida tengsizlik darajasiga ko‘tarilganlar.

1965 yili Samarqand yaqinidan afsonaviy podsho Afrosiyob saroyi qoldiqlarining topilishi katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Bu topilma yana bir bor O‘rta Osiyo ilk feodalizm asridayoq yuksak madaniyat mavjud bo‘lganligini jahonga namoyish yetdi. Bu saroy qoldiqlarini devorlariga ishlangan tematik surat va naqsh kompozisiyalari yuksak mahorat bilan ishlanganligi bilan kishini hayratlantiradi. Ayniqsa yelchilar kelishiga bag‘ishlangan kompozisiya ishlanishi diqqatga sazovordir. Bu kompozisiya ishlanishi detallarga ye’tibor berilishi jihatidan. Panjikent va Varaxsha suratlariga yaqin bo‘lsa ham, lekin badiiylik va mahorat jihatidan ulardan ustundir. Afrosiyob devoriy suratlarining ahamiyati yana shundaki suratlar bilan birga So‘g‘d harflarida yozilgan bir qator so‘zlar ham uchraydi.

Xitoy manbalarida yozilishicha, V-VII asrlarda Turk xoqonligida tasviriy san’at haykaltaroshlik ancha tarqqiy yetgan. [1]

Ilk o‘rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar O‘rta Osiyo madaniyatiga ham tasir etmasdan qolmadi. Bu davrdagi madaniy hayot dastavval antik davr madaniy an’analari asosida rivojlangan bo‘lsada, Kushon davlati xarobalarida bir nechta mustaqil davlatlar va mulklarning paydo bo‘lishi o‘ziga xos mahalliy madaniyatlarning paydo bo‘lishiga imkon yaratgan edi. Ilk o‘rta asrlar madaniyatining shakllanishiga shuningdek, qo‘shni davlatlar avvalo, Hindiston, Eron, Afg‘oniston, Xitoy bilan hamda ko‘chmanchi chorvadorlar bilan bo‘lgan aloqalar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan edi.

Bu davr memorchiligi O‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi. Shakllanayotgan mulkdorlar toifasi O‘rta Osiyoning turli hududlarida yirik qalalar qurib, ular atrofini ximoya inshootlari bilan o‘rab oladilar. Bunday qalalar vohalarda ko‘pincha tabiiy tepaliklar ustiga bunyod etilgan. Bunday qalalar Xorazm, Toxariston, Sug‘d, Ustrushona, Marv hududlaridan topib

[1]R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T. , 2010. 125-bet.

o‘rganilgan. Memorchilikda asosan tosh, paxsa, xom g‘isht va yog‘och qurilish materiali sifatida ishlatiladi. V-VI asrlarda diniy e’tiqod va tasavvur bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tasviriy san’at-koroplastika-ma’budalarning sopol haykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Sopol haykalchalar hududlarga ko‘ra turlicha bo‘lib, kiyim-kechaklari, yuz siymolari, taqinchoqlari jihatidan ham bir-biridan farqlangan.

O‘rta asrlarda Sug‘d Movarounnahrning eng aholisi zich hududlaridan biri hisoblangan. Qulay tabiiy geografik muhit buning asosiy sababi edi. Shuningdek Sug‘dning Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo‘ldi. Yuqoridagi omillar Sug‘dda urbanizasiya jarayonlarining shiddat bilan rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Samarqand Sug‘dida o‘rta asrlarda ko‘plab katta-kichik shaharlar, rabodlar va obod qishloqlar mavjud bo‘lgan. Mana shunday manzillardan biri Kushoniya shahri hisoblanib, u mana shu nomdagi qadimiy viloyatning nomi ham edi. Tadqiqodchilar uni hozirgi Kattaqo‘rg‘on shahri yaqinida joylashgan deb hisoblaydilar.

Samarqand Sug‘dida VI-VIII asrlarda oralaridagi masofalari bir ikki kunlik yo‘lni tashkil etuvchi 14 -16 tacha, jumladan Maymurg‘, Orlot. Barket, Dabusiya, Do‘rmon, Kushoniya kabi bir muncha yirik shaharlar (o‘rtacha 15-20 ga maydonni egalovchi) mavjud edi. [2]

Xitoy solnomalarida Kushoniya dastlab Qang‘ davlatiga, keyinchalik Sug‘d konfederasiyasiga qaram mulk sifatida Xe, Fumo, Kyuyshuanniga yoki Guyshuanni nomlari ostida bir necha marta tilga olingan. Kushoniya xaqida shunday ma’lumotlar keltiriladi: “Xe mulkining qarorgohi Nami daryosidan bir necha li sharqda joylashgan. Bu qadimiy Kangyuy mulki hisoblanadi. Uning hukmdorining nomi Djaovu (Chjoau) deb nomlanadi. U ham Kan (Samarqand) hukmdori urug‘iga mansub. Qarorgoh aylanasiga ikki lini tashkil etadi. Qo‘shini 1000 kishidan iborat. Hukmdorning taxti oltin qo‘chqor shakliga ega. Bu mulkdan sharqda 150 li masofada Sao (Ishtixon), g‘arbda 300 li masofada kichik An (Buxoro) podsholigi joylashgan. . . ”. Bundan tashqari, VII-IX asr boshlarida tuzilgan Tanshu yilnomasida islom davriga qadar Kushoniya tarixiga oid ayrim lavhalar ham o‘rin olgan: “Xe va Kyuyshuanniga yoki Guyshuanni deb nomlanuvchi mulkda kichik Kangyuyga tegishli Fumo shahri joylashgan. Shaharning sharqiy tomonida ikki qavatli bino joylashgan. Binoning shimoliy devorida qizil bo‘yoqlar bilan O‘rta podsholikning qadimiy imperatorlari, sharqiy devorida turkiy xonlar va hind hukmdorlari, g‘arbida esa Bosiss (Fors) va

[2] Средняя Азия и Дальний Восток и эпоху средневековья Средняя Азия в раннем средневековье. - М. : Наука. 1999стр208

Folin (Suriya aslida Vizantiya imperatorlari) podsholarining tasvirlari tushirilgan. Hukmdor har kuni ertalab ular oldida ibodat qilib ketadi. . . ”[3]

Sog‘arj mashhur tarixiy shaxslar faoliyati bilan ham bog‘liq shahar. Sog‘arj shahri Somoniylar va Qoraxoniylar davrida (X-XII asrlar) yirik ilmu-ma’rifat markazlaridan biri bo‘lganligini, bu shaharda tug‘ilib, ta’lim olib, keyinchalik o‘z shahri Sog‘arjda, Samarqandda va Movarounnahrning boshqa shaharlarida yashab, “Sog‘arjiy” nisbasida ijod qilgan bir qancha olimu-ulamolarning nomlari ham yuqoridagi fikrimizni to‘la tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. Vatan tarixi. T. , 2010. 125-bet.
2. Средняя Азия и Дальний Восток и эпоху средневековья Средняя 3. 3. Азия в раннем средневековье. - М. : Наука. 1999стр208
4. Пугаченкова Г. А. Древности Мианкаля. Т, Фан 1989 стр 12
5. Исҳоқов М. М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. -Тошкент: Фан, 1990.
6. Қаршиева Ф. Суғдиёна солномаси. -Тошкент, 1987

[3]Пугаченкова Г. А. Древности Мианкаля. Т, Фан 1989 стр 12

KETRIN MENSFILD ASARLARIDA AYOL TAQDIRI MASALASI

Zeboxon Xakimova Muhammadjanovna
Master student of NamSIFL, Teacher of secondary school 4

Annotatsiya: Ushbu maqola Angliya adabiyoti yorqin nomoyondalaridan biri Ketrin Mansfild asarlarida ayol taqdiri masalasini muhokama qilishga qaratilgan. Mensfild ayol yozuvchi sifatida o‘z zamonasi ayollarining jamiyatdagi mavqei bilan juda qiziqadi. Ayollar haqidagi hikoyalar uning nasriy asarlarining ko‘p qismini egallaydi. Yozuvchi asarlaridagi aksariyat qahramonlar ayollarning turmushdagi og‘ir ahvolini aks ettiribgina qolmay, balki jamiyat va oiladagi ularga nisbatan bo‘lgan haqsizlik va e’tiborsizlikni ko‘rsatib beradi. Mensfildning ayollar haqidagi hikoyalarini muhokama qilish nafaqat o‘z davridagi g‘arbiy jamiyatdagi ayollarning murakkab sharoitlari, balki uning zamonaviy adabiyotga, ayniqsa, ayol madaniyatiga qo‘shgan hissasi haqida tushunchani boyitishi mumkin.

Kalit so‘zlar: ayol taqdiri, qurbon, haqsizlik, hukumronlik, o‘tkir dunyoqarash…

Kirish

19-asr ingliz adabiyoti haqida so‘z yuritilar ekan, kichik hikoyalari bilan o‘z o‘quvchilari ko‘nglidan joy olgan Ketrin Mansfild asarlariga to‘xtalmay o‘tishning iloji yo‘q, chunki ular inson qadr-qimmati va o‘z davri hamyurtlarining yashash sharoitlari haqida muhim ma’lumotlarni beradi. Ba’zan adib asarlari birinchi qarashda ahamiyatsizdek bo‘lib ko‘rinsa ham, aslida juda chuqur mazmunga egadir. U o‘z asarlarida o‘lim, qashshoqlik, urush, sevgi, tabiat, nikoh munosabatlari, umidsizlik va hokazolarni ko‘rib chiqadi. Uning ayollar haqidagi motivi o‘zining hikoyalarining aksariyat qismini qamrab oladi, unda u turli xil ayollarning og‘ir ahvoli va og‘rig‘ini aks ettiradi. Ulardan biz uning ayollarning jamiyatdagi mavqeidan chuqur qayg‘urayotganini, ular uchun oqilona yo‘l topishga ongli sa’y-harakatlarini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa ayol yozuvchilar singari, Ketrin Mensfild ham yozayotganda o‘zini ayol rolidan ajrata olmadi. . Virjiniya Vulf ta’kidlaganidek: “Ayol yozuvilar asari har doim ayollikka xosdir . . . " (Showalter, 1986, 247-bet). Ayolning o‘ziga xos nigohi bilan Mansfild ayollarning boy, rang-barang, ammo biroz o‘tkir dunyosini namoyish etadi. Bu dunyoda ayollar yolg‘iz, kambag‘al va himoyasiz bo‘lib, har xil musibatlarga duchor bo‘ladilar. Ular erkaklar hukmronlik qiladigan jamiyat tomonidan begonalashtirilgan va qurbon bo‘lgan, ammo shafqatsiz

dunyoda omon qolish uchun ular iqtisodiy va hissiy yordam uchun erkaklarga bog‘liq bo‘lishlari kerak. Mensfild asosiy madaniyatdagi feministik yozuvchi emas, balki Antoni Chexovning avlodi sifatida ko‘rib chiqilishiga qaramay, ko‘plab tanqidchilar uning yozganlarida feministik tushuncha borligini tan olishadi, va aytilganidek, “erkak va ayolning hayot tajribasi o‘rtasida har doim kuchli bo‘linish va uzilish hissi bo‘ladi. ” (Hanson & Gurr, 1981, 14-bet) Butun yozuvchilik faoliyati davomida Mensfildning asarlari o‘zgarishlarga uchraydi, ya’ni feministlikdan feministiklikka o‘tadi. Mensfildning ayollar haqidagi hikoyalarini muhokama qilish va uning mavzusini o‘zgartirish nafaqat o‘z davridagi g‘arbiy jamiyatdagi ayollarning murakkab sharoitlari, balki uning zamonaviy adabiyotga, ayniqsa, ayol madaniyatiga qo‘shgan hissasi haqida tushunchani boyitishi mumkin.

Muhokama

Ketrin Mensfild “ Bovarian eskizlari” ni yozganida shunchaki o‘smirlik davridagi yosh qiz edi, keyinchalik bu hikoyalar uning birinchi qisqa hikoyalar kitobi sifatida chiqdi. Hikoyalar asosan birinchi shaxs, ayol hikoyachi tomonidan aytiladi, bundagi olamni Mansfildning o‘sha paytdagi hayotidagi eng notinch va chalkash voqea sifatida boshdan kechirganiga bog‘lash mumkin. U sevgida muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan so‘ng, o‘zi sevmagan odam bilan bir kunlik g‘alati turmush qurishni, istalmagan homiladorlik kabi boshdan kechirganlarini hikoya qiladi. Hikoyalar uning ayol sifatidagi ongiga oid tajribalarini aks ettiradi. "Frau Brexenmaxer to‘yda qatnashmoqda" - bu erkak shovinizmi va kaltaklangan rafiqasi Frau Brexenmaxerning cheksiz uy yumushlari va juda ko‘p chaqaloqlar tomonidan ezilganligi haqidagi hikoya. Hikoyaning boshida xotin erini va o‘zini qishloqdagi to‘yga tayyorlash bilan band. Er qo‘pol, o‘ylamasdan, xotinini hurmat qilmaydi. U unga buyruq ohangida gapiradi: “Men yorug‘likni xohlayman. Siz borib, yo‘lakda kiyinasiz”, xotin esa erkakining buyrug‘iga ko‘nikib qolgan va yo‘lakda kiyinish uning uchun yangilik emas. Hayot unga allaqachon eriga itoat qilish uning burchi ekanligini o‘rgatgan, bu odat tusiga kirgan va u hech qachon bunga norozilik bildirishni orzu qilmaganga o‘xshaydi. Bundan tashqari, to‘yning hayajonli va jo‘shqinligida gerr Brexenmaxer "erlik huquqini unutib, xotinini hammadan oldinga o‘tishga harakat qilgani uchun uni panjaralarga urgani uchun kechirim so‘radi" (Mansfild, 1981, 708-bet). Mensfild aynan shu jumlada bezori erni kinoyali ohang bilan ushlaydiErkakning ayoldan ustun ekanligi haqidagi nazariya ikki jins o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi eng yuqori tamoyil sifatida tan olingan. Quyi tabaqaning qashshoqligi va yolg‘izligi, kambag‘al, og‘ir hayot kechiradigan, hissiy yoki jismoniy erkinlikdan mahrum bo‘lgan yolg‘iz ayollar haqida Mensfild

ko‘plab hikoyalar yozgan. Ushbu tematik guruhning hikoyalarida Mansfild turli xil achinarli ayollar qahramonlarini ta’sirchan ohanglar bilan tasvirlaydi. Rozabel, Moss va shafqatsiz dunyoda yashash uchun kurashayotgan kichik gubernator kabi yosh qizlar borki, ular mag‘lubiyatga uchradi yoki hayotdan zavq va tasalli olishning yagona manbai sifatida xayollarga berilib ketadi. Agar bu bechora yosh qizlarning hiko yalari Mansfildning erta hayoti, ayol sifatida yolg‘iz, chet elda va yillar davomida moliyaviy jihatdan chekkada yashagan qiyinchiliklari va qiyinchiliklarining aksi bo‘lsa, afsuski kampirlar haqidagi bu hikoyalarni davom ettirish mumkin. ushbu mavzudan. Garchi bu ayollarning yoshi, kasbi va tajribalari turlicha bo‘lsa-da, ularning barchasi bir xil qashshoqlik va yolg‘izlikdan azob chekayotgan quyi tabaqaga mansub, ammo baribir hayotga umid va intilishlarni qadrlashadi.

“Yaxshi kechki ovqat uchun o‘z jonini fido qiladigan” (Mansfild, 1981, 513-bet) va zo‘rg‘a tirikchilik qila oladigan kambag‘al qiz Rozabel… uning boyni sevishga haqqi yo‘q. Asarda Rozabelning borligi haqiqatini ko‘rsatadigan hozirgi vaqt darajasi bor: uning iflos, yomon turar joyi va uning atrofidagi vayronagarchilik. Va nihoyat, faqat uning tushida mavjud bo‘lgan kelajakning vaqt darajasi keladi. Tasavvur va fantaziya yordamida Rozabel o‘zini boy qizning hashamatli hayotiga aylantiradi. Boshqasiga havas qilib, ular joy almashganini orzu qiladi: uning ajoyib, katta uyi bor, hamma joyda atirgullar bor; uni frantsuz xizmatkori kutmoqda. Mensfild hikoyaning yarmini Rozabelning ma’lum bir effekt yaratish haqidagi orzusini tasvirlashga bag‘ishlaydi. Uning Rozabel haqiqati va uning orzular mamlakati o‘rtasidagi qarama-qarshiligi butun hikoyani qamrab oladi. Qarama-qarshiliklar o‘quvchining Rozabelning kundalik tajribasi va uning orzusi o‘rtasidagi nomuvofiqlik va tafovut hissini kuchaytirishi mumkin. Rozabel o‘z orzusida o‘zi uchun qurayotgan mo‘’jizalar dunyosi hech qachon amalga oshmasligini tushunish oson.

Himoyasiz ayol, Linda. . . U jim kulish bilan tan olganidek, hayot “kelmagan odamning kelishini kutish, sodir bo‘lmagan narsa sodir bo‘lishini kuzatish” bilan o‘tkaziladigan bema’nilikdir. (Mansfild, 1981, 28-bet) Bunday hayot, haqiqatan ham, hech kim uchun bema’ni va ma’nosizdir. Natijada, Linda qochish yo‘llarini qidiradi. Mensfildning hikoyalaridagi boshqa ko‘plab ayollar singari, Linda ham o‘z sharoitlarini o‘zgartirishga qodir emas va u faqat tushida erkinlikni topishi mumkin. U doimo qushlarni orzu qiladi, kichik aravada hammadan qochib yoki haydab, hatto silkitmasdan, tikanli aloe kemasida tezda eshkak eshishni orzu qiladi. Linda ham xuddi boladek hissiy jihatdan bog‘liq bo‘lgan onasiga panoh izlaydi. Ovqat

pishirishni o‘z burchi deb bilmay, oshxonaga kirishni istamaydi, lekin oshxonada onasini ko‘rishdan zavqlanadi. Linda ongsiz ravishda bolalik davriga qaytishni xohlaydi, bunda yelkada mas’uliyat, jinsiy rol o‘ynash va hayotdagi barcha muammolar kattalar tomonidan hal qilinishi kerak. Uning qochish haqidagi barcha orzulari faqat uning tasavvurlari bo‘lib, ularni hech qachon amalga oshirib bo‘lmaydi, u qochish qanday shaklda bo‘lishini tasavvur qila olmaydi. Biroq, ular Stenli tomonidan hukmronlik qiluvchi va hokimiyat markazi sifatida ifodalangan patriarxal jamiyatning hukmronligiga qarshi uning isyoni va qarshiliklarini o‘zida mujassam etgan. Linda hech qayoqqa olib kelmaydigan hayotni qabul qilishga majbur bo‘ladi. U hech qachon Xenrik Ibsenning "Qo‘g‘irchoq uyi" asarida erini tashlab, o‘zining mustaqilligi va o‘ziga xosligini katta tashqi dunyoda izlayotgan Noraning qaroriga ega bo‘lmaydi. Qo‘zg‘olonchining qat’iyati va kuchiga ega bo‘lmagan Linda erining yonida qoladi va hayotidan uzoqlashishda davom etadi, butun umri davomida sust, baxtsiz va bekorchi bo‘lib qoladi.

Xulosa

Mensfildning barcha asarlarida biz bir haqiqatni tez-tez eslatib turamiz: ayollar erkaklarnikidan pastroq. Uning barcha xayoliy ayollari iqtisod nuqtai nazaridan yoki oila tarkibidagi nisbiy mavqeiga ko‘ra, qurbonlar, quyi sinf vakillaridir. Ular qaysidir darajada erkaklar tomonidan zulmga duchor bo‘lishadi: yosh Moss va keksa Ma Parker kabi kambag‘al yolg‘iz xonimlar qo‘l mehnati yoki fohishalik bilan tirikchilik qilish uchun erkaklarga xizmat qilishlari kerak; boshqa tomondan, turmushga chiqqan ayollar, kambag‘al yoki boy bo‘lishidan qat’i nazar, erining jinsiy ob’ekti, tug‘ilish mashinasi va mulki bo‘lib xizmat qilish orqali qurbonlikka uchraydi. Turli ayollarning tasviri orqali Mansfild o‘zining bechora quyi tabaqadagi ayollarga chuqur hamdardligini, sinfiy tafovutlarni yoqtirmasligini, ko‘plab ayollarning o‘z rolini shartli ravishda qabul qilishni engishdan bosh tortganliklaridan umidsizlik va g‘azabini ko‘rsatadi. Nikohda ayollarning an’anaviy tarzda bostirilishini oching, bu erda ularga ijtimoiy, jinsiy va iqtisodiy rol berilgan, ular mos kelishi kerak. Mansfildning cheklovlari ham aniq. Uning sog‘lig‘i yomon bo‘lganligi sababli, uning yozish doirasi tor. Uning hikoyalarining aksariyati maishiy, tanish mavzular bilan cheklangan. U o‘zining travmatik hayotiy tajribalari tufayli hayotga juda pessimistik qaraydi, bu uning ayollar haqidagi xayoliy tasavvurlarida aks etadi. Boymi, kambag‘almi, bo‘ydoqmi yoki turmush qurganmi, o‘zini tutib, katta dunyodan uzoqlashadi, hollari qanchalik og‘riqli bo‘lmasin, bu yolg‘iz qalblarning hech qachon gaplashadigan do‘sti bo‘lmaydi, shuning uchun ular hayotning achchiq-chuchugini yutishlari kerak. o‘zlari. Qanday bo‘lmasin, Mensfildning ayollar hayoti va taqdiri

haqida o‘ylashi butun dunyodagi ayollarni doimo yaxshiroq hayot uchun kurashishga undaydi. Darhaqiqat, Ketrin Mensfild o‘zining turli xil achinarli, ammo rostgo‘y ayollar qahramonlari bilan jahon adabiyotida xavfsizroq o‘ringa loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alpers, A. (1982). Ketrin Mensfildning hayoti. London: Oksford universiteti nashriyoti.

2. Berkman, S. (1951). Ketrin Mansfild: Tanqidiy tadqiqot. Nyu-Xeyven: Yel universiteti nashriyoti.

3. CHEN, Jia. (1981). Ingliz adabiyoti tarixi (IV jild). Pekin: tijorat matbuoti. 4. Hanson, C. va Gurr, A. (1981). Ketrin Mensfild. Nyu-York: Sent-Martin matbuoti.

5. Kobler, J. F. (1990). Ketrin Mansfild: Qisqa badiiy adabiyotni o‘rganish. Boston: 6. G. K. Hall & Co. . Mansfield, K. (1981). Ketrin Mansfildning qisqa hikoyalari. London: Pingvinlar guruhlari.

7. Showalter, E. (1986). Yangi feministik tanqid. London: Virago Pres

O‘SIMLIKLARNING ZARARKUNANDALARIGA QARSHI BIOLOGIK KURASHNING AFZALLIKLARI.

Nizomjon Matkarimov Baxtiyorovich
Ma’mun universiteti, b. f. f. d. (PhD),
matkarimov_nizomjon@mamunedu. uz

Mahliyo Omonboyeva
Ma’mun universiteti, talaba

Annotatsiya: Quyi Amudaryo mintaqasi tuproqlari tarixiy jihatdan daryo bo‘yi yotqiziqlaridan shakllangan bo‘lib, bu yerda o‘suvchi o‘simliklar yer osti suvining yaqinligi, tuproq qatlamlarining turli xilligi, voha iqlimining kontinentalligi sababli kasallikka tez chalinuvchan va zararkunanda hashoratlarning ko‘payishi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Shularni inobatga olib o‘simliklardagi kasalliklar va ularning zararkunandalarga qarshi kurashishda alohida e’tiborni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘simliklar, zararkunanda hashoratlar, karantin tadbir, biologik tadbir, kimyoviy chora, fizik va mexanik tadbirlar.

Аннотация: Почвы нижнего Амударьи исторически сложились из прибрежных отложений, а произрастающие здесь растения подвержены болезням и вредителям из-за близости грунтовых вод, разных слоев почвы, континентального климата оазиса. Учитывая это, оно требует особого внимания в борьбе с болезнями растений и их вредителями.

Ключевые слова: растения, вредные насекомые, карантинные меры, биологические меры, химические меры, физические и механические меры.

Annotation: The soils of the lower Amudarya region were historically formed from riverside deposits, and the plants growing here are susceptible to diseases and pests due to the proximity of groundwater, different soil layers, and the continental climate of the oasis. serves as Taking this into account, it requires special attention in the fight against plant diseases and their pests.

Key words: plants, harmful insects, quarantine measures, biological measures, chemical measures, physical and mechanical measures.

KIRISH. Hashoratlarga bo‘lgan qiziqish qadim zamonlardan boshlangan. Ularga dastlab oziq mahsuloti sifatida qaralgan bo‘lsa, keyinchalik chorvachilik, dexqonchilik yo‘lga qo‘yilgach, zarakunandalar sifatida o‘rganila boshlandi, Shunda

ular orasida foydali hashoratlar borligi ma’lum bo‘ldi. Natijada entomologiya fani shaxobchalari bo‘lmish ipakchilik va asalarichilik vujudga keldi. Lekin hashoratlarni ilmiy asosda o‘rganish XVII asrdan boshlandi. Italyan olimi I. Malpigi (1628-1694) tut ipak qurtining anatomiyasi va ayirish sistemasiga, Golland olimi Ya. Svammerdama (1637-1680) hashoratning anotomiyasi hamda metamorfozasiga asos soldilar. XVII asrda buyuk shved olimi, tabiatshunos K. Linney(1707-1778) ning "Tabiat sistematikasi" asarida hashoratlar kuzga ko‘rinarli o‘rinni egallaydi. O‘sha davrning buyuk tabiatshunos olimi R. A. Reomyur (1683-1757) hashoratlarning morfologiyasi va biologiyasini o‘rgandi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Rossiyada hashoratlar faunasini o‘rganishda tabiatshunos olim, akademik P. S. Pallas (1741-1811) katta hissa qo‘shdi. XIX asrda fan va madaniyatning rivojlanishi natijasida entomologiyaning fan sifatida shakllanishiga sharoit yaratildi. O‘sha davrda bir qancha mamlakatlarda entomologik ilmiy jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, 1832 yili Fransiyada, 1833 yili Angliyada shunday jamiyat tuzildi. Rossiyada 1859 yili Rus entomologik ilmiy jamiyati tashkil etildi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston entomologik jamiyati bu soxani rivojlantirish yo‘lida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Keyingi yillarda Respublika agrokimèsi va o‘simliklarni himoya qilish tadqiqotlar markazini tashkil etilishi, O‘zbekiston o‘simliklarni himoya qilish instituti va boshqa shunga o‘xshash tashkilotlarning vujudga kelishida katta rol o‘ynaydi. O‘rmon zarakunandalari asosan 1911 yildan boshlab o‘rganila boshlandi. Shu yili Toshkentda Turkiston Entomologiya stansiya tashkil qilingan edi. Bizda 1930 yilda Toshkent qishloq xo‘jaligi institutida, entomologiya fanini rivojlantirishda o‘zlarining munosib ulushlarini qo‘shgan dunèga mashxur entomolog olim, O‘zbekiston fanlar akademiyasining muxbir a’zosi, professor V. V. Yaxontovning «O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligi o‘simliklari, mahsulotlari zarakunandalari va ularga qarshi kurash» asari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi, professor R. A. Olimjonovning "Su’oriladigan dexqonchilik yerlarining umurtqasiz hayvonlar zoofaunasi va entomologiya" asari, O‘zbekiston o‘simliklar himoyasi ilmiy tekshirish institutida, professor S. N. Alimuhamedovning "Kanalar biologiyasi va ekologiyasi" ilmiy asarlari yuqori baxo oldi.

METOD VA METODOLOGIYA. O‘simlik zarakunandalariga qarshi kurashning bir nechta usullari bo‘lib, bu o‘simlikni zararlanmasligining oldini olishdan iborat. Hozirgi mavjud kurash choralarining birortasi ham daraxt zarakunandalari uchun mukammal emas. Shuning uchun barcha kurash choralari zararkunadalarga qarshi tizimli olib borilsa, shundagina samarali bo‘ladi. Bu narsa

hashoratlarning qaysi turga mansubligi yetkazadigan zarari, hamda daraxtning qaysi ob-havo sharoitida o‘sishiga bog‘liq. Ushbu tadbirlarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun kuzatish ishlarini olib borib, hashoratni qay darajada yetkazadigan zarari, maydon, uning fiziologiyasi va ekologiyasini yaxshi bilish shart.

O‘simliklardagi zararkunandalarga qarshi kurashishning quyidagi turlari mavjud:

1. O‘simliklarning karantin tadbirlari. O‘simliklarni zararli organizmlardan himoya qilish tadbirlaridan biri o‘simliklar karantinidir. Zararli organizmlarning chet mamlakatlaridan kelib qolmasligini oldini olishga mo‘ljallangan tadbirlar tashqi karantin va mamlakat ichida biror mintaqada uchraydiganlarining tarqalib ketmasligiga karatilgan bo‘lsa, ichki karantin deyiladi. Tashqi karantinga O‘zbekiston Respublikasi hududida go‘za pushti rang qurt, kartoshka kuyasi, makajo‘xori pushti rang qurti va boshqa bir necha tur zararkunandalarning o‘tib qolmasligiga mo‘ljallangan tadbirlar kiradi.

2. Daraxt xo‘jaligi tadbiri, unda ekiladigan uru’lar va nixol tanlash, yerga ishlov berish, soglom kuchat yetkazish, zararlangan daraxt va kuchatlarni kesish ishlarini o‘z ichiga olinadi.

3. Zararkunandalarga qarshi biologik usulda kurashish zararkunandalarning tabiiy kushandalaridan foydalanishdan iboratdir. O‘simliklarni zarakunandalardan biologik usulda himoya qilish, ularning kasallik sababchisi mikroorganizmdan foydalanib zararli turlarini yo‘qotish, kamaytirish yoki ko‘payib ketishi oldini olishga asoslangan. Biologik kurash usulida turli organizmlar - yirtqich va parazit hashoratlar, kanalar, qushlar va boshqalardan foydalaniladi. Hashoratlar bilan oziqlanadigan tabiiy kushandalar entomofaglar, kanalar bilan oziqlanadiganlari esa akarifaglar deb ataladi. Biologik tadbirlarga, shuningdek, hashoratlarning jinsiy sterilizatsiyasi ham kiradi. Bunda erkak hashoratlar radiatsiya nurlari yordamida jinsiy sterilizatsiyalanishi mumkin. Hozirgi vaqtda hashoratlarni kimyoviy yo‘l bilan ham sterilizatsiyalanmoqda, bunday sterilizatorlar xemosterilazatorlar deb ataladi. Jinsiy sterilizatorlar kengroq kulamda kullash borasida olimlarimiz juda katta ishlar olib bormoqdalar.

4. O‘simliklarni kimyoviy himoya qilishda kimyoviy tadbirlarni qo‘llash va uning qisqacha tarixi. O‘simliklarni kimyoviy usulda himoya qilish zararli organizmlarni yo‘qotishda kimyoviy moddalar – pestitsidlardan foydalanishga asoslangan. O‘simliklarni zararli organizmlardan himoya qilishda qo‘llanadigan barcha kimyoviy moddalar pestitsidlar deb ataladi (pestitsid lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, zararli, yukumli, ifloslikni o‘ldiraman degan ma’noni anglatadi). O‘simliklarni

kimyoviy himoya qilish usuli bir qator afzalliklarga ega, chunki uni barcha qishloq xo‘jalik ekinlarida ko‘plab zarakunanda, kasallik va begona o‘tlarga qarshi, shuningdek omborxonalar, issiqxonalar, elevatorlar va boshqalarni zararsizlantirishda kullash mumkin. O‘simliklarni kimyoviy usulda himoya qilishning yana bir afzalligi uni mexanizatsiyalashdir, ya’ni qarshi kurashni o‘z vaqtida, sifatli qilib o‘tkazishga imkon beradi.

5. Fizik va mexanik tadbirlar. Mexanik kurash tadbirlariga, shuningdek, daraxtlarni qurigan va kasallangan shoxlarini kesish, yigilgan shox shabbalarni yoqib yuborish, meva chirish kasalligi bilan kasallangan mevalarni terib olish va boshqalar kiradi. Urug‘larni ekishdan oldin tozalash ulardagi zararkunandalarni birmuncha kamaytiradi. Omborlarda saqlanayotgan maxsulotlarni quritib, ag‘darib va shamollatib zararkunandalardan tozalanadi.

6. Uyg‘unlashgan holda himoya qilish – bu tadbirda hamma zararkunandalarning iqtisodiy xavf yetkaziladigan darajadan past holda saqlab turishdan iborat bo‘lib, zaruriyat tug‘ilganda ma’lum kurash usulini qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

TADQIQOT OBYEKTI. O‘simliklarni zararkunandalardan biologik usulda himoya qilish, ularning kasallik sababchisi bo‘lgan mikroorganizmlardan foydalanib zararli turlarini yo‘qotish, kamaytirish yoki ko‘payib ketishi oldini olishga asoslangan. Biologik kurash usulida turli organizmlar — yirtqich va parazit hasharotlar, kanalar, qushlar va boshqalardan foydalaniladi. Hasharotlar bilan oziqlanadigan tabiiy kushandalar — entomofaglar, kanalar bilan oziqlasndiganlari esa akarifaglar deb ataladi (1 - RASM).

1 - RASM





Biologik tadbirlarga, shuningdek hasharotlarning jinsiy sterilizatsiyasi ham kiradi. Bunda erkak hasharotlarni atom nurlari yordamida jinsiy sterilizatsiyalash mumkin. Hozirgi vaqtda hasharotlarni kimyoviy yo‘l bilan ham

sterilizatsiyalanmoqda, bunday sterilizatorlar xemosterilizatorlar deb ataladi. Jinsiy sterilizatorlarni kengroq ko‘lamda, qo‘llash borasida olimlarimiz juda katta ishlar olib bormoqdalar.

XULOSA. Biologik tadbirlarni keng joriy etish birmuncha afzalliklarga ega:

- iqtisodiy jihatdan arzon;
- tashkiliy tomondan oson;
- ta’siri jihatdan dayomli;
- atrof-muhitni ifloslantirmaydi;
- boshqa foydali hashoratlarni zararlamaydi.

Zararkunandalarga qarshi turli organizmlar – yirtqich va parazit hasharotlar, kanalar, qushlar va boshqalardan foydalaniladi. O‘zbekistonda o‘simliklarni biologic usulda himoya qilishda oltinko‘z, trixogramma va brakon entomofaglari keng qo‘llanilmoqda. Hozirgi paytda o‘simliklarni biologic himoya qilishda keng qo‘llanilayotgan entomofaglar orasida oltinko‘zalohida o‘rinni egallaydi.

Oltinko‘z hasharotidan samarali foydalanish uchun avvalo bu kushandaning biologic xususiyatlari va qo‘llash texnologiyasini chuqur bilish lozim. O‘zbekiston sharoitida asosan oddiy oltinko‘z *(Chrysopa carnea)* va yeti nuqtali oltinko‘z *(Chrysopa septempunctata Wegrn)* ko‘p qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Olimjonov “Entomologiya”, Darslik, Toshkent - 1977
2. X. X. Kimsanboyev va boshqalar “O‘simliklarni kimyoviy himoya qilish”, Darslik, Toshkent – 1997
3. H. Otaboyeva va boshqalar “O‘simlikshunoslik”, Darslik, Toshkent - 2000
4. Sh. T. Xo‘jayev va E. A. Xolmuradov “Entomologiya, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari”, O‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2009

O‘RTA OSIYO, XUSUSAN O‘ZBEKISTON HUDUDI PALEOLIT, MEZOLIT DAVRI YODGORLIKLARINING TARIXSHUNOSLIGI

Hasan Rashidov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu taqdim etilgan maqolada, Markaziy Osiyo xususan O‘zbekiston xududida paleolit davrining shell, ashel, muste va meziolit davri arxeolik yodgorliklarining tarixshunosligi bir qator arxeologlarning asarlari orqali tarixshunosligiga alohida ahamiyat qaratilgan.

Kalit so‘zlar: paleolit (qadimgi tosh davri), mezolit (o‘rta tosh davri) va neolit (yangi tosh davri), Omonqo‘ton, Qo‘tirbuloq, Samarqand manzilgohlari va Sazag‘on I, II, Ў. Исломов А. П. Окладников, В. А. Ранов, Қулдара, Лахути, Қоратов 1, 2 ёдгорликлари, Шугнов В. А. Ранов, Д. Н. Лев, М. Джуракуловлар

Annotation: In this presented article, special importance is attached to the historiography of the archeological monuments of the Paleolithic era, Ashelian, Muste and Mesolithic era in Central Asia, especially in the territory of Uzbekistan, through the works of a number of archaeologists.

Key words: Paleolithic (Old Stone Age), Mesolithic (Middle Stone Age) and Neolithic (New Stone Age), Amonkoton, Kotyrbulok, Samarkand settlements and Sazagon I, II, U. Islamov , A. P. Okladnikov, V. A. Ranov, Kuldara, Lakhuti, Karatov 1, 2 monuments, Shugnov, V. A. Ranov, D. N. Lev, M. Djurakulov.

Kishilik tarixi rivoji mehnat qurollarining yasalishi xom ashyolariga qarab bo‘linishiga insonlar qadimdan e’tibor qaratishgan. Bunday bo‘linishda tosh asri uzoq yillarni o‘ziga qamrab olgan, paleolit (qadimgi tosh davri), mezolit (o‘rta tosh davri) va neolit (yangi tosh davri) kabi tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan iborat bo‘lgan tarixiy davr hisoblanadi. Jumladan, uning paleolit davri 3-2 mln. - 12 000 yilliklarni o‘z ichiga olib, o‘z navbatida ilk, o‘rta (mute) va so‘nggi paleolit kabi taraqqiyot bosqichlaridan iborat.

O‘rta Osiyo sarhadlari ashel, muste davri paleoekologik, paleojug‘rofik sharoitlari to‘g‘risida ba’zi tadqiqotlar amalga oshirilgan Bu haqda Zarafshon vohasida amalga oshirilgan izlanishlar qiziqarli ma’lumotlarni berdi. Bu ma’lumotlarga ko‘ra pleystsen davrining boshlarida O‘rta Osiyoning barcha yerlarida sovuq iqlim hukmron bo‘lib, tekisliklarda namgarchilik, yog‘in mo‘l bo‘lgan, shimoliy kengliklarga xos o‘simliklar (taiga) ko‘paygan va rivojlangan. Keyin

boshlangan jarayoni ilk paleolit o‘rtalariga kelib o‘zining yuksak darajasiga yetgan. Namgarchilik va yog‘ingarchilikning ko‘payishi, yomg‘ir suvlarining to‘planishi jarayonining qaytadan boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan navbatdagi bosqich o‘rta poleolit davrining boshlariga to‘g‘ri keladi. Lekin o‘rta pleystosenning ikkinchi yarmi quruq va issiq iqlimga ega bo‘lgan. So‘nggi poleolitnning boshlarida yoki ehtimol sal keyinroq iqlimning yana namgarchilik, yog‘ingarchilik tomonga o‘zgarishi ro‘y beradi. Yuqorida tilga olingan bosqichning o‘ziga xosligi shundaki, ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikricha, O‘rta Osiyo tog‘lari, tog‘ oldi va tekisliklarini must’e davri odamlari tomonidan o‘zlashtirilgan. Bu davr Zarafshon havzasi qadimgi jug‘rofiyasi va geologiyasi haqida E. D. Mamedovning tadqiqotlari natijalari muhim hisoblanadi. Sovuq va quruq iqlimga ega bo‘lgan yangi arid iqlimiy fazasi (janak aridi) so‘ngi pleystosenning oxirlarida boshlanib, ilk golosen tamom bo‘lgan davrgacha davom etgan. Lekin muzliklar egallagan mintaqa qisqarib, orqaga surilib borgan sari bu joylarda yog‘ingarchilik ko‘payib, issiqlik darajasi ko‘payib borgan. Zarafshon havzasi hududida so‘nggi pleystotsen va ilk golotsen davrida, aniqrog‘i, golotsen boshlanishi va birinchi yarmida yuqori paleolit jamoalarining madaniyatlari tarqalgan. Bu davrda muste davri yodgorliklariga nisbatan so‘nggi paleolit davri yodgorliklarining kamliligi fakti mavjud. Bu holat bo‘yicha M. Djurakulov ikki xil sabab bo‘lganligini taxmin qiladi. Birinchi taxminga ko‘ra yuqori paleolit davrida tosh qurollar tayyorlash texnikasining ba’zi usullari va ayrim must’e davriga xos qurol shakllari saqlanib qolganligi sababli ma’lum yuqori paleolit davriga oid , ayniqsa geologik sanaga ega bo‘lmagan, yer yuzasidan terib olingan tosh qurollar kolleksiyalarining davr va sanasini aniqlash qiyinlashadi. Birinchisi bilan bir paytda oldinga surilgan ikkinchi yondoshuv tarafdorlari qadimgi iqlim haqidagi ma’lumotlarga asoslanib, so‘ngi pleystosennning oxirida (yoki ikkinchi yarmida) iqlimning aridlashuvi va sovuqning kuchayishi yuqorida aytilgan holatni vujudga keltirilganini ta’kidlaydilar. Bu olimlar ana shu narsaga e’tiborini jalb qilishadiki, O‘rta Osiyo yuqori paleolit yodgorliklarining deyarli barchasi tog‘ oldi, past tog‘lar, tog‘ vodiylari, dengiz bo‘yidagi past tog‘lik joylardan va yirik cho‘kmalarning terrasalaridan topilgan bo‘lib, bu yerlarning tabiiy sharoitlari inson uchun arid davrlarda tekisliklarga qaraganda, umuman, olganda, ancha qulay bo‘lgan. Zarafshon cho‘kmasining ekologik vaziyatini Omonqo‘ton, Qo‘tirbuloq, Samarqand manzilgohlari va Sazag‘on I, II makonlaridan olingan jonivorlar qoldiqlarini (fauna) o‘rganish natijasida olingan ma’lumotlar to‘ldirib, tabiiy- xo‘jalik mintaqalari tog‘risida ma’lumot beradi. Omonqo‘ton g‘oridan qazib olingan Osiyo yovvoyi quyi, iptidoiy bo‘qa (tur), bug‘u, ayiq singari jonivor qoldiqlari (fauna) muste davrida O‘rta

Zarafshonda yashagan neandertal odamining atrofini o‘rab turgan tabiiy sharoitlarni aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Bu jonivorlarning mavjudligi Omonqo‘ton atrofida o‘sha davrda, asosan ingichga bargli o‘rmonlar bo‘lganligidan dalolat beradi. Undan tashqari, bu yerda ko‘plab osiyo mufloni, qulon, jayra va dasht toshbaqasining suyak qoldiqlari uchrashi qachonlardir zich o‘simlik- o‘tlar bilan qoplangan ochiq tekis joylar- dalalar mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Bu yerda yirik o‘simliklar, daraxtlar bo‘lganligini faqat o‘rmon va o‘rmon- dasht mintaqalarida yashovchi jonivorlar qoldiq suyaklari borligigina emas, gulxanlarda kuyib ko‘mir bo‘lib qolgan, qadimgi daraxtlardan olingan kul qoldiqlarining analizi ham tasdiqlaydi. Qo‘tirbuloq yodgorligidan topib o‘rganilgan, ibtidoiy buqa, buxoro bug‘usi, qulon va boshqa turdagi jonivorlarning suyak qoldiqlari (fauna kompleksi) mazkur joydagi tabiiy sharoit ham Omonqo‘ton atroflaridagiday bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi. Bu manzilgohlar, qalin maysa o‘sgan ochiq dalalar bilan aralashgan holda daraxt va butalar o‘suvchi mintaqada joylashgan. Samarqand manzilgohi aholisining qadimgi ekologiyasini faqatgna qadimgi jonivorlar qoldiqlari asosidagina emas, balki o‘simlik qoldiqlari(flora) ham saqlanib qolganligi uchun yanada atroflicha o‘rganib, yoritish mumkin. O‘simlik qoldiqlari qayrag‘och bargining, qamish va daraxt shoxlarining qotib toshga aylangan loydagi izlari sifatida saqlanib qolgan. Urug‘- chang taxlili bu yerda qarag‘ay, yong‘oq, qayin, zirk, juka daraxtlari urug‘changlari borligini ko‘rsatadi. Paleobotanika ma’lumotlari paleozoologiya bergan ma’lumotlarni to‘ldirib, Samarqand manzilgohi atrofdagilar yer yuzasi tuzulishi to‘g‘risidagi qo‘shimcha axborot beradi. Manzilgoh atrofidagi yerlar dasht va yarim cho‘l bo‘lib, bu yerlarda ham yovvoyi ot, tur, jayron, to‘dalari o‘tlab yurgan, daryo bo‘ylari va botqoqlik, to‘qayzor va qamishzorlardan iborat bo‘lgan (bunga yovvoyi cho‘chqa- to‘ng‘iz va bug‘u suyaklari qoldiqlari dalil bo‘ladi). Jonivor suyaklari qoldiqlari ov shakllarining turlichaligini (hayvonlarni o‘rab olib ovlash- oblava) va ovda ham ko‘p tomonlama ixtisoslashuv (birinchi o‘rinda hayvonlarning biron turga, eng avvalo , ot, pleystosen eshagi singari poda bo‘lib yashovchi hayvonlarni ov qilishga ixtisoslashish paydo bo‘lganligigina emas, manzilgohlarning madaniy xo‘jalik sohasidagi o‘zgarishlarni ham yaqqol ko‘rsatib beradigan manba bo‘lib xizmat qiladi. Jonivor va o‘simlik- qoldiqlarini tadqiq qilish o‘rganilayotgan davrda ancha muhim bo‘lgan tabiiy muhit to‘g‘risidagi ayrim ma’lumotlarni aniqlash imkonini beradi. Golosenda tabiiy muhit o‘zgaradi. Nisbatan yumshoq “yomg‘irli” (plyuvial) iqlim davri boshlanadi. O‘simlik va hayvonot dunyosi o‘zgarib boradi. Bu esa o‘z navbatida, Samarqand cho‘kmasidagi ibtidoiy odamlarning xo‘jalik faoliyati yo‘nalishining o‘zgarishiga keyinchalik esa bu jarayon ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka

olib keladi. Iqlim va umumiy landshaft sharoitlarining pleystosen hamda golosenda o‘zgarib ketishi ibtidoiy aholining katta ko‘chishlarga sabab bo‘ladi, ularning ishlab chiqarish faoliyatlariga, ayniqsa turli tabiat mintaqalari chegaralarida yashagan aholi faoliyatiga, ishlab chiqarish faoliyati yo‘nalishlariga nihoyatda ta’sir ko‘rsatadi.

Ўрта Осиё, хусусан Ўзбекистон ҳудуди палеолит даври тарихшунослигида 1938 йилда Тешик-тош ғор макони тадқиқ этилган бўлса, кейинги йилларда, яъни 1940-yillari 2-yarmi- 50- yillardan e’tiboran палеолит davri yodgorliklari tadqiqoti yanada jadallashib ketganлигини кўрамиз, . Bu davrda o‘rganilgan yodgorliklar jumlasiga Turkmanistondagi Yangadja, Tojikistondagi Qizilqal’a, Ko‘hipiyoz, Qayroqqum, Qayqitov, Qirg‘izistondagi Xo‘jago‘r, Onorcha, Qayrag‘och, Uchqo‘rg‘on, Polman va Janubiy Qozog‘istonning Qoratov atrofidan hisobga olingan yodgorliklarni kiritish mumkin. Xususan, 1954 -1961 yillarida Qayroqqum manzilgohi, 1954 -1955 yillarida Xo‘jagur makoni, 1957-1964 yillarida Qorabo‘ri yodgorligi, 1958–1959–yillarda Xo‘jakent, 1961-1963-yilllarda Jarqo‘ton , 1971- 1972 yillarda Zirabuloq, 1971–1972 yillarda Qo‘tirbuloq , 1962 -1970 yillarda Obirahmat, 1958-1972 yillarda Samarqand makoni kabilar tadqiq etilgan. Bulardan tashqari keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tufayli yana bir qancha yodgorliklar topilib o‘rganildiki, ular O‘rta Osiyo paleolit davri tarixini mazmunan ma’lum darajada boyitdi. Bunga misol qilib Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston respublikalaridan, so‘ngra O‘zbekistonning Farg‘ona, Ohangaron vodiylaridan, keyingi yillarda esa Qoraqalpog‘istonning Ustyurt o‘lkasidan topilgan materiallarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Angren shahri yaqinida joylashgan Ko‘lbuloq paleolit makoni M. Qosimov tomonidan 1970-80-yillarda tadqiq etilgan. Farg‘ona vodiysida 1985 yildan Sel-Ungur g‘or makoni O‘. Islomov tomonidan, Tojikiston hududida A. P. Okladnikov, V. A. Ranov tomonidan Quldara, Laxuti, Qoratov 1, 2 yodgorliklari, Tojikistondagi Shugnov yuqori paleolit makoni V. A. Ranov tomonidan, 1958-1969 yillar maboyinida D. N. Lev, M. Djurakulovlar tomonidan Samarqand so‘nggi paleolit yodgorligi o‘rganilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исламов У. И. , Тимофеев В. И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Ташкент: Фан, 1986.

2. Джуракулов М. Д. , Холматов Н. У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. – Ташкент: Фан, 1991.

3. Виноградова Н. М. , Ранов В, А. , Филимонова Т. Г. Изучение гиссарской культуры и неолитические слои поселения Кангуртут. М. , 2008

4. Kabirov J. . , Sagdullaev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. –Toshkent, 1990.
5. Sagdullaev A. S. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. —T. , 1996.

QISQICHBAQASIMONLAR (CRUSTACEA) SINFI VAKILLARINING AHAMIYATI VAULARNING FOYDALI XUSUSIYATLARI

Fotima Panjiyeva Oripovna
O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

Annotatsiya: Yashash muhiti va tarqalishi. Qisqichbaqasimonlar birlamchi suv hayvonlari hisoblanadi. Asosiy ko‘pchilik turlari suvda yashaydi; ayniqsa dengizlarda tarqalgan. Ular chuchuk suvlarda ham uchraydi. Bir qancha vakillari quruqlikda hayot kechiradi(zaxkashlar, ayrim krablar). Qisqichbaqasimonlar (kalanuslar, diaptomuslar, dafniyalar, sikloplar) dengiz va chuchuk suv planktonining 90% idan oshiqroq qismini tashkil etadi. Ko‘p turlari suv tubida harakat qilib hayot kechiradigan bentos hayvonlari hisoblanadi (daryo qisqichbaqasi, omarlar, krabalar, langustlar). Mo‘ylovoyoqli qisqichbaqasimonlar esa o‘troq hayot kechiruvchi bentos hayvonlarga kiradi. Turli krevetkalar suv qa’rida suzib yuradi. Qisqichbaqasimonlar orasida suv hayvonlari tanasida parazitlik qilib hayot kechiradigan turlari ham bor.

Qisqichbaqasimonlar eng keng tarqalgan hayvonlar bo‘lib, ularni tropikadan boshlab shimoliy mintaqalardagi barcha suv havzalarida, g‘orlardagi ko‘llarda, hovuzlarda va ayrim ko‘lmak suvlarda uchratish mumkin. ular ko‘pchilik dengiz hayvonlari, jumladan baliqlar uchun asosiy oziq hisoblanadi. Yer yuzida eng yirik hisoblanadigan tishsiz kitlar ham mayda plankton qisqichbaqasimonlar bilan oziqlanadi. Krevetkalar, krabalar, omarlar, daryo qisqichbaqalari va boshqa oziq uchun ishlatiladigann turlari ovlanadi. Qisqichbaqasimonlar sinfiga 30 mingga yaqin bo‘g‘imoyoqlilar kiradi.

Kalit so‘zlar: Crustacea, furka, akron, telson, antenullalar, antennalar, mandibula, protatsefalan, gnatotsefalon, epipadit, siklop protapodit, ekzopadit, kardial, ostiylar, deytotserebrun.

Аннотация: Среда обитания и распространение. Ракообразные являются основными водными животными. Основное большинство видов обитает в воде; Особенно распространен в морях. Они также встречаются в пресной воде. Многие его представители живут на суше (хеллеры, некоторые крабы). Ракообразные (останки, диаптомы, дафнии, циклопы) составляют более 90% морского и пресноводного планктона. Сенокос Бентос, где живут многие виды, перемещаясь по дну воды являются животными бентос (речные креветки, омары, скалы, лангусты). А лосиные ракообразные, с другой стороны, входят в состав животных бенто, которые живут травянистым способом. Различные

креветки плавают в дрейфе воды. Среди ракообразных есть виды, которые обитают паразитами в организме водных животных.

Ракообразные – самые распространенные животные, начиная с тропиков во всех водоемах северных регионов, озерах в пещерах, прудах и может быть найден в некоторых прудовых водах. Они являются основной пищей для многих морских животных, в том числе и для рыб. Беззубые коршуны, считающиеся самыми большими на земле, также питаются мелкими планктонными ракообразными. Охотятся на виды, используемые для краветки, кракетов, омаров, речных креветок и другой пищи. Около 30 000 суставов kiradi. va можно найти в некоторых озерных водах. У них много морских животных, в том числе.

Ключевые слова: Ракообразные, фурка, акрон, тельсон, антенны, мандибула, протацефалан, гнатоцефалон, эпипадит, протаподит, экзопритус, кардиальный, нижняя, дейтоцеребрун

Annotation: Habitat and spread. Crustaceans are the primary aquatic animals. The main majority species live in water; especially common in the seas. They are also found in freshwater. Many of his representatives live on land (hellers, some crabs). Crustaceans (remains, diaptomus, daphnias, cyclops) make up more than 90% of the sea and freshwater plankton. Bentos, where many species live by moving at the bottom of the water are animals (river shrimp, omars, crabases, langusts). And the moose crustaceans, on the other hand, enter the bentos animals that live in the grassy way. Various crevetkas float in the water drift. Among the crustaceans are species that live as parasites in the body of aquatic animals. Crustaceans are the most common animals, which can be found in all ponds in the northern regions, lakes in caves, pools and some puddle waters starting in the tropics. they are the main food for many marine animals, including fish. Toothless kites, considered the largest on earth, are also fed by small plankton crustaceans.

Keywords: Crustacea, furka, akron, telson, antennas, mandibula, protatsefalan, gnatotsefalon, epipadite, cyclop protapodit, exopritus, cardial, undersides, deytotserebrun

Kirish: Ko‘krak va qorin bo‘g‘imlarining soni va shakli har xil bo‘ladi. Yuksakk qisqichbaqasimonlar ko‘kragi 8, qorin bo‘limi 6 bo‘g‘imdan, butun tanasi esa 18 bo‘g‘imdan iborat (akron bunga kirmaydi). Qorin bo‘limining oxirgi bo‘g‘imi anal plastinka, ya’ni telsonni hosil qiladi. Tuban qisqichbaqasimonlarning telsonida furka deb ataladigan bir juft ayri o‘simtasi bo‘ladi. Ko‘pchilik tuban tuzilgan

qisqichbaqasimonlarning tana bo‘g‘imlari erkin bo‘lib, bir-biridan yaxshi ajralib turadi. Oliy qisqichbaqasimonlarda esa bo‘gimlar bir-birlari bilan turli darajada qo‘shilib ketadi. Ko‘pchilik qisqichbaqalar bosh qismining tuzulishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Masalan, o‘noyoqli, jabraoyoqli, yonlab suzuvchi va boshqa bir qancha qisqichbaqasimonlar boshining oldingi bo‘g‘imlari ya’ni birinchi antennula bo‘g‘imi(akron). Ikkinchi antennal bo‘g‘imi bilan birga qo‘shilib, prototsefalon deb ataladigan dastlabki boshni hosil qiladi. Bu bo‘limda ko‘zlar va ikki juft mo‘ylovlar joylashgan. Prototsefalon boshining keyingi bo‘’g‘imi, xususan, mandibula bilan harakatchan qo‘shilgan. Boshning bir-biri bilan tutashib ketgan uchta (bitta mandiula va ikkita maksilla) bo‘g‘imda tashkil topgan keyingi qismi esa jag‘ bo‘limi, ya’ni gnatotsefalon deb ataladi. Gnatotsefalon qismi o‘z navbatida bir necha ko‘krak bo‘g‘imlari bilan qo‘shilib ketadi. Daryo qisqichbaqasida esa gnatotsefalon hamma ko‘krak bo‘g‘imlari bilan qo‘shilib boshko‘krak, aniqrog‘i jag‘ko‘krakni hosil qiladi. Boshqa ko‘pchilik qisqichbaqasimonlar(tengoyoqlilar, kurakoyoqlilar, yonlab suzuvchilar) bosh bo‘limi bo‘g‘imlari birrinchi va ikkinchi ko‘krak bo‘g‘imlari bilan qo‘shilib ketadigan 5ta (akron va 4ta tana bo‘g‘imlaridan tashkil topgan. Og‘iz teshigi oldingi tomondan kutikuladan hosil bo‘lgan plastinkasimon yuqori lab bilan to‘silgan. Ko‘pincha oxirgi bosh bo‘g‘imining keyingi cheti kengayib, boshqalqon karapaksni hosil qiladi. Hayvonning tanasi ana shu chig‘anoq ichida joylashgan(dafniya, chig‘anoqli qisqichbaqasimonlar). Yuksak qisqichbaqasimonlarda karapaks ko‘krak segmentlari bilan birga qo‘shilib ketgan. Daryo qisqichbaqasining boshko‘krak qalqoni sirtidagi ko‘ndalang chuqurchasi boshning gnatotsefalon (jag‘)ini ko‘krak bilan qo‘shilish chegarasiga to‘gri keladi.



Daryo qisqichbaqasi va boshqa bir qancha qisqichbaqasimonlarning boshko‘krak qalqoni ko‘krak bo‘g‘imlari bilan birikib ketgan. Dafniya va chig‘anoqli qisqichbaqalarning tanasi yon tomonidan siqilgan, qalqoni tanasini ikki yonidan o‘rab oladi.

Ko‘rish organlari, oddiy tuzilgan bitta nauplis va ikkita murakkab fasetkali ko‘zlardan iborat. Nauplis ko‘z lichinkalar uchun xos bo‘lsa-da, voyaga yetgan

qisqichbaqasimonlarning ko‘pchilik turlarida ham uchraydi. Bunday ko‘z antennullalar o‘rtasida boshning peshona qismida joylashgan. Nauplis ko‘z chuqurcha shaklidagi ikki yoki to‘rtta qadahchalardan tarkib topgan. Chuqurcha devorida qora pigment bilan qoplangan bir qavat retinal(sezgir) hujayralar, uning tashqi botiq tomonida nurni sindiradigan gavhar linza joylashgan. Nerv tolalari – retinal hujayralarning orqa tomonidan chiqadi. Shunning uchun nauplius ko‘z invertirlangan(teskari ag‘darilgan) hisoblanadi.

Fasetkali ko‘zlar juda ko‘p mayda ko‘zchalar ommatidlardan iborat. Daryo qisqichbaqasining ko‘zida 3000dan ko‘proq ommatidlar bo‘ladi. Pigmentli juda yupqa parda ommatidlarni bir-biridan ajratib turadi. Har bir ommatid yorug‘lik nurini qaytaruvchi va sezuvchi elementlarga ega bo‘lgan mustaqil ko‘zcha hisoblanadi. Ommatidlarning asosiy qismi konusga o‘xshash toraygan, uchki qismi esa kengaygan bo‘lganidan murakkab ko‘z qavariq yarim sharga o‘xshaydi. Har bir ommatid yorug‘lik nurini sindiradigan murakkab tuzligan apparat va bir qancha retinal hujayralardan iborat. Retinal hujayralardan ko‘rish nervlari ketadi. Ommatidning muguzsimon sirtqi yuzasi juda kichik prizma shaklga ega. Unga buyumning kichik bir qismi tasviri tushadi. Ana shunday minglab kichik bo‘lakchalardan umumiy tasvir hosil bo‘ladi. Tasvirning bu xilda hosil bo‘lishi mozaik ko‘rish deyiladi. Ommatidlar qavariqligi sababli fasetkali ko‘zlarning ko‘rish maydoni keng bo‘ladi. Ko‘pchilik qisqichbaqasimonlarning fasetkali ko‘zlari maxsus poyacha ustida joylashganligi ham ularning ko‘rish maydonini kengaytirishga yordam beradi.

Asosiy qism. Qisqichbaqalarning tullashi murakkab fiziologik o‘zgarishlar natijasida sodir bo‘ladi. Tullash oldidan gemolimfa va to‘qimqlarda har xil organik (oqsillar, lipidlar, uglevodlar)va mineral moddalar (tuzlar)to‘planadi, moddalar almashinuv jarayoni tezlashib ketadi. Tarkibidagi moddalarning bir qismini gemolimfaga o‘tishi tufayli eski kutikula tobora yupqalashib boradi. Shuning bilan birga eski kutikula ostidan gipoderma hisobidan yangisi hosil bo‘la boshlaydi. Yangi kutikula uchun zarur bo‘lgan moddalar gemolimfa va to‘qimalardan olinadi.

Tullash davrida eski kutikula yorilishi natijasida hosil bo‘lgan teshikdan hayvon sirg‘alib chiqadi. Eski kutikular qini – ekzuviy esa bo‘shab qoladi. Yangi kutikula egiluvchan va yumshoq bo‘lganidan hayvon tez o‘sadi. Hayvon tanasining hajmining yiriklashuvi asosan organizmda suv almashinuvining o‘zgarishi, to‘qimalarga ko‘p miqdorda suv shimilishi hamda to‘qima va organlarni tashkil etuvchi hujayralarning bo‘linib ko‘payishi natijasida sodir bo‘ladi. Tullashdan keyin mineral tuzlarning ko‘p miqdorda to‘planishi natijasida kutikula tez vaqt ichida qattiqlashib qoladi va hayvon o‘sishdan to‘xtaydi.



Hayvonlarning tullashi gormonal sistema nazorati ostida bo‘ladi. Bu jarayon sinus bezlarining neyrosektor hujayralari(126-rasm) va bosh qismida joylashgan endokrin bezi gormonlari muhim ahamiyatga ega. Endokrin bezi gormonlari tullashni tezlashtiradi; ko‘z poyachalarida joylashgan neyrosekretor hujayralarning gormonlari esa endokrin bezi gormonlari tasirini to‘xtatib turadi. Tullash davrida endokrin bezi gormonlari ko‘p ishlab chiqariladi. Tullash tamom bo‘lgandan so‘ng bu bez gormonlari kamayib, ko‘zlarning poyachasidagi neyrosekretor hujayralar gormonlari ko‘p ishlab chiqarila boshlaydi. Qisqichbaqa yog‘i sovutish va yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega bo‘lib, burun yo‘lini tozalash uchun tez-tez ishlatiladi. Ushbu ekspektoran turli xil nafas olish buzuqliklari, yo‘tallar, bronxit, astma, sinuzit va sil kasali uchun foydali davolash. Qisqichbaqa yog‘i an’anaviy ravishda oshqozon bilan bog‘liq muammolar, masalan, hazmsizlik harakat kasalliklari va meteorologik davolash uchun samarali bo‘ladi. shuningdek ko‘ngil aynish va gijjalarni kamaytirishda yordam beradi va tez-tez homiladorlik bilan bog‘liq ertalab kasallik va noqulaylik uchun ishlatiladi. Vaqti-vaqti bilan aromaterapiyada yoki uzoq vaqt davomuda nafas olish uchun uni yostiqlarga qo‘llash orqali ijobiy ta’sirga olib kelishi mumkun. Qisqichbaqa go‘shti yurak-qontomir tizimining kasalliklari bo‘lgan kishilar uchun foydalidir, chunki bu mahsulot juda ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalar va xolesterin bo‘lmagan hazm bo‘ladigan oqsillar tarkibiga kiradi va qonda zaharli xolesterin miqdori kamayadi. Anemiya dietangizga ko‘proq qisqichbaqa go‘shtini kiriting. Ko‘zlarning sog‘lig‘i yomonlashganda shuningdek, qobiqni iste’mol qilish tavsiya etiladi. Qisqichbaqa go‘shtini doimiy istemol qilish yoshlikni va go‘zallikni saqlab qolishi mumkin umumiy farovonlik va tashqi korinish yaxshilanadi , ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalar tufayli teriga elastiklik kiradi, ajinlar yumshatiladi. Oziq-ovqat mutaxasislari, sharqona mamlakatlarda bo‘lgani kabi, guruch bilan uni birlashtirgan holda haftasiga 2-3 marta qaynatilgan go‘shtni iste’mol qilishni tavsuya qiladi . Ushbu mahsulotlarning kombinatsiyasi kompozitsionda mukammal darajada muvozanatlangan, tanani ko‘tarmaydi va oson hazm qilinadi. Sovutilgan va yangi qisqichbaqasimon saqlash muddati kamligini esga olish kerak.

Qisqichbaqa taxminan 180 million yil oldin yer yuzida paydo bo‘lgan va hozirda ularning turlari 10000 dan oshdi. Ularning kichkina boshi , jag‘ va ko‘krak ostiga egilgan qisqa qorin va harakatlanish uchun mo‘ljallangan to‘rt juft oyoqlari bor. Beshinchi juft oziq-ovqatni tortib oladigan qisqichlar bilan qurollangan. Suv dekapodlari oziq-ovqat, boshpana va boshqa jinsdagi kishilarni qidirishda nafaqat ko‘rish, balki, hid, teginish va kimyoviy tuyg‘ulardan foydalanadilar.

Xulosa: Qisqichbaqasimonlar(crustacea) sinfi vakillari inson organizmiga juda katta foyda keltiradi. Xususan uning go‘shti mazali va shirin, shuningdek parhez uchun ham foydali, chunki unda insonga foydali bo‘lgan elementlar manbai mavjud. Turli dengiz mahsulotlarini muntazam iste’mol qiladigan ko‘plab yaponiyaliklarning salomatligi, uzoq umr ko‘rish muddati boshqa dengiz mahsulotlari iste’mol qilmaydiganlarga nisbatan farqli. Bu esa inson salomatligi uchun qanchalik foydali ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Qisqichbaqa go‘shti va sut tarkibidagi vitamin C hujayralarimizdagi viruslarga qarshi kurashishga yordam beradi. Tana teri holatiga ijobiy ta’sir qiladi. Yomon xolesterin darajasini pasaytiradi, immunitetni oshiradi, shuning bilan birgalikda inson salomatligi uchun foydali hisoblanadi.

O‘zbekiston hududida ham qisqichbaqalarni intensiv ravishda ma’lum bir kichik hovuz va handakchalarda boqib ko‘paytirish, oziq-ovqat sanoatiga kiritish chora va tadbirlarini amalga oshirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www. booksite. ru/fulltext/1/001/008/069/373. htm
2. https://www. booksite. ru/news-room/fact-sheets/detail/leishmaniasis
3. https:/www. msdmanuls. com/ru.
4. https:/medic. pnzgu. ru/page/15678

IS’HOQXON IBRAT ASARLARIDA IJTIMOIY VOQELIKNING BADIIY IFODALANISHI

Dilsora Raximova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Is’hoqxon Ibrat asarlarida ijtimoiy voqelikning badiiy ifodalanishining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, uning asarlarida ijtimoiy voqelikning badiiy ifodalanishining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Is’hoqxon Ibrat, Is’hoqxon ijtimoiy voqelik, badiiy ifoda.

Annotation: This article highlights the specific features of the artistic expression of social reality in the works of Is’haqkhan Ibrat. Also, conclusions and suggestions are given on the artistic expression of social reality in his works.

Keywords: Is’haqkhan Ibrat, social reality, artistic expression.

Kirish. Globallashuv davrida milliy va ma’naviy qadriyatlarga - ommaviy madaniyatning tahdidi kuchayib bormoqda. Eng avvalo, yosh avlodni bilim olish, vatan va yurt obodligi, rivojlanishi uchun hissa qo‘shishi lozimligiga tahdid solib, yoshlarning ongini “ravon hayot”, “oson pul topish”, “ma’naviy begonalashish”, “ruhan uzoqlashish” kabi illatlar bilan zaharlamoqda. Bu esa milliy ma’naviy qadriyatlarimiz ajdodlarimizning ibratli hayoti, sa’yi harakatlari bilan saqlab qolinganini, ularni asrab-avaylab, ya’ni ma’naviy boyliklar bilan boyitib kelajak avlodga yetkazish vazifasini oldimizga qo‘yadi. Darhaqiqat, “turli mafkuraviy va ma’naviy tahdidlarga qarshi - bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug ajdodlarimiz bor”[6]. Shuning uchun, ma’naviyatimizning ildizlari bo‘lgan buyuk mutafakkurlarimizning hayoti va ijodini keng ommaga targ‘ib qilish ulkan ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, XIX asr oxiridayoq dunyo kezib, ilm o‘rganib, bir nechta tillarni puxta bilgan poliglot, shoir, pedagog, publitsist, tilshunos sifatida Is’hoqxon to‘ra Ibratning faoliyatini o‘rganish, yosh avlodda unga nisbatan cheksiz faxr iftixor tuyg‘usini shakllantirish va shu orqali ularni vatanparvar, fidoiy shaxs etib tarbiyalash lozim. Ayniqsa, Is’hoqxon Ibratning boy adabiy va ilmiy merosini yoshlarga o‘qitish orqali ularni yuksak ma’naviyatva ma’rifat ruhida tarbiyalash, Ibrat ijodini o‘rganish orqali talaba yoshlar adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish, farzandlarimizning ma’naviy dunyosi mukammal bo‘lishiga

hissa qo‘shadi. Albatta, mamlakatimiz dunyo tamadduni va ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ allomalar, aziz-avliyolar yurti sifatida shuhrat qozongan. Ajdodlarimiz bebaho merosini ilmiy asosda chuqur o‘rganish doimiy e’tiborda. Jumladan, Sh. Mirziyoyev 2016 -yil 2- noyabr kuni Namangan viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda buyuk taraqqiyparvar va ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibratning xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy yuksalishi yo‘lidagi beqiyos xizmatlariga ehtirom ramzi sifatida uning nomini abadiylashtirish, u kishiga atab zamonaviy bog‘ yaratish, yodgorlik majmuasi va “Ibrat maktabi”ni tashkil qilish tashabbusini ilgari surdi. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi “Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida atoqli ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibrat yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 208-sonli qarori qabul qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Is’hoqxon Ibrat ijodini o‘rganish, qo‘lyozma asarlarini nashrga tayyorlash ishlari ham amalga oshirilmoqda. Is’hoqxon Ibrat taraqqiyparvar ziyoli, ma’rifatparvar shoir, xattot, jonkuyar muallim, sayyoh, tilshunos va tarixshunos olim, o‘zbek matbaachiligining asoschisi, noshir, publitsist, bir so‘z bilan aytganda, serqirra faoliyat egasidir.

I. Ibratning hayoti va faoliyatiga oid U. Dolimov, S. Rustamov, T. Malik, Sh. Yusupov, N. Jabborov, D. Ziyoyeva, A. Abdunabiyev, Ya. G‘affarov, K. Vohidova, M. Saribayeva kabi olimlar tomonidan pedagogig, falsafiy, tarixiy naqtai nazardan o‘rganilgan manbalarni uchratish mumkin. Xususan, M. Abdullaevaning “Is’hoqxon Ibrat – serqirra ijod sohibi”, A. So‘fizoda “Istiqlol qahramonlari. Ibrat. Tanlangan asarlar”, “Is’hoqxon Junaydullaxo‘ja o‘g‘li Ibrat. Farg‘ona tarixi”, U. Dolimov “Is’hoqxon Ibrat” va “Is’hoqxon Ibrat. Istiqlol fidoyilari”, “Is’hoqxon Ibrat. Tarixi Farg‘ona” va boshqalar.

Y. Gaffarov tomonidan yozib qoldirilgan, Ibrat zamondoshlari xotiralari, qarindosh-urug‘lari, shogirdlari bilan suhbatlar asosida to‘plangan faktlar ham Ibrat hayotining so‘nggi davrlariga oid muhim manbalar hisoblanadi. M. Sariboyeva «Ibratning ibratli hayot yo‘li» nomli maqolasida ma’rifatparvar, fidoyi shoirning hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar yangi manbalar asosida yoritilgan hamda uning ayrim asarlarining ta’lim-tarbiyaviy jihatlari tahlil etilgan.

NATIJALAR

Is’hoqxon Ibratning «Mezon uz-zamon» (Zamon o‘lchovi) asari 2001-yilda yapon olimlari bilan hamkorlikda nashr etilgan bo‘lib, undagi to‘qqizta mezon bugungi odamlar uchun ham katta ahamiyatga ega. 2000- yilda esa shoir qalamiga

mansub she’rlari yirik so‘zboshi bilan Turkiyada turk adabiyoti antologiyasi seriyasida nashr etilgan.

Professor U. Dolimovning “Milliy uyg‘onish pedagogikasi” asarida Ibrat haqida va uning ijodini xorijdagi tadqiqi haqida qimmatli fikrlarni berilgan. Yana U. Dolimov va N. Jabborov hamkorlikda adib asarlarining tanlangan nashrini tayyorlashdi.

Namangan viloyatidagi Is’hoqxon To‘ra Ibrat memorial majmuasi tashkil etilgan. Ushbu majmua bog‘-xiyobon, uning o‘rtasida Is’hoqxon to‘ra Ibratning haykali, milliy me’morchilik uslubidagi ayvon, bosmaxona, ilg‘or texnologiyalar asosida qurilgan musiqali favvora, chet tillarga ixtisoslashtirilgan 400 o‘rinli maktab-internat va tarixiy me’morchilik obidasida barpo etilgan muzeyni o‘z ichiga oladi. «O‘zbekkino» Milliy agentligi buyurtmasiga binoan «Kinomaniya» studiyasi tomonidan «Ibrat» badiiy filmi suratga olindi. Unda shoir, tarjimon, tarixchi va tilshunos olim, jadidchi Is’hoqxon Ibratning mashaqqatga boy hayot yo‘li tasvirlangan.

MUHOKAMA

Ma’lumki, XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat tarix sahnasiga ma’rifatparvar shaxslar - jadidlarni olib chiqdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy kabi qomusiy bilim egalari ana shular jumlasidandir. Ular o‘z bilimlarini millat ravnaqi, jamiyat rivoji yo‘lida sarflashga intildi, o‘rni kelganda mablag‘ini ham ayamadi. Ular orasida Farg‘ona jadidchilik harakati vakili Is’hoqxon Junaydullaxon o‘g‘li Ibratning alohida o‘rni bor.

Is’hoqxon Ibrat – ma’rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o‘zbek matbaatchilaridan bo‘lib, 1862-yilda Namangan yaqinidagi To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlabki ma’lumotni eski maktabda, so‘ngra onasining qo‘lida oladi. Keyinroq Qo‘qonga borib madrasaga o‘qishga kiradi. Is’hoqxon Ibrat 1886-yilda madrasani tugatib, To‘raqo‘rg‘onga qaytib keladi. U o‘z faoliyatini pedagog sifatida qishloqda ma’rifat tarqatish bilan boshladi. O‘sha yili eski mahalliy maktablardan ancha farq qiluvchi yangicha maktab ochadi. Is’hoqxon Ibrat 1887-1906-yillarda Sharq va Yevropa mamlakatlariga sayohat qilgan, xususan Yevropaning Istanbul, Sofiya, Afina, Rim kabi markaziy shaharlarida, Sarqning Qobul, Bog‘dod, Jidda, Mumbay va Kalkutta kabi shaharlari hamda Xitoy, Hindiston, Arabistonda yashaydi. Is’hoqxon u yerlarda ko‘p ishlatiladigan arab, fors, hind va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi.

Ibrat barakali ijod bilan shug‘ullanadi, uning tomonidan yozilgan asarlar yigirmadan ortiq bo‘lib, bizgacha o‘n ikki nafar asari yetib kelgan. Jumladan, 1900-yilda uning “Ilmi Ibrat” she’riy kitobi, 1901-yilda “Lug‘ati Sitta al-sina” nomli olti tillik lug‘ati, 1908-yilda “Fiqhi Kaydoniy” nomli tarjima kitobi arabcha matnda nashr ettiriladi. Shu bilan birga Is’hoqxon to‘ra Ibrat To‘raqo‘rg‘onda «Matbaai Is’hoqiya» nomida Farg‘ona vodiysida birinchi nashriyot tashkil qiladi. Unda ilm-fan, ma’rifat va taraqqiyotga oid kitoblar hamda uning o‘zi tomonidan yozilgan kitoblari chop etiladi. Xususan, 1908-yilda uning husnixat va savod chiqarishga oid «San’ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy» risolasi, «Fiqhi-Kaydoniy» tarjima asari arabcha matni bilan, 1909-yilda «Ilmi Ibrat» she’riy to‘plami, 1912 yilda turli yozuv belgilaridan iborat, murakkab matnli - «Jome ul-xutut» („Yoshlar majmuasi“) asari nashr etiladi. Umuman olganda, 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asar yozdi hamda 30 yillik poetik ijodining majmuyi bo‘lmish „Devoni Ibrat“ she’rlar to‘plamini tuzdi.

Tarixshunoslikka oid „Tarixi Farg‘ona“, „Tarixi madaniyat“ va „Mezon uz-zamon“ ilmiy asarlarini yaratdi. Bu davrlarda yana chop etilmay qolib ketgan qo‘lyozma holidagi “Mufradot” nomli (xattotlik san’atiga bag‘ishlangan) kitobi, “Majmuai ash’or” nomli she’riy to‘plami yaratiladi.

Is’hoqxon Ibratning „Lug‘ati sitta-alsina“ asari jadid maktablarida sharq va rus tillarini o‘rganishda birdan bir qo‘llanma sifatida foydalanib kelindi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Is’hoqxon Ibrat tilshunoslik fanining murakkab sohasida ancha mukammal “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar to‘plami”) nomli ilmiy asar yaratdi. Bu asarida muallif yozuvlarning eng ibtidoiysi - piktografik yozuvlardan to so‘nggi davr eng mukammal yozuvlarigacha bosib o‘tgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qiladi. Is’hoqxon bu asarning yaratilish tarixi, ko‘zda tutgan maqsadi, asarning nomlanishi haqida quyidagilarni yozadi: “Bul xatlarni(ng) boqiy va tariq qarori muddao bo‘lib, ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdinda va ham olama bir asar qoldirmoq niyat etub, bu misra mujibi”. Darhaqiqat, Is’hoqxon Ibratning tilshunoslik sohasida chuqur ilmga ega ekanligi mazkur asarida ham namoyon bo‘ldi. Chunki, asarda piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari: finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg‘ur va boshqa 40 dan ortiq yozuvlar, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, Ibrat faqat o‘z vatanidagi yozuvlar namunalarini o‘rganish bilan chegaralanmay, arab mamlakatlaridagi qadimiy yozuv madaniyatini ham o‘rgandi. U eramizdan ilgari finikiya xalqlari tomonidan vujudga keltirilgan yozuv yodgorliklarini, Kipr orolidagi g‘orlardan topilgan yozuv qoldiqlarini o‘z asariga jalb etdi.

Shuningdek, Ibrat shoir sifatida ham devon tartib bergan. Ming taassufki, uning “Devoni Ibrati” bizgacha yetib kelmagan. O‘z davrida el orasida yuksak e’tibor topib, qozilik martabasiga erishgan, uning milliy kutubxona, kitobxonlik ishlarining ilk tashkilotchisi va targ‘ibotchisi sifatidagi xizmatlari ham beqiyosdir. U asos solgan “Kutubxonai Is’hoqiya” fondi bu jihatdan ancha boy bo‘lib, kitob berish va olish ma’lum tartib-qoida asosida yo‘lga qo‘yilgan edi.

Darhaqiqat, oktyabr to‘ntarishidan keyin Ibrat maorif ishlari bilan shug‘ullanadi. U yangi maktablar ochish, savodsizlikni tugatish kompaniyalarida faollik ko‘rsatadi. 1918-yilda Ibrat tomonidan ochilgan maktab zaminida To‘raqo‘rg‘ondagi 44 chi maktab tashkil topib, bu maktab 1960 yillarda «Is’hoqxon Ibrat» nomli 3- son maktabga aylantiriladi. Dastlabki vaqtlarda bu maktabda Is’hoqxon Ibrat ona tili, adabiyot, tarix fanlaridan dars berib, keyinroq maktab dasturiga musiqaashula predmetini kiritadi. 1919-yilda uning tashabbusi bilan Namanganda o‘zbek xotin-qizlari uchun birinchi marta qizlar maktabi ochiladi va unda Xusayn Makayevning rafiqasi Fotima Makayeva o‘zbek ayollariga dars beradi. U. Dolimov keltirgan faktlarga ko‘ra 1920-yildan e’tiboran Namanganning Shahand qishlog‘ida Muhammadsharif So‘fizoda, Arg‘in qishlog‘ida Orifjon Umarov, To‘raqo‘rg‘onda Is’hoqhon Ibrat va Mirzahamdam Xonkeldiyevlar boshchiligida savodsizlikni tugatish maktablari ochiladi. Albatta, ezgu va xayrli ishlari tufayli xalq hurmatini qozonib, qozilik darajasiga ko‘tarilgan Ibratning ilm-fan, madaniyat, maktab-maorif sohasidagi jonbozligi ayrim g‘alamis mutaassiblarning g‘ayrli munosabatlari tufayli ko‘p to‘siqlarga uchradi.

Ibrat tomonidan yozilgan tarixiy, ilmiy, ijtimoiy asarlar bir-birini uzviy davom ettirib, Qo‘qon xonligidan to 1930-yillarga qadar bo‘lgan voqeliklarni o‘z ichiga oladi. «Tarixi hurriyat», «Qo‘rboshilar zamoni» nomli asarlarida muallif oktyabr to‘ntarishi, Qo‘qon muxtoriyatining o‘rnatilishi, bu davrda vodiyda ro‘y bergan voqeliklar, Turkiston muxtoriyatining qonga botirilishi, bosmachilik harakatining kelib chiqishi, mohiyati, sabablariga to‘xtalib o‘z davri nuqtai nazaridan baho beradi. Keyinchalik Ibratning shogirdi mulla Iskandar Abduvahob o‘g‘lining bergan xabariga ko‘ra, uning 100 ga yaqin kitoblari 1937- yil qatag‘on qilinishidan bir oz avval qo‘shsinch orasiga yashirilgan. Qolganlari esa 1937 -yil, 7- yanvarda 4 ta qanor qopga joylanib olib ketiladi .

Is’hoqxon Ibrat o‘z davrining yirik muarrixi sifatida «Tarixi Farg‘ona», «Tarixi madaniyat», «Mezon uz-zamon» ilmiy asarlarini yaratdi. Ibrat ushbu asarlarini yaratishda Sharq tarixchilari bilan bir qatorda rus va Yevropa sharqshunoslarining asarlaridan ham foydalandi. Is’hoqxon Ibrat «Tarixi Farg‘ona» asarida tarixiy

voqealarga xon va beklarning munosabatini tasvirlashga alohida e’tibor beradi. Muallif Buxoro amiri Nasrulloning 1842 -yilda Qo‘qonda mash’um qatlini uyushtirishiga qarshi chiqib, Qo‘qon xonligi bilan birlashish va yaqinlashib kelayotgan rus bosqinining oldini olish harakatlarini qilish taklifi bilan chiqqan amir Nasrullo vazirlaridan biri Abdusamad noyibning oqilona so‘zlarini keltiradi: «Holo Xo‘qand zabt o‘ldi, Farg‘ona katta mamlakatdur, qancha askar va sipohu xazina sarf o‘lub olindi, alholda Rusiyani kelmagi mahalliy xavfdur, agarda xonni onti aqd berub, tavba qiddurub, Xo‘qandg‘a qo‘yub, Buxorog‘a tobe’ qilib, bir mulk bizlarga kelgan dushmanlarga bir qalqon bo‘lur edi», deganida, so‘zi amirga ma’qul bo‘lmay, og‘ziga kafsh bilan urdurg‘on ekan». Olim Is’hoqxon Ibrat ushbu so‘zlarni keltirish orqali xonliklar, amirliklar ma’muriyatida uzoqni ko‘ra oluvchi davlat arboblari mavjudligini ta’kidlash bilan birga, Nasrullo kabi kaltabin, burnidan narini ko‘ra olmaydigan xonu beklarni qattiq qoralaydi.

Is’hoqxon Ibrat o‘z xalqining porloq kelajagiga, ozod va hur hayot qurajagiga zo‘r umid va ishonch bilan qaradi. «Tarixi madaniyat» asarida Vatanning kelajakda ilm-fan, madaniyat rivojlangan shaharlarining qiyofasini romantik bo‘yoqlarda tasvirlaydi. Uning ilmiy-tarixiy asarlari Vatanimiz tarixini o‘rganishda, shubhasiz, zarur, mo‘tabar manba hisoblanadi. Is’hoqxon to‘ra Ibrat ijtimoiy-siyosiy mavzuda xalq hayotini haqqoniy ifodalovchi bir qancha asarlar yaratdi. Shoirning «Qalaysizlar?», «Bo‘lubtur», «O‘lursan», «Shikoyat», «Siymu zardur» kabi satirik asarlari shular jumlasidandir. Markaziy Osiyoning bosib olinishi natijasida o‘lka Rusiya to‘qimachilik sanoatini paxta bilan ta’minlaydigan asosiy xom-ashyo bazasiga aylandi. Shoir Ibratning «Qarz» radifli musaddasiga chuqurroq e’tibor berilsa, shoirning she’rdagi zaharxandasi ostida achchiq haqiqat yotganini payqash qiyin emas. Bechora chorakor dehqon o‘z oilasini boqish uchun o‘zini o‘qqa-cho‘qqa urishga majbur: u yil boshida bo‘lajak paxta hosili ustidan qarz oladi. Hosil kutilganidan kam bo‘lgani tufayli qarzga botadi, uy-joyi «xatga tushadi», bir parcha yeridan ham ajraladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Is’hoqxon Ibrat ijodidagi yetakchi g‘oya ilm-ma’rifat, madaniyat va texnika yangiliklarini targ‘ib qilish g‘oyasidir. Ibrat ma’rifatparvarligining tub mohiyati shundaki, uning ilm-ma’rifatga chaqiruvchi she’rlarida inson taqdiri birinchi o‘rinda turdi. U xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi, uning mushkulini yengillashtiruvchi, uzog‘ini yaqin qiluvchi ilm-fanni, texnikani targ‘ib etdi. Shu nuqtai nazardan, uning «Tarixi chopxona», «Madaniyat haqida masnaviy», «Gazeta xususida», «Turkiston axdig‘a xitob», «Tabrik Namangondin», «Qalam», «Tarixi manzumai vagon Ibratdin yodgor»,

«Muxammasi Ibrat» kabi she’rlari diqqatga sazovor. Shoir bu she’rlarida mamlakatni, xalqni asriy qoloqlikka sudrovchi mutaassiblarni, qadimchilarni keskin fosh etdi. Ibrat mehnatkash xalq boshidagi og‘ir hayot, qashshoqlik, mamlakatning qoloqlikda, xalqning nodonlikda qolganining sabablarini aniqlashga, undan qutqarish yo‘llarini topishga harakat qildi. Bir necha taraqqiy etgan mamlakatlarda bo‘lgan Ibrat xalqni zulmatdan, mamlakatni qoloqlikdan qutqaruvchi birdan-bir yo‘l ilm-ma’rifatni egallash deb tushundi.

Darhaqiqat, Is’hoqxon to‘ra Ibrat ma’rifatparvarligining tub mohiyati shundaki, u har bir voqea-hodisaga o‘z xalqi, Vatani manfaatlari nuqtai nazaridan turib munosabatda bo‘ldi, baholadi. Kelajak avlodning taraqqiy etgan millatlar qatorida erkin, mustakil, farovon hayot kechirishini orzu qildi va unga katta umid bog‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jadidchilik harakatining eng oldingi saflarida bo‘lgan ulug‘ adib Is’hoqxon Ibrat nafaqat tarixchi, shoir, tilshunos, noshir va o‘qituvchi balki o‘z davrining yetuk diniy ilmlar ulomosi, qozisi va eng birinchi galda vatan ravnaqi uchun fidoiylik bilan kurashib, butun umr intilgan tarixiy shaxsdir. Shoir XIX asr oxirida mamlakatda boshlangan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni to‘g‘ri anglagan, odamlarni yuksak ideal sari intilishi, milliy uyg‘onishi, o‘zligini tanishi, buning uchun fan-texnika sohasi yangiliklari, ilm, ta’lim-tarbiyani samarali tashkil etish, turmushni sog‘lom aqida va teran tafakkur asosida qurish lozimligini targ‘ib qilgan. Shu bois uning boy madaniy merosi, nafaqat mamlakatimizda, hatto chet ellarda ham puxta tadqiq etilmoqda. Shu sababli uning ma’naviy va axloqiy qarashlari hozirgi yoshlar uchun juda muhim ta’lim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, Is’hoqxon Ibrat Vatan va millat ravnaqi uchun o‘z hayoti, ijodi va faoliyati misolida “mingdin bir” odamga nasib qiladigan “nishona” qoldirdi, nomiga mos chinakam ibrat namunasi bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. 2017. 4 avgust.
2. Vohidova K. A. Ishokxon Ibrat hayoti va ilmiy merosi hakida // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2018. 1-son, -B. 206-211.
3. Dolimov U. Is’hoqxon Ibrat. Tanlangan asarlari. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2005. – 200 b.

4. Dolimov U. Isoqxon ibrat. - T. : Sharq, 1994.
5. Ziyoyev H. Istiqlol - ma’naviyat negizi. – T. : Ma’naviyat, 1999. 190 b.
6. Is’hoqxon Ibrat nomli jamoa xo‘jaligi madaniyat ishlari bo‘yicha rais muovini B. Nizomov bilan K. Vohidova tomonidan o‘tkazilgan suhbat materiallari. 1994.
7. Ishoqov R. Nizomova J. lar bilan o‘tkazilgan suhbat matni. 1994. Mart-aprelь; B. Nizomov bilan o‘tkazilgan suhbat matni. 1994. Mart; R. Nazarov bilan o‘tkazilgan suhbat. 1994. Mart. Suhbatlarni K. A. Vohidova uyushtirgan.
8. Gaffarov Ya. O. Usmonga yozilgan xatlardan. Ushbu xat nusxasi qo‘limizda saqlanadi (arab yozuvida). –Namangan, 1961.
9. Yulchiyev K. Ishokjon Tura Ibrat. Ukuv-metodik kursatma. – Fargona, 2018. – 56 b.
10. Sariboyeva M. Ibratning ibratli yuli // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2019. 8-son, -B. 322-329.

PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY O‘Z O‘ZINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Matluba Adasheva Fazliddin qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: matlubaadasheva95@gmail. com

Annotatsiya: ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarining maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy jihatdan o‘z o‘zini rivojlantirish malakalarining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Bu esa o‘z navbatida ushbu soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan ta’lim tizimiga ilm-fandagi yangiliklarni joriy etish asosida maqsadli innovatsiyalarni ishlab chiqish, yuqori salohiyatli kadrlar tayyorlash samarasini oshirish, talaba yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida qaralgan.

Kalit so‘zlar:bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy o‘z o‘zini rivojlantirish, pedagogik faoliyat, pedagogik amaliyot, kasbiy ko‘nikma va malaka, tarbiyalanuvchi, tarbiyachilik faoliyati, kasbiy faoliyat, bo‘lajak tarbiyachi, oliy ta’lim.

Аннотация: в данной статье рассматриваются об особенностях профессионального саморазвития умений студентов, обучающихся в дошкольных образовательных учреждениях высших учебных заведений, в процессе педагогической практики. Это в свою очередь, имеет большое значение в развитии данной области. Развитие целевых инноваций, основанных на внедрении инноваций науки в систему образования, повышении эффективности подготовки высокопотенциальных кадров, всесторонней поддержке студентов и молодежи, рассматривается как актуальная проблема современности.

Ключевые слова: будущий педагог, профессиональное саморазвитие, педагогическая деятельность, педагогическая практика, профессиональные навыки и квалификация, студент, учебная деятельность, профессиональная деятельность, будущий педагог, высшее образование.

Annotation: this article discusses the specific characteristics of professional self-development skills of students studying in preschool education of higher educational institutions in the process of pedagogical practice. This, in turn, is of great importance in the development of this field. Development of targeted

innovations based on the introduction of scientific innovations into the education system, increasing the effectiveness of training high-potential personnel, comprehensive support of students and young people are considered as urgent problems of today.

Key words: future educator, professional self-development, pedagogical activity, pedagogical practice, professional skills and qualifications, student, educational activity, professional activity, future educator, higher education.

KIRISH

Mamlakatimizda oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini qabul qilindi[1].

Konsepsiyada oliy ta’lim tizimi oldiga ishlab chiqarish korxonalarida dars mashg‘ulotlari va talabalar amaliyotini samarali tashkil etish tartibini takomillashtirish, bunda amaliy ko‘nikmalarni tasdiqlovchi sertifikatlar berish tizimini joriy etish masalasining qo‘yilganligi bugungi global jamiyatning zamonaviy talablari nuqtai nazaridan bo‘lajak tarbiyachilarning faoliyati nafaqat yuksak darajadagi malakalar bilan, balki axloq-odob normalari, tarbiyalanuvchilar bilan munosabatda bo‘lishga tayyorligi, ta’limning sifati va samaradorligini oshirish uchun bo‘lajak tarbiyachilarning amaliyot jarayonida kasbiy o‘z o‘zini rivojlantirishning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 35-moddasida “O‘quv rejasida, qoida tariqasida, ta’lim jarayonining jadvali, o‘qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o‘quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta’tillar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o‘rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi. [2]

Mazkur qonunning professional va oliy ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir o‘quv rejalarda ta’lim oluvchilar uchun amaliyot o‘tash nazarda tutiladi.

Ta’lim oluvchilarning amaliyotni o‘tash tartibi va uni tashkil etish ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi”. deyilgan.

Ta’lim oluvchilar kasbiy ko‘nikma va malakalarni mukammal egallab borishlari uchun o‘quv rejalarini bajarishlari va ma’lum bir fanlarning o‘quv dasturlarida keltirib o‘tilgan o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tegishli tashkilotlarda amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga[3] muvofiq 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2 — 4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari “4+2” tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilishini ta’minlash to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy o‘z o‘zini rivojlantirish orqali kasb tayyorgarligiga erishishda pedagogik amaliyotning ahamiyati katta hisoblanib, amaliyot jarayonida bo‘lajak kadrlar maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogik jamoasi bilan muloqot qilishni, kasbiy malakalarini oshirishni, tarbiyalanuvchilar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning har bir sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlarning o‘ziga xos kasbiy bilimlar, qonun-qoidalarni anglashi va ularga rioya qilgan holda faoliyat olib borishni ta’minlashda bo‘lajak kadrlarni kasbiy o‘z o‘zini rivojlantirishga tayyorlashga alohida ahamiyat berilishi kerakligini belgilaydi.

Pedagogik amaliyot bo‘lajak tarbiyachilar tayyorlash tizimida muhim o‘rin egallaydi. U talabalarning oliy ta’lim muassasalarida egallagan nazariy bilimlarini ularning kelajakda maktabgacha ta’lim tashkilotida amalga oshiradigan mustaqil faoliyati bilan birlashtiruvchi bo‘g‘indir. Shu munosabat bilan bu jarayonning samarali o‘tishida talabalarda turli muammolar yuzaga keladi. Oliy ta’lim muassasasi talabalarining pedagogik amaliyot jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishi va shu orqali kasbiy o‘z o‘zini rivojlantirishga erishish qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Bunda ularning oliy ta’limda o‘qish mobaynida egallagan tayyorgarligi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turli davr olimlari, tadqiqotchilari tomonidan bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy o‘z o‘zini rivojlantirishda turlicha qarashlar, yondashuvlar muhokama qilingan.

Uzluksiz ta’lim tizimi hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini yurtning kelajagi sifatida tarbiyalash borasida pedagog olimlar O. Hasanboyeva, N. Muslimov, P. Po‘latova, M. Yo‘ldasheva, X. Abdukarimov, M.

Mahkamova, B. Rahimovalar tomonidan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan, ilmiy asarlar yaratilgan. Ushbu asarlarga tayanib, bo‘lajak tarbiyachilarni pedagogik amaliyot davrida kasbiy rivojlanishi muhim ahamiyatga ega ekanligini payqash mumkin.

M. Mahkamova pedagogik amaliyot mazmuniga alohida e’tibor berib, “Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar xalqimizning milliy-ma’naviy merosidan, ulug‘ siymolarning muomala odobini shakllantirishga doir ta’limotlaridan va ilg‘or zamonaviy tajribalardan foydalanishlari muhimdir”[4]. Bu berilgan ta’rifda pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilar nafaqat kasbiy jihatdan, balki ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ham o‘z o‘zini rivojlantirib borishliklari yuksak ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

E. F. Zeer shaxsni rivojlantiruvchi kasbiy rivojlanishning kontseptual qoidalarini shakllantirdi[5]. Ular orasida o‘z-o‘zini rivojlantirish jihatidan eng muhimlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1) talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi asosiy maqsad sifatida qaraladi;

2) talabaning o‘zi ham ta’limotni o‘zi yaratadi;

3) ta’lim standartining mazmuni maqsadni emas, balki ta’lim vositasini tavsiflaydi;

4) o‘qituvchilar va talabalarning hamkorligi kasbiy o‘quv jarayonini to‘liq tashkil etishning kalitidir.

Pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilib ko‘rilganda, bo‘lajak pedagog tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari yuzasidan pedagogik amaliyot modeli berilgan bo‘lib, unda pedagogik amaliyot bosqichlari asoslangan va pedagogik amaliyotni tashkil etish mezonlari berilgan. [6] Bunga ko‘ra malakaviy amaliyotni tashkil qilish mezonlari quyidagicha:

–malakaviy amaliyotni tarbiyalovchi xarakteri;

–malakaviy amaliyotni rivojlantiruvchi xarakteri;

– malakaviy amaliyotni mustahkamlash va rivojlantirish.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o‘zlarining metodika, pedagogika, psixologiya, yosh psixologiya va fiziologiya kabi fundamental fanlardan olgan bilimlariga tayanib, tarbiyalanuvchilar bilan ularning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim va tarbiya ishlarini olib borishni o‘rganishlari kerak. Bu yo‘sinda talabalar amaliyotlarni tarbiyalanuvchilarning turli faoliyatlarini faollashtiruvchi xilma xil uslublarni metod va metodik uslublarni qo‘llash bilan o‘tkaziladigan turli tipdagi ta’limiy faoliyatlarga tayyorgarlik ko‘rish

bo‘yicha zarur malakalarni egallashlari hamda o‘z ustilarida ishlashlari muhim talablardandir.

Talaba amaliyotchilarning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’lum yosh guruhi tarbiyachisining ishlarini bajarishga, shuningdek pedagogik jamoa va bolalar hamda yoshlar tashkilotlari bilan ishlashga, undan tashqari tarbiyalanuvchilar bilan yakka va ommaviy tarzda tarbiyaviy ishlar olib borishga o‘rganishlari ham muhim vazifa sifatida e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Bu vazifani bajarish bo‘lajak tarbiyachilardan yuqori **g‘**oyaviy va kasbiy tayyorgarlikni hamda yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashning nazariy metodikasini bilishni va tegishli tarbiyaviy va o‘quv ko‘nikma hamda malakalarga ega bo‘lishni talab qiladi. Bunga esa doimiy ravishda o‘z o‘zini rivojlantirib borish orqali erishish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’lumki, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy jihatdan o‘z o‘zini rivojlantirishda pedagogik amaliyotni turli yondashuvlarga tayanib, bir butunlikda tashkil etilsa samarali natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Ya’ni kasbga yo‘naltirish, shu kasbga nisbatan layoqati borlarni tanlash va kasbga tayyorlash borasida tashkil etiladigan pedagogik amaliyot borasidagi barcha ishlarni uzviy bog‘liq holda amalga oshirilsa va shu chora-tadbirlarning har biri pog‘onama pog‘ona talaba yoshlarni ta’lim-tarbiya jarayonini mohirona, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirilishiga erishilsagina, u bir butun sistema sifatida natijaga erishadi.

Zamon talablariga har jihatdan javob beradigan tarbiyachini tayyorlash uchun nafaqat umumiy madaniy va kasbiy malakalarni shakllantirish, balki oliy ta’limda o‘qish paytida, shuningdek pedagogik amaliyot davrida ham kasbiy pedagogik malakalarini o‘z o‘zini rivojlantirish orqali takomillashtirish uchun sharoit yaratish ustida ishlash kerak.

Ular quyidagi shartlar bajarilganda amalga oshishi mumkin:

- Ta’lim jarayonini faqat bo‘lajak tarbiyachilarning o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarining uyg‘un munosabatlari doirasida qurish;
- bo‘lajak tarbiyachilarda qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirishga, shuningdek yaratilgan qadriyat pozitsiyalariga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga katta e’tibor bering;
- o‘quv jarayonidagi ma’muriy uslubdan voz kechish, bo‘lajak tarbiyachilarga ijodiy salohiyatini, shaxsiy tashabbusini ro‘yobga chiqarish uchun maksimal erkinlik berilishi;

•bo‘lajak tarbiyachilarda ularning rivojlanishiga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish, bu kasbiy rivojlanishning eng muhim omili – muvaffaqiyat hisoblanadi.

XULOSA

Bugungi kunda ma’naviy yetuk va yuksak salohiyatli tarbiyachilarni tayyorlash davlat siyosati darajasidagi muammo ekanligi, bunda bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etishi, bu jarayonni amalga oshirishda pedagogik amaliyotga jiddiy e’tibor berish zarurligi ma’lum bo‘ldi.

Bu esa bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy malakalarini oshirishlarida pedagogik amaliyotning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatadi. Har bir pedogog qanday qobilyatlarga ega bo‘lishi va gnostik malakalar, konstruktiv malakalar, kommunikativlik, tashkilotchilik malakalarni egallashda pedagogik amaliyot jarayonida muhim ahamiyatga ega. Albatta shuni ham aytish zarurki, talabalarning o‘quv davri mobaynida egallagan kasbiy ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llash uchun hamda shaxsiy va kasbiy o‘z o‘zini rivojlantirish uchun ham eng qulay fursat aynan shu pedagogik amaliyot jarayoni hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08. 10. 2019 yil. PF-5847-son

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637. 2020-yil 23-sentabr.

3. Mirziyoyev Sh. M. 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 289-sonli Qarori.

4. Mahkamova M. Qadriyat va tarbiya. Ilmiy to‘plam. T. 1992. 15 bet.

5. Зеер Э. Ф. Личностно-развивающие технологии начального профессионального образования. М. :Академия, 2010. 176 с.

6. Qodirova Z. S. Zamonaviy yondashuvlar asosida b**o‘**lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_7-son. 830-833.

IBRATNING TARIXIY VA BADIIY-PUBLISISTIK ASARLARIDA ESTETIK QARASHLAR TALQINI

Dilsora Raximova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Is’hoqxon Ibratning hayot yo‘li, ijodiy faoliyati, tarixiy va badiiy-publisistik asarlarida estetik qarashlar talqinining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, asarda o‘tmish ajdodlarimizning yashash tarzi, madaniyat va turmushi haqida kelajak avlodga yetkazish, ularni shundan xulosa chiqarishga undash bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Is’hoqxon Ibrat, Is’hoqxon Ibrat asarlari, tarixiy, badiiy-publisistik, estetik qarashlar.

Annotation: In this article, Is’haqkhan Ibrat’s life path, creative activity, historical and artistic-journalistic works, the specific features of the interpretation of aesthetic views are highlighted. Also, in the work, the way of life, culture and lifestyle of our ancestors in the past is conveyed to the future generation, and from that Conclusions and suggestions for prompting conclusions are given.

Keywords: Is’haqkhan Ibrat, Is’haq Khan Ibrat’s works, historical, artistic-publicistic, aesthetic views.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida hozirgi O‘zbekiston hududidan shunday ulug‘ siymolar yetishib chiqdiki, ularning hayoti, ijtimoiy, ma’rifatparvarlik va adabiy faoliyatini o‘rganganimiz sayin bu davrning tom ma’noda milliy uyg‘onish davri bo‘lganiga ishonch hosil qilamiz.

Turkistondagi milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik harakatiga salmoqli hissa qo‘shgan kishilardan biri Is’hoqxon Ibratdir. X - XV asrlarda o‘tgan o‘zbek xalqining ulug‘ olimlari va shoirlari bilan haqli ravishda faxrlanib, ularning aksarini qomusiy ilm sohiblari sifatida alqab kelganimiz kabi, ulardan bir necha asr keyin murakkab tarixiy sharoitda qo‘l-oyoqlari bog‘lanib yashagan yurtdoshlarimiz orasida ham shunday serqirra ilmiy va badiiy tafakkur sohiblari oz bo‘lmaganligi ham tarixdan ayon. Ular olg‘a surgan ma’rifatparvarlik, erk va hurriyat goyalari har qanday to‘sig‘u qarshiliklarni yengib xalq ichiga kirib bordi va uni 1916-yilda milliy ozodlik uchun kurash marralariga olib chiqdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Agar birgina Is’hoqxon Ibratning ilmiy va adabiy merosiga nazar tashlasak, uning shoir, o‘qituvchi, tarixchi, tilshunos, noshir bo‘lganligini ko‘rib hayratga tushamiz. Uning Orenburgda matbaa anjomlarini sotib olib, ularni Qo‘qongacha poezdda, Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘ongacha tuyalarga ortib kelib, 1908-yilda “Matbaai Is’hoqiya” litografiyasini ishga tushirgani va o‘zbek matbaachiligining asoschilaridan bo‘lgani ham hayratomuz voqeadir. Is’hoqxon Ibrat hijriy 1279, milodiy 1861 – 1862yillarda Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida ziyoli oilada dunyoga kelgan.

Bobosi Qo‘qon xonligida katta e’tiborga loyiq ziyolilar sulolasiga mansub bo‘lib, To‘raqo‘rg‘onda uzoq yillar qozilik qilgan va “Afsus” taxallusi bilan she’rlar yozgan To‘raxon maxdum, otasi Junaydulla to‘ra Sunnatulla to‘ra o‘g‘li esa “Xodim” taxallusi bilan she’rlar yozgan, onasi Huribibi ham qishloq qizlarining xat-savodini chiqargan otinoyi va iste’dodli shoira edi. Qo‘qonlik Po‘latjon domlaning “Tazkirai Qayyumiy” asarida asosan vodiylik shoirlar haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ular orasida Afsus va Xodim taxalluslari bilan ijod qilgan shoirlar ham tilga olingan. Mazkur tazkirada Afsus taxallusli shoir haqida quyidagi ma’lumot berilgan: “Bu shoir Jizzax shahridan bo‘lub, Xo‘qandga XIX asrning birinchi yarmida kelmishdur. Nomi To‘raxon maxdum bo‘lub, hurmatga sazovor aristokratlardandur. Xonning a’yonlaridandur. Nimagadurki shunchalik hurmatga ega bo‘lub, xon atrofini o‘ragani holda To‘raqo‘rg‘onga qozi bo‘lub turgani ila she’rda taxallus etib Afsus ixtiyor etmishdur. To‘raqo‘rg‘onda Is’hoqxon qozi va taxallusi Ibrat ham shoir Vasfiy To‘raqo‘rg‘oniy - bular Afsusga nabiralardurlar. Avlodlari hozirda ham shundadurlar. Amiriyning g‘azaliga naziralar yozgandur. . . ” Po‘latjon domla biz uchun goyat qimmatli bu ma’lumotdan so‘ng Afsusning “Ustina” va “O‘lsun” radifli she’rlarini keltirgan. Po‘latjon domla shu tazkirada Xodimiy taxallusi bilan she’rlar yozgan shoir haqida bahs yuritib, “xorazmli bo‘lib chiqayotir”, “yosh havaskorlarga o‘xshaydir” degan so‘zlarni aytgan. So‘ngra shu shoir xususida bunday yozgan: “1910 yillarda hayot ekani anglashiladur. She’ri anchagina mavhum. (O‘zi) haqinda boshqa hech (qanday) ma’lumotga ega emasmiz. Chustli Mulla Obidjonning “Tuhfat ul-obidiyn” nomli bayozidan olib ko‘churdik. “Gapurmanglar” radifli muxammas Xodimiyning nashidai tab’idandur”. Tazkirachi shu so‘zlardan keyin olti bandli muxammasning uch bandini o‘quvchi e’tiboriga havola qilgan. Birinchi bandi bunday:

Bo‘lubman ul parivaishing asiri chaishi fattoni,
Ohar ishvhi jamoli birla doim diydaning honi,
Mani dardimga yo‘h darmoni o‘zga darmoni,

Adabhola tushubman, yo‘qtur emdi sihhat imkoni, Marizi ishqman, fikri atibbodin gapurmanglar.

1 Fatton - maftun etuvchi, jozibali. 2 Mariz - kasal, xasta. 3 Atibbo - tabiblar.

Tazkirada nomi yuqorida tilga olingan Vasfiy To‘raqo‘rg‘oniy to‘g‘risida aniq tasavvur berilgan: «Bu kishi To‘raqo‘rg‘onda 1862-yilda ulamo oilasida dunyoga kelmish. Nomi Mulla Jalolxondur. Bu kishi ham shoir Afsusning nabiralaridan bo‘lub, Is’hoqxon to‘raga amakibachcha bo‘ladur. Qozixonalarda mufti va a’lam bo‘lub, xizmati ilmiyada bo‘lmishdur. 1930-yilda 68 yoshinda shul To‘raqo‘rg‘onda vafot etmishdur. Ibratning bu kishiga bir marsiya yozgani so‘zlanadur. Bu kishidan o‘g‘il farzand qolmamishdur». Tazkirachining yozishicha, to‘raqo‘rg‘onlik Vasfiy ayrim adabiy doiralarda buxorolik Vasfiy bilan adashtirib yurilgan. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, Is’hoqxon to‘ra ulamo oilasida tug‘ilgan. Bobosi keng bilimli, shoir tabiatli, odamshavanda inson bo‘lganligi tufayli el-yurt o‘rtasida katta hurmat qozongan. Uning, asli, jizzaxlik bo‘lganligi haqidagi ma’lumot hozircha tasdiqlangan emas. Lekin u tuzgan shajaraga qaraganda, bobokalonlari Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo‘lib, zamona zayli bilan To‘raqo‘rg‘onga kelib o‘rnashib qolgan. Balki, bobosining o‘ziga Afsus so‘zini taxallus qilib olgani sabablari uning To‘raqo‘rg‘onga kelguniga qadar boshidan kechirgan voqealar bilan bog‘liqdir.

Muhimi shundaki, Is’hoqxon to‘raning ota-bobolari o‘sha davrning eng ilg‘or, ma’rifatli, taraqqiyparvar kishilaridan bo‘lib, el-yurt manfaati yo‘lida xizmat qilishgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Is’hoqxon Ibrat shunday ilg‘or oilada tug‘ilgan. Dastlabki ma’lumotni onasidan olib, 1878 – 1886-yillarda Quqondagi Muhammadsiddiq Turnaqator madrasasida tahsil ko‘radi. Shu yerda Muqimiy, Furqat, Muhyi kabi qo‘qonlik mashhur shoirlar bilan tanishadi, arab va fors tillari bilan birga she’r ilmini ham qunt bilan o‘rganadi. U talabalik yillarida ilmning inson va jamiyat taqdiridagi ahamiyatini chuqur tushungani uchun 1886-yili madrasani bitirib, To‘raqo‘rg‘onga keladi va shu yerda yangi usul maktabini ochib bolalarni o‘quv-yozuvga o‘rgatadi. Ammo yangi usul maktablariga qarshi tish qayragan kuchlar 1887-yilda uning maktabini yopishga muvaffaq bo‘ladilar. Ibrat shu yili onasi bilan birga haj safariga chiqib, Turkiya, Eron, Misr, Arabiston mamlakatlarida bo‘ladi. Xasta onasi musulmonlik burchini ado etgach Jidda shahrida jonini Allohga topshiradi. Ibrat bu musibatdan qanchalik larzaga tushgan bo‘lmasin, onasini dafn qilib, safarni davom ettirishga majbur bo‘ladi. U Bolgariya (Sofiya), Gretsiya (Afina), Italiya (Rim) mamlakatlariga borib,

madaniy Yevropa xalqlari hayoti va madaniyati bilan tanishadi. So‘ngra Hindistonga borib, Bombay va Kalkutta shaharlarida yashaydi. U shu shaharlarda yoshlik yillarida zavq bilan o‘rgangani husnixat va naqqoshlik hunari orqasidan turmush kechiradi. Nihoyat, 1896-yili To‘raqo‘rg‘onga qaytib keladi.

Taniqli ibratshunos olim Ulug‘bek Dolimovning Ibrat asarlariga asoslanib yozishicha, u shu davrda Sharq xalqlari tillaridan tashqari Arabistonda fransuz tilini, Hindistonda ingliz tilini, shuningdek, qadimgi finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o‘rganadi. Ibrohim Davronning “Turkiston viloyatining gazeti”da chop etilgan (1908 yil, 56-son) maqolasidan ayon bo‘lishicha, Ibrat “turkcha, forscha, hindcha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha, armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohir” bo‘lgan. Ona tilidan tashqari boshqa bir necha xorijiy tillarni bilgan kishilarni, odatda, “poliglot” deb atashadi. Ibrat shunday noyob kishilardan biridir. U xorijiy safarlari davomida to‘plagan nodir lisoniy materiallari asosida «Lugati sitatti alsina» (Olti tilli lugat) tuzgan va “Jome’ ul-xutut” (Yozuvlar majmuasi) asarini yaratgan. Bu asarlardan biri arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sartcha (o‘zbekcha) lugatdir. “Turkiston viloyatining gazeti”da chop etilgan maqolalarda yozilishicha, shu yillarda rus mustamlakachiligi sharoitida yashagan mahalliy xalq vakillari rus tilini o‘rganishga katta e’tibor bera boshlashgan. Zero, rus tilini bilish o‘sha davrda zamon talabi edi. Shuning uchun ham Ibrat vatandoshlari rus tilini tezroq egallashlari uchun ruscha so‘zlarni mazkur lugatda arab harflari bilan yozgan. 2005 yili Ibrat “Tanlangan asarlar”ining “Ma’naviyat” nashriyotida chop etilishi nafaqat oddiy kitobxonlar, hatto filolog olimlarning ham atoqli shoir, muallim, tarixchi va lugatshunos olim haqidagi tasavvurini butunlay o‘zgartirib yubordi. Shu kitobdan Ibrat asaridan olib berilgan faksimile sahifalarda olim qo‘li bilan yozilgan sanskrit, qadimgi finikiy, yunon, qadimgi kufiy, qadimgi yahudiy, slavyan yozuvlaridan namunalar ham o‘rin olgan. Kitobni nashrga tayyorlagan Ulug‘bek Dolimov bilan Nurboy Jabborovning guvohlik berishicha, «Jome’ ul-xutut»da “dunyoda mashhur bo‘lgan 41 xil yozuv tizimi” haqida, shu jumladan, arab xatining suls, tavqe’, rayhon, zulf, humoyun, turra kabi shakllari haqida» ma’lumot berilgan. O‘zbekistonning chekka bir qishlog‘ida tug‘ilgan Ibratning jahon tillari va yozuvlari haqidagi bunday keng bilimga ega bo‘lgani tasavvur doirasiga sig‘adigan hodisalardan emas. Yana shu mualliflarning yozishicha, Ibrat mazkur asarida XX asrda tug‘ilib kelayotgan avlodlarning rus tili bilan bir qatorda ingliz, fransuz, nemis, lotin kabi chet tillarni o‘rganishlarini orzu qilganki, uning bu orzusi mustaqillik davrida O‘zbekistan kelajagining me’morlari bo‘lmish yoshlar tomonidan zavq-shavq bilan amalga oshirilmoqsa. Ibrat, xorijiy mamlakatlarga borgan aksar

vatandoshlarimizdan farqli o‘laroq, Hindistondan “Santur” degan musiqa asbobini, nafaqat vatandoshlari, balki ayrim ilg‘or xalqlarning ham tushiga kirmagan muzlatkichni va boshqa asbob-anjomlarni olib kelgan. “Santur” 12 ta lappakli bo‘lib, bu lappaklarga rus va jahon xalqlarining kuy hamda qo‘shiqlari yozilgan edi. - Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ibratning o‘z vataniga fan va texnika yangiliklarini olib kelishdan maqsadi ilm-fan yutuqlaridan orqada qolgan yurtdoshlarining bilimini, ijtimoiy-huquqiy ongini oshirish, ularni yangi madaniy bosqichga ko‘tarish edi. Bu katta maqsadga erishish uchun, avvalo, yangi usul maktablarini ochish, yoshlarda maktabga, ilm-fanga muhabbat uyg‘otish, ularni jahon xalqlari va mamlakatlari tarixi, shu jumladan, Farg‘ona tarixi bilan tanishtirish zarur edi. Ibrat shu vazifalarni maktab ochish, “Matbaai Is’hoqiya”, “Kutubxonai Is’hoqiya”larni tashkil etish, “Ilmi Ibrat” she’rlar kitobini, “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezon ul-zamon” risolalarini yozib, xalqqa yetkazish bilan bajardi. U yuqorida tilga olingan maktablardan tashqari 1914-yilda To‘raqo‘rg‘onda “Uchitel” degan rus maktabini ham ochdi, bu maktabda 30 nafar o‘quvchi ta’lim oldi. 1908-yilda tashkil etilgan “Matbaai Is’hoqiya” 1909-yili tipo-litografiyaga aylantirilib, 1910-yili Namangan shahriga ko‘chirildi va 50-yillarga qadar tinimsiz xizmat qildi. “Kutubxonai Is’hoqiya”da esa o‘zbek va rus tillaridagi darslik, o‘quv qo‘llanmalari, lug‘atlardan tashqari V. V. Radlov, H. Vamberi, V. V. Bartold, V. P. Nalivkin va boshqa olimlarning asarlari ham bo‘lgan. Ibrat To‘raqo‘rg‘on va Xonobod qishloqlarida 20 yildan ortiq vaqt davomida qozi vazifasini bajarib, aholi haq-huquqlarini himoya qildi, haqiqat uchun kurashdi. O‘zbek xalqining ulug‘ farzandlaridan biri Is’hoqxon to‘ra Junaydullaev 1937-yil fevralda NKVD xodimlari tomonidan qamoqqa olinadi. Undan oldin, 27yanvarda o‘g‘li Abbosxonto‘ra Is’hoqxonto‘raev sovetlar do‘zaxiga tashlangan edi. 7 aprelga qadar bo‘lgan muddatda ulardan tashqari Ubaydulla maxsum Otaboya’lamov, Jabborxon Sultonxonov, Umarali Jumaboev, Akbarali Niyozov, Dehqonboy So‘fido‘smatov va Mutavorxon Sultonxonov ham kishanband qilinadilar. Ular Ubaydulla maxsum boshchiligida Sovet davlatiga qarshi kurashgan aksilinqilobiy tashkilot a’zolari sifatida ayblanadi. Tergov materiallarida qayd qilinishicha, Ibrat arab, fors, turk, afgon, hind va rus tillarini yaxshi bilgan. U 1921 – 1928-yillarda Chust, Norin, Namangan tumanlarida qozi lavozimida xalqqa xizmat qilgan. 1926-yili o‘ziga qarashli ortiqcha yerni sotgani uchun 1 yillik qamoq jazosiga mahkum etilgan.

Ibratning o‘g‘li Rotibto‘ra Is’hoqto‘raevning 1959-yil 28-mayda yozgan arizasida aytilishicha, otasi Anisiy taxallusi bilan ham she’rlar yozgan; yoshlik davrida To‘raqo‘rg‘on, Namangan va Buxoroda (to‘g‘risi Qo‘qonda - N. K.) bilim

olgan, Turkiya, Eron, Afg‘onistan, Hindiston va Xitoy mamlakatlaridan tashqari Rossiyaning ko‘pgina shaharlarida ham bo‘lgan; ilmiy ishlar bilan shugullanib, “Jome’ ul-xutut”, “Farg‘ona tarixi”, “Madaniyat tarixi” kabi asarlarni yozgan; ular Toshkentdagi Sharq qo‘lyozmalari instituta va O‘zbekistan Yozuvchilar uyushmasi Namangan viloyat bo‘limining arxivida saqlanmoqda. O‘zbekiston NKVD Namangan viloyat bo‘limi boshlig‘i Makarevich qomusiy bilim egasi, XX asrdagi o‘zbek xalqining mutafakkirlaridan biri Ibratdan aksilinqilobchi bo‘lganligi haqidagi yolg‘on qo‘rsatmani olish uchun bir necha kun mobaynida Andijondagi qamoqxonaning maxsus xonasida qiynab azob bergan. Buyuk tilshunos olim, ma’rifatparvar shoir, o‘zbek matbaachiligi asoschilaridan biri Ibrat o‘sha yilning 12 aprel kuni Andijon turmasida Sovet davlati jallodlari qo‘lida halok bo‘lgan. Po‘latjon domla o‘z tazkirasida Ibrat haqida ham ma’lumot berib, uning “taraqqiyparvar islohotchi”, “Ovrupo madaniyatidan ancha bahravar”, “Haj etish uchun Hijozga borgan va Hindistonni sayohat etgan”, “hind Vodiynoma tilining alifbosidan bahravar” kishi bo‘lganligini alohida qayd etgan. Uning yozishicha, Ibrat To‘raqo‘rg‘onda bir hammom, bog‘, yangi binolar barpo etgan. U, tazkirachining yozishicha, «husnixat egasi bo‘lub, ruq’a, kufiy, ta’liq xatlarni husnixat ila yozar, turli millat kishilari ila do‘st bo‘lub, aloqasi bo‘lar edi. O‘rtacha gavdali, bug‘doy rangli, qotma kishi bo‘lub, kamzur kiyar, xushfe’l, fozil, saxiy kishi bo‘lub, mehmonxonasi hamma uchun ochiq, shuhrati vodiy bo‘yicha mashhur odam edi». Po‘latjon Qayyumiyning bu samimiy so‘zlari ibratshunos olimlarning tadqiqotlari va Ibratning “Tanlangan asarlar”i bilan qo‘shilib ilm va badiiyat durdonalaridan iborat muborak xazinani tashkil etadi. Bu noyob xazinaning xazinaboni mavlono Is’hoqxon Ibratdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Is’hohjon Junaydullaxo‘ja Ibratning 1916-yilda yozilgan “Tarixi Farg‘ona” kitobidagi «Shahri Andijon tarixi», “Tarixi Namangon” sarlavhali matnida keltirilishicha: Andijon avvalda Andigon bo‘lib, arabiyga olganda, Andijon bo‘lur, chunonchi, «kofi» forsiy arabda «jim» o‘qilur. Mana, farangi lafzi arabda afranjiy, bangni banj. Kofi forsiy arabda “j” bo‘lib, Andigon arab lafzlarida Andijon bo‘lgan bo‘lsa kerak. Ozarboygon arabda Ozarbayjon yoziladur va o‘qiladur. Shunga o‘xshash Andijon lafzi, asli, Andigon bo‘lsa kerak. Bu foristondan qo‘shilgandur, chunonchi, bandigon yoki mardigon degandek. Forsiyda gonlar o‘rnida mardlar yoki ozodagon ozodalar degan so‘zdek. Andigon andlar degan so‘z. Anda turklar urug‘ini o‘zbeklar aytur. Bul forsiylar tarafidan aytulg‘an bo‘lib, asli, Andijon forsiylar, ya’ni arablar qo‘liga o‘tmasdan avval ham bor edi, chunonchi, tarixi “Qutadg‘u bilik”da yozibdurki, O‘g‘uzxonni

Hindistonga yurganini zikrida aytur. O‘g‘uzxon tamomi lashkari mo‘g‘ullar ilan Talas va Saryom keldi. Toshkand va Samarqand va Buxoro podshohlari saf tortib urusholmadilar, ular shahar va mahkam qal’alarga berkindilar. O‘g‘uzxon Toshkand va Saryomni o‘zi qamab oldi. Turkiston va Andijon taraflarga o‘g‘lonlarini yubordi. Onlar 6 oyda Turkiston birla Andijonni olub, atosi xizmatiga keldilar deydur, ya’ni O‘g‘uzxon zamonida ham Andijon shahri mashhur ekan. O‘g‘uzxon Bo‘kuxonni sakkizinchi bobosidur, ya’ni Bo‘kuxon Afrosiyobni mo‘g‘ulcha ismidir. Afrosiyob laqabi Farran osiyo degan so‘zdur. Farg‘onani Afrosiyob bino qildi. Farg‘onadan avval Qubo bino bo‘ldi Qubodni vaqtida. Ammoki Andijonni qaysi podshohni binosi ekanligiga mo‘tamid tarix va ma’lumotimiz bo‘lmagandan bul tarixlarga iqtifo qilindi. Tarixi “Qutadg‘u”dan mustazod bo‘lurki, Andijon to‘rt ming yildan muqaddam, ya’ni O‘g‘uzxon vaqtida shahar bo‘lsa ham, avval obodon shahar ekan. O‘g‘uzxon hazrati Nuh alayhissalomni to‘qquzinchi o‘g‘lilaridur. Valhosilki, Andijon Farg‘ona shaharlari ichinda eng avvalgi va qadimiydur. Vaqtiga kelganda Afrosiyob Turon podshohi bo‘lib, Andijonni poytaxt qilib, Ko‘nikdo‘z shahridan goho Toshkand va Andijon kelib yurar ekan. Ammoki afvohi nosda qariyalar so‘zidurki, Andijon, aslida, Odinajondur. Odinajon Afrosiyobni qizidurki, anga o‘rda va bog‘ bino qilib berib, ani ismiga tasmiya qilib edi. Odinajonni tilda buzub munshira ismini forsiyda Avazjon agloti avom ila Andijon qilgan deydurlar. Bar har bob eski shahar bo‘lub, necha marotaba buzulub, yana obod bo‘lub, taboduli zamon va inqilobi ovon tuzalub, obod bo‘lgan bir eski shahardur. Ammoki “Tarixi farishta”da yozilibdurki, Umarshayx o‘g‘li Boburxon Andijonga sakkiz yuz to‘qson to‘qquzunchi hijriyda o‘n ikki yoshida podshoh bo‘ldi. Tarixi valodatiga shul tariqa nazm qilibdurlarki: Andar iiiii muharram, shud on iitsi mukarram, Tarnxi mavlidash ham omad «shaish muharram». Ammoki Umarshayx mirzo dushanba kuni chahorumi mohi ramazon tis’a va tis’iyna va samona mi’ada kabutarxona tomidan yiqilib marhum bo‘ldi. Bobur mirzo baittifoqi umaro podshoh bo‘ldi. Ul vaqtda Axsi podshohi Uzun Hasan podshoh edi. Ammo Farg‘onaga Ahsan Ya’qub o‘g‘li podshoh edi deydurlar. Muarrixlar bu shaharlarga nazman yozgan tarixlari bul ekan, chunonchi: “Aral” Andijonu “maral” Margalon, Ba tarixi hijriy “garal” Shahrshon. 5 Shahrixonni Umarxon jannatmakon vaqtida ul kishi amri ilan Xolmuhammad dodxoh tojik bino qildi. 1250-nchi hijriyda bino bo‘lgan ekan. 1030-nchidagi zilzilada Axsikent buzulgan. Mazkur zilzilada Andijon ham buzilgan edi. Yana andan buyon Rusiya tasarrufiga 4 Muharramning oltisida o‘shal shoh mukarram buldi. Tug‘ilish yili ham «shashi muharram» (muharramning oltisi) bo‘ldi. “Shashi muharram”dan abjad bo‘yicha Boburning tug‘ilgan yili chiqadi. Andijon tarixi «aral», Marg‘ilonniki

“maral”, hijriy yil bo‘yicha Shahrixonniki “g‘aral”dir. Bu yerda “aral” va “g‘aral” so‘zlari ta’rix bo‘lib, ulardan 230, 270 va 1230 raqamlari chiqadi. o‘tgandan so‘ng tezroq obodlikga qadam quygan ediki, 1316-nchi hijriyda bo‘lgan zilzila hammani ma’lumidur. Anda yana zilzila bo‘lub, buzulub, hukumatdan imdodlar bo‘lib, avvalgidan necha daraja obod bo‘lgan. Mundan avvalgi obodlikni bilmak bo‘lgan kishi “Boburnoma” tarixini ko‘rsa bo‘lur. Yerlarini hosildorligi, sanoatlari hammasi Farg‘ona bobida yozilib o‘tdi, takrorga hojat ko‘rulmadi.

Bundan tashqari, Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asarida quyidagi ma’lumot berilgan. Ibrat asarning “Asri Muhammad Alixon ibn Umarxon” degan bobida bunday yozgan: “Muhammad Alixon anosini oldi degan so‘z afvohi nosda joriy bo‘lsa ham, bu so‘z rost bo‘lmay, buxoriylar qatllarini aybini satri uchun qilgan qabihalarini tavjihiga chiqarilmish so‘zlari ekan. Asl muddao bo‘lak ekan. Chunonchi, Umarxon olaman degan Podshohxon oyimni(ng) husnini eshitub, g‘oyibona maftuni jamoli o‘lub, muni anga sabab qilib kelgan. Asl muddao visol bo‘lsa ham, zohirda Muhammad Alixonni xalqni(ng) ko‘ziga osiy, gunahkor ko‘rsatib, shariatni poymol qildi, tanbeh darkor deb kelib, qancha xonzoda va mazluma oyimlarni qatli bag‘ayri haq qilub, oxirulamr murod o‘shal oyim ekan. . . ” Amir Umarxon - kanizak - Madalixon muammosining shu talqini zamonaviy o‘zbek tarixshunosligida ham ustuvorlik qiladi. Lekin masalaga kengroq nazar tashlasak, bu muammoga oid boshqa qarashlar ham borligi ma’lum bo‘ladi.

Kanizak, “Mehrobdan chayon” romanida yozilishicha, yosh bo‘lganligi va balog‘atga yetmaganligi uchun Amir Umarxon uni “nikohiga ololmay” va “murodiga yetolmay” vafot qilgan. Qodiriy yozajak romani uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bu fakt-ma’lumotni berganidan so‘ng davom etib yozgan: “Tarixning bizga xabar berishiga qaraganda, Madalixon shu qizning dardida necha yillar yonadi, chunki ulamolar bu yosh go‘zalni Madaliga ona maqomida hisoblab nima uchundir yosh xonning orzusiga ko‘ndalang keladilar (ta’kid bizniki - N. K.)”. Adibning bu so‘zlaridan ayon bo‘lishicha, u, birinchidan, shu masalaga oid tarixiy manbalarni o‘rgangan; ikkinchidan, Umarxonni kanizakka uylanmagan deb hisoblagan; uchinchidan, Umarxon kanizakka uylanmaganligi uchun ulamolarning «yosh xonning orzusi»ga to‘ganoq bo‘lganlari sababini tushunmagan. Boshqacha aytganda, Qodiriy nazarida, Amir Nasrulloning Farg‘ona ustiga yurish qilishiga asos bo‘lmagan.

Qodiriyning bunday xulosaga kelishiga Is’hoqxon Ibratning «Tarixi Farg‘ona» asarida berilgan yuqoridagi ma’lumot ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Namangan haqida esa quyidagilar keltiriladi: T a’ r i x i Namangon Namangon yangilik jihatidinmu yoki biz axdi islom diniy kitoblarga ahamiyat berub, tarixlarga ahamiyat yo‘qligi sababmu, bu Namangonga hech kim ravshan tarix qilmagan ekan.

Bu sababdan bir kitob ko‘rilmaydur. Qariyalar ogzidan ogiz eshitilub, haddi tavoturga yetub, yonida bo‘lak qilu qol bo‘lmay, hammani masmu’i bo‘lgan ravshan so‘zlar ilan ado qilinadur. Chunonchi, bu Namangon, asli, namangon emasdur. Forsiy lafzi birla namakon - namak kondur. Muni ma’nisi shul ekanki, bizni chigatoy tilida, asli, gon yo‘q ekan, bu shevai forsiydur. Chig‘atoyda kon gon yoki qon bo‘ladur. Bu lafzi gon konni oson qilibdur. Yoki forsiylar ixtiloti va ham buyoni lafzi forsiy uchun gon deb mashhur va bu lafzda mazkur bo‘ldi. Chunonchi, Namangon avvali holda, ya’ni mundan to‘qqiz yuz 6 yil ilgari yerlarda hech kim bo‘lmay yotgan biyobon-qo‘ltuz bo‘lub, ul vaqtda Buxoro xonlaridan Abdullohxon bu Fargona taraflariga kelib, har yerga goh sardobalar kavlab, saqqoyi mo‘mininga choxdarni tepasiga gumbazlar qilib, ko‘b xalqg‘a naflik ishlarini qilgan xon ekan. Ul kishi bul Namangonni yeriga kelib, alholda sardoba degan Madrasa bordur, bir chust va bir aminlik mahalladur, ul yerga tushub, darhol sardoba kavlatib, necha kunlar tutub, bir tarafi daryo va bir taraf tog havosi yaxshi uchun bu yerga bir shahar bino qilmoq bo‘lub o‘z ichlaridan bir ogoliq mansabida turgan kishini amr qilib, shahar qilmoq bo‘lganda o‘shal yerni daryo tarafi butun sho‘r ko‘l bo‘lub yotgan tuz ekan. Binobarin, namak kon deb, ya’ni tuz kon deb atagan ekan. Bu namak kon lafzini forsiyda gon qilib yozub, namakkonni namangon deb, bir nuni zoida plan namangon bo‘ldi, asli, namakkondur .

Xulosa. Ibrat asarda arablarning Farg‘ona vodiysiga bosqinchilik yurishi, har bir shahar aholisining ularga qarshilik harakati, Safed Bulon mozorida 2700 sahoba va sahobai tobeynlarning shahid qilinishi haqida fikr yuritadi. Bu haqdagi ma’lumotlarni u “Mulhaqot us-Suroh” va “Tarixi shoh Jarir” asari bo‘yicha bayon etganligini ko‘rsatadi. Uning bu xulosalari Sh. H. Xolisning “Safed-Bulon qissasi” nomli risolasida ham keltirilgan bo‘lib, Safed Bulon mozori, o‘sha davrdagi toshlar va unga bitilgan yozuvlar bugungi kunda ham mavjudligi fikrimizning dalilidir.

Muallif muqaddimasiga xulosa sifatida vodiyning Rusiya tomonidan bosib olinganligi, uning idoraviy uslubini yoritish bilan o‘z fikrlarini yakunlaydi.

Is’hoqxon Ibrat o‘z xalqining porloq kelajagiga, ozod va hur hayot qurajagiga zo‘r umid va ishonch bilan qaradi. “Tarixi madaniyat” asarida Vatanning kelajakda ilm-fan, madaniyat rivojlangan shaharlarining qiyofasini romantik bo‘yoqlarda tasvirlaydi. Uning ilmiy-tarixiy asarlari Vatanimiz tarixini o‘rganishda, shubhasiz, zarur, mo‘tabar manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. Tanlangan asarlari. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2005. – 200 b.
2. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. - T. : Sharq, 1994.
3. Oqilxon Dadaboyev, Xotam Mamadaliyev. "Is'hoqxon Ibrat vorislarining yutuqlari". O'zA.
4. Vohidova K. A. Is'hokxon Ibrat hayoti va ilmiy merosi haqida // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2018. 1-son, -B. 206-211.
5. Gaffarov Y. O. Usmonga yozilgan xatlardan. Ushbu xat nusxasi qo'limizda saqlanadi (arab yozuvida). –Namangan, 1961.
6. Yulchiyev K. Is'hoqxon To'ra Ibrat. O'quv-metodik ko'rsatma. – Farg'ona, 2018. – 56 b.
7. Sariboyeva M. Ibratning ibratli yo'li // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2019. 8-son, -B. 322-329.
8. Tammat, 1344/1925 Qalami Inoyatxon To'raqo'rg'oniy valadi Ulug'xo'ja eshon marhumiy.
9. Abu Tohirxoja. Samariya. Narshaxiy. Buxoro tarixi. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. Ibrat. Farg'ona tarixi. - Toshkent: Kamal.
10. Vodiynoma 2/2017. Rossiya imperiyasi va sovet mustamlakachiligi davri

MAGNETIC SEMICONDUCTORS AND SPINTRONICS

Nazokatxon Yuldasheva Murod qizi
Andijan State University, Ph.D. Candidate of Physical and Mathematical Sciences
e-mail: nazokat. yuldasheva20@gmail. com

Annotation: One of the main tasks of spintronics is the integration of magnetic systems into semiconductor microelectronics. The easy control of electron spins in semiconductors today allows the creation of two new classes of hybrid materials: magnetic semiconductors (ferromagnetic/semiconductor hybrid structure) and spin-electron nanotransistors.

Broad prospects for the application of nanoheterostructures are related to the fact that the electronic spins of a semiconductor can be used as detectors that respond to changes in the magnetic state in a ferromagnet. Thus, when injected through the contact of a ferromagnet and a semiconductor, the electrons of the semiconductor will have an unbalanced spin that contains information about the spin of the electrons in the ferromagnet. Both optical and electrical detection methods can be used to determine the spin direction of electrons in a semiconductor.

Key words: magnetic semiconductors, spin-electron nanotransistors, ferromagnetic , semiconductor , spin injectors

Аннотация: Одной из основных задач спинтроники является интеграция магнитных систем в полупроводниковую микроэлектронику. Легкое управление спинами электронов в полупроводниках сегодня позволяет создать два новых класса гибридных материалов: магнитные полупроводники (гибридная структура ферромагнетик/полупроводник) и спин-электронные нанотранзисторы.

Широкие перспективы применения наногетероструктур связаны с тем, что электронные спины полупроводника могут быть использованы в качестве детекторов, реагирующих на изменение магнитного состояния в ферромагнетике. Таким образом, при инжекции через контакт ферромагнетика и полупроводника электроны полупроводника будут иметь несбалансированный спин, содержащий информацию о спине электронов в ферромагнетике. Для определения направления вращения электронов в полупроводнике можно использовать как оптические, так и электрические методы обнаружения.

Ключевые слова: магнитные полупроводники, спин-электронные нанотранзисторы, ферромагнетики, полупроводники, спиновые инжекторы.

INTRODUCTION

However, according to many scientists and experts, in the next few decades, without conceptual solutions, microelectronics will drastically reduce the pace of development. [4]

In the 21st century, one of the promising directions of the development of microelectronics is semiconductor spintronics, which uses the charge of the electron as well as its spin (internal angular momentum). Semiconductor spintronics opens up the possibility of creating basic elements that expand the functionality of existing devices, and also allows the production of electronic devices based on new effects and phenomena in principle (magnetoresistive memory; quantum computer; spin transistors, valves, magnetic sensors). Spintronic devices are fast and energy efficient because the spin of an electron can be transferred from one state to another in less time than the transfer of energy and charge.

Since the kinetic energy of the charge carrier does not change when the spin changes, practically no heat is released

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY

Magnetic semiconductors. All spintronic devices described above have in common that they are based on metal. An important disadvantage of this approach is the inability to amplify signals. There are no exact metal analogues of traditional semiconductor transistors today, in which the flow of electrons from the base of the transistor allows dozens of others to flow from the emitter to the collector. Finding materials with ferromagnetic and semiconductor properties has been a long-standing dream of researchers. But this is difficult to achieve, because there is a great difference in the nature of chemical bonds. Ferromagnetic semiconductors, on the one hand, are sources of spin-polarized electrons, and on the other hand, they are easily integrated with conventional semiconductor devices. *The band structure of a magnetic semiconductor* differs from the two-band structure of conventional semiconductors, metals and dielectrics by the presence of a special third band formed by *d*- and *f -electrons* of transition atoms or rare earth elements. Ideal ferromagnetic semiconductor The conductor should have a Curie temperature above room

[4] MoS2 transistors with 1-nanometer gate lengths / SB Desai, SR Madhvapathy, AB Sachid et al. // Science. - 2016. - Vol. 354, No. 6308. - P. 99-102.

temperature (the temperature at which a ferromagnet loses its properties) *and should allow the formation of* [5]*n*- and p-conduction bands in the crystal .

DISCUSSION AND RESULTS

Today, much attention is being paid to the so-called alloys (GaAs), in which individual atoms are replaced by atoms with random magnetic properties, such as dilute magnetic semiconductors containing Mn^{2+} . The highest Curie temperature *Tc = 110 K has been achieved* so far in GaMnAs magnetic solid solution with $_p$ - *conductivity* . This material was used as a spin injector (including zero external magnetic field) in an electroluminescent diode with a non-magnetic InGaAs/GaAs quantum well. [6]

Currently, the search for new ferromagnetic semiconductors with a high Curie temperature, which can be used as spin injectors at temperatures of the order of room temperature and in a weak (or zero) external magnetic field, is in full swing. The most interesting results in this direction are given in which ferromagnetism is observed at $T_{c = 320\ K\ in\ a\ semiconductor\ with\ CdMn\ 1\text{-}x}\ Ge_x\ P_2$ chalcopyrite structure .




Figure 1. (a) Schematic of a Johnson spin transistor, (b) Schematic of a spin-valve transistor

Johnson spin transistor . The development of microelectronics facilitated a rapid transition from two-contact spin-electronic devices to three-contact systems

[5] El-Aawar H. Increasing the transistor count by constructing a two-layer crystal square on a single chip / Intern. journal of comp. science & information. tech. - 2015. - Vol. 7, No. 3. - P. 97-105.
[6] Borisov E. Spintronics. Kuda dvigatsya dalshe? / E. Borisov // Vector high-tech. - 2013. - T. 4, No. 4. - S. 41-45.


consisting of two ferromagnetic layers separated by a paramagnetic layer and exhibiting a large magnetoresistance effect. Such a device was called a Johnson transistor in honor of the inventor who connected the third contact to the paramagnetic layer. Speaking of bipolar transistors, a Johnson transistor consists of a base (paramagnetic), an emitter and a collector (ferromagnet). If a potential is applied to the collector, electrons in the up/down direction are collected in the emitter-base circuit. The collector current now depends on whether its magnetic moment is parallel or antiparallel to the emitter magnetization. The ferromagnetic emitter in this case plays the role of a polarizer for the collected spins. It is clear that to change the potential in the circuit of the emitter-base, it is necessary to apply an external magnetic field, which "changes" the magnetic moment vector of the collector or emitter in the opposite direction. [7]

Hybrid spintronics . The Johnson transistor is very functional, but it still has limitations in its use. The measured voltage values are very small and cannot be increased without the use of additional devices. The main disadvantage of such structures is that all connections between layers are ohmic, since all components of the structure are metal. *In other words, the researchers* faced the problem of creating a new class of structures - hybrid spin-electronic devices. Such devices represent the combination of magnetic materials with semiconductors. Ferromagnets polarize spins and semiconductors allow voltage blocking, current spreading and tunneling effects.

Single transistor . The first hybrid spin-electronic device was the Monsma transistor, which was a spin valve sandwiched between layers of silicon. Two contacts are connected to the silicon layers (emitter and collector), and the third is connected to the rotary valve (base) (Fig. 5. 4). The spin valve in this structure can be composed of magnetic and non-magnetic metal layers that are repeated over and over again. At the interfaces between silicon and metal , Schottky barriers are formed that absorb bias voltages applied between pairs of contacts (Fig. 5. 5). The collector Schottky barrier is reverse biased, while the emitter barrier is forward biased. This allows unpolarized "hot" electrons from the semiconductor emitter to be sent to the metal base with energies higher than the Fermi energy. The question is: can hot electrons pass through the spin valve and retain enough energy to overcome the Schottky barrier of the collector? Otherwise, they remain in the base and go to the outer circuit. By changing the magnetic configuration of the base, you can determine how much energy the "hot" electrons lose as they pass through the base. If the

[7] Danilov Yu. A. Magnetic semiconductor nanostructures for spintronic devices / Yu. A. Danilov // Prilozhenie k journal "Vestnik RGRTU". - 2009. - No. 4. - S. 1-6.

magnetic moments of adjacent spin valve layers are antiferromagnetically aligned, then both types of spin are equally distributed in the magnetic layers. If an external magnetic field is applied to the spin valve, which equalizes all the magnetic moments of the layers, then one type of spin (spin down or "minor") is strongly propagated, while the other (spin or "major") passes through the entire magnetic structure without propagation .



(a) (b)

Figure 2. (a) Working principle of SFET, (b) schematic diagram (top) and energy diagram (bottom) of the spin blocking device .

Datta-Das spin field effect transistor (SFET). In 1990, Supriyo Datta and Biswajit Das considered the possibility of creating a spin field effect transistor based on the relativistic effect. The device has a design similar to a conventional field-effect transistor with source and drain contacts (ferromagnets) and a gate (semiconductor). Spin-polarized carriers leave the source with spins and precession parallel to the

magnetization of the ferromagnet when moving due to the Rashba effect (Fig. 2). In this case, electrons must move at a speed of 1% of the speed of light in a vacuum. With sufficient magnetic field strength (in this case, the speed of the electron is very important), the electron spins reverse direction. As a result, the channel resistance increases and the current decreases. By changing the gate potential, the conductance of the device can be changed. This device works like a traditional field-effect transistor, its peculiarity is that the differential magnetization of the contacts (and therefore its electrical properties) is sensitive to the external magnetic field.

New effects in spintronics: spin blockade . At the end of the last century, a new effect was found in the device, the diagram of which is shown in Fig. 2. The spin blocking system consists of cobalt contacts, between which are ferromagnetic cobalt islands, which change the direction of magnetization under the influence of an external magnetic field. For example, Figure 2 shows a Schottky barrier at low temperature, which blocks circuits in such a device. The magnitude of the magnetoresistive effect remains 25% at T = 20 K, which is unprecedented for silicon-based devices. The network structure consists of a Schottky barrier, along the edges of which there are a number of magnetic islands, between which an antiferromagnetic coupling is established (and therefore, in the absence of an external magnetic field, o ‘blocks tooth spins).

In a magnetic field, the magnetization vectors of the islands are directed across the field , and the resistance of the structure decreases due to tunneling between adjacent islands. Exposure to optical radiation increases the resistance of the structure, as photons activate the electrons of the islands, resulting in an increase in the density of energy states. The geometry of such a system is not much different from a high electron mobility transistor, in which the conductance of the main current channel is controlled by localized states in adjacent but physically separated regions of the device.

References:

1. MoS2 transistors with 1-nanometer gate lengths / SB Desai, SR Madhvapathy, AB Sachid et al. // Science. - 2016. - Vol. 354, No. 6308. - P. 99-102.

2. El-Aawar H. Increasing the transistor count by constructing a two-layer crystal square on a single chip / Intern. journal of comp. science & information. tech. - 2015. - Vol. 7, No. 3. - P. 97-105.

3. Borisov E. Spintronics. Kuda dvigatsya dalshe? / E. Borisov // Vector high-tech. - 2013. - T. 4, No. 4. - S. 41-45.

4. Ognev A. V. Spintronics: physical principle, structure, perspective / A. V. Ognev, A. S. Samardak // Vestnik DVO RAN. - 2006. - No. 4. -S. 70-80.

5. Danilov Yu. A. Magnetic semiconductor nanostructures for spintronic devices / Yu. A. Danilov // Prilozhenie k journal "Vestnik RGRTU". - 2009. - No. 4. - S. 1-6.

6. Danilov Yu. A. Basic spintronic: ucheb . p osobie / Yu. A. Danilov, E. S. Demidov, A. A. Ezhevsky. - Nizhny Novgorod, 2009. - 173 p.

7. Giant magnetoresistance of (001) Fe /(001)Cr magnetic superlattices / MN Baibich, JM Broto, A. Fert et al. // Phys. rev. Lett. - 1988. - Vol. 61, No. 21. -P. 2472-2475.

8. Binasch G. Enhanced magnetoresistance in layered magnetic structures with antiferromagnetic interlayer exchange / G. Binasch, P. Grunberg, F. Saurenbach // Phys. rev. B. - Vol. 39, No. 7. - P. 4828-4830.

9. Camley RE Theory of giant magnetoresistance effects in magnetic layered structures with antiferromagnetic coupling / RE Camley, J. Barnas // Phys. rev. Lett . -1989. - Vol. 63. - P. 664-667.

XOR YO‘NALISHI SAN’ATI VA KELIB CHIQISH TARIXI

F. X. Kuchkarbayeva
ADPI Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabasi
kuchkarbayevaferuza@gmail. com

F. Q. Maksumova
ADPI “Tasviriy san’at va musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Xor-hozirgi kunda keng tarqalgan xalq san’ati turlaridan biridir. Jamoa ijrochiligi odamlarda chuqur estetik zavq uyg‘otibgina qolmay, ularni jipslashtiradi hamda ma’naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Ushbu maqola xor yo‘nalishi san’atining kelib chiqish tarixi hamda tarqalishi haqida qisqacha yoritililgan.

Kalit so‘zlar: uyg‘onish davri, g‘arb mamlakatlarida xor ijrochiligiligi, lidertafel, orfeon, Rossiyada xor ijrochiligi, kapella, regent, metsenantlar xor jamoasi.

Аннотация: Хор-один из распространенных в настоящее время видов народного искусства. Коллективное исполнение не только вызывает у людей глубокое эстетическое наслаждение, но и оживляет их, способствует повышению их духовного уровня, художественного вкуса. В этой статье кратко рассказывается об истории зарождения, а также распространения искусства хорового направления.

Ключевые слова: Ренессанс, хоровое исполнение в западных странах, лидертафель, орфеон, хоровое исполнение в России, хоровое коллектив а капелла, регент, меценаты.

Abstract: Choir is one of the types of folk art that is now common. Team performance not only instills deep aesthetic pleasure in people, but also jeeps them and helps to increase their spiritual level, artistic taste. This article briefly covers the history of the origin of the art of choral direction, as well as its distribution.

Keywords: Renaissance, choral performance in Western countries, lidertafel, Orpheon, choral performance in Russia, Chapel, regent, metsenants choral collective.

Xor musiqa san’ati hozirgi kunda keng tarqalgan san’ati turlaridan biridir. Jamoa ijrochiligi odamlarda chuqur estetik zavq uyg‘otibgina qolmay, ularni jipslashtiradi hamda ma’naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. So‘z va musiqiy tuyg‘u bir dam orqali emas, bir guruh odamlar tomonidan ifoda

etilishidir. Xor insonning eng yaxshi his-tuyg‘ularini uyg‘otib, hayajonlantirish, qiziqtirish xususiyatiga ega. Shu sababdan xor ishtirokchilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy-g‘oyaviy tarbiyalanishidagi roli juda kattadir. Tarbiya vositasi sifatida xor ijrochiligining, an’analari qadim davrlarga borib taqaladi. Ko‘p millatli xalqimizning voqealarga boy bo‘lgan butun tarixi qo‘shiq bilan bog‘langan va unda o‘z aksini topgan.

Uyg‘onish davrida[8] xor san’atida katta o‘zgarish–ko‘p ovozli xor ijrochiligi paydo bo‘ldi. Xor san’atining yanada chuqurroq ravnaq topishiga a’kapella ijrosida kuylashning paydo bo‘lishi asos bo‘ldi. XV–XVI asrlarda yashab o‘z ijodida ko‘p ovozli asarlar yaratib kelgan–J. Palestrina, O. Lasso, K. Janeken kabi polifonist-kompozitorlar o‘z hissalarini qo‘shdilar. Davr taqozosi bilan madaniyatlar yaqinlashuvi asrlardan-asrlarga o‘tib, bir-biriga ta’sir ko‘rsata boshlagan. Xususan, O‘zbekiston madaniyatiga g‘arb mamlakatlari, ayniqsa, Rossiyadagi madaniy o‘zgarishlar bevosita singib kelavergan. Buni inkor etib bo‘lmaydi, shu sababli mazkur madaniyatlar haqida ham ma’lum bir tushunchalarga ega bo‘lib olishimiz darkor.

G‘arb mamlakatlarida xor ijrochiligi. Ma’lum bir davrdan so‘ng xor san’atida yana bir o‘zgarish paydo bo‘lib, yirik asarlar–kantata, oratoriyalar mualliflari sifatida–I. S. Bax, G. Gendel, K. Glyuk ijodi, keyinchalik Meyerber, J. Verdi, shu bilan birga F. Shubert, B. Mendelson, R. Shuman kabi romantik kompozitorlar ijodida kamer xor musiqasi rivoj topdi. Shu davrda qo‘shiq sevadiganlar xor jamoalari “lidertafel”[9] va “orfeon”[10] paydo bo‘lgan. Xor san’atining cherkov musiqa san’atidan asta-sekin tashqariga chiqishi, opera teatrlarining shakillanishi, XIX asrdagi milliy kompozitorlik maktabini xalq omma musiqasiga chambarchas bog‘lanib ketishi Rossiya, Boltiq bo‘yi davlatlari– Chexiya, Bolgariya, Vengriya va boshqa davlatlarda namoyon bo‘lgan. Keyinchalik AQSH, Lotin Amerikasi, Yaponiya davlatlarida ham bu jarayon davom ettirilgan.

Rossiyada xor ijrochiligi. Ko‘p asrlardan buyon rus xor san’ati o‘zining izchilligi bilan ajralib turadi. Rus xor ijrochiligi va ijodiyoti xalq ijrochiligi va cherkov ijrochiligi yo‘nalishida rivojlanib, bir-biriga o‘zaro bog‘langan yo‘nalishlar tashkil etgan. Bularga qishloq va shahar qo‘shiqlari, qo‘shiqsevarlar xor jamoalari,

[8] Sharafiyev N. Xorshunoslik. T. : O‘qituvchi. 1988. 86-b.
[9] *nemischa so‘z bo‘lib, «yetakchi qo‘shiqchi» ma’nosini anglatadi. Germaniya, Avstriya va Shveytsariya davlatlarida keng rivojlangan*
[10] *fransuzcha «xor sevuvchilar jamoasi» 1818 yilda Parijda G. Vilemom rahbarligida vujudga kelgan.*

maktab qo‘shiqsevarlari, professional cherkov va opera xor kapellalari targ‘ibot qilingan.

Birinchi bo‘lib XV asrda tashkil qilingan “Хор государьевых певчих дьяков” (“Podshohning kuylovchilari xori”) keyinchalik Peterburg saroy xonandalari kapellasiga aylantirilgan va XVI asrda yuzaga kelgan “Хор Патриарщих певчих дьяков” (“Patriarxning kuylovchilari xori”), keyinchalik Moskva sinodal xori, deb atalgan. Patriarxning kuylovchilari xori rus professional xorlarining ilk namoyondalari bo‘lib qolishgan. Cherkov ijrochiligi o‘z davrida musiqa qobiliyatiga ega ijrochi va xor rahbarlari (regentlar), XVI–XVII asrlarda esa dvoryanlar, pomeshiklar o‘z qaramog‘ida xor va orkestrlar tashkil etadilar. Bunday jamoalarni “metsenatlar”–san’at homiylari xori, deb (graf Sheremetev o‘z kapellasining serqirra va sermazmun ijodi bilan 150 yilga yaqin ijod qilib kelgan jamoalardan; knyaz Yu. Galitsin xorlari va boshqalar) nomlangan. Bu kapellalar o‘z ijro mahoratlari, dasturlari bilan rus xor madaniyatiga juda katta, yuksak hissa qo‘shgan. Ushbu xor jamoalariga krepostnoylar rahbarlik qilib, ular ichidan atoqli xor dirijyorlari–S. Dektarev, G. Lomakin, A. Arxangelskiylarning yetishib chiqishi misol bo‘la oladi.

XX asrda ham Rossiya hududida ko‘plab professional xor jamoalari tuzilib, ular keng konsert ijrochilik faoliyatini olib borgan. Davlat rus xori, Respublika rus xor kapellasi (keyinchalik A. Yurlov nomi berilgan), Radio va Markaziy televideniye qoshidagi Rus qo‘shiqlari xori, Peterburg kuylovchilari kapellasi kabilar bunga misol bo‘la oladi. Butun dunyoga tanilgan xor dirijyorlari–G. Dmitriyevskiy, K. Ptisa, N. Danilin, A. Sveshnikov, A. Aleksandrov, V. Sokolov, A. Yurlov, A. Yegorov, A. Mixaylov, V. Minin, M. Pyatniskiylar kabilar mazkur san’at rivojlanishiga o‘z ulushlarini qo‘shdilar. XX asrning ikkinchi yarmida xor san’ati va kompozitorlik ijodiyoti yanada yuksaklarga ko‘tarildi. Bunga S. Prokofev, D. Shostakovich, V. Shaporin, M. Koval, G. Sviridov, V. Salmanov, A. Lenskiy, V. Shebalin, R. Boyko, R. Shedrin va boshqalarning ijodiy izlanishlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Shu davrda xor ijrochiligida bolalar ovoziga ham katta e’tibor berilib, maktab bazalarida xor studiyalari, xor to‘garaklari, vokal ansambllari tashkil qilindi. Har yili o‘tkaziladigan xor festivallari, qo‘shiq bayramlari, bolalar musiqa ijodiyoti festivallari keng ko‘lamda o‘tkazildi. Vladimir Sokolov, Georgiy Struve va Viktor Popov rahbarligidagi bolalar xor jamoalarining dovrug‘i butun dunyoga taraldi. Bunday taniqli dirijyor va kompozitorlar o‘z vaqtida O‘zbekiston bolalari, yosh musiqasevarlar bilan ham ko‘plab ijodiy uchrashuvlar o‘tkazganlar. O‘zbekistonning eng taniqli xor jamoasiga bundan chorak asr narida “Bulbulcha” nomi berilishiga Georgiy Struve sababchi bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharafiyev N. Xorshunoslik. T. : O‘qituvchi. 1988.

ИЗУЧЕНИЕ ЭКТОПАРАЗИТОВ ЛОШАДЕЙ: БЛИЖАЙШИЙ ВЗГЛЯД НА РАСПРОСТРАНЕНИЕ ВЛАСОЕДОВ И ПАРАЗИТОВ

Носир Раимов Ботурович
докторант (PhD), Научно-исследовательский институт ветеринарии

Аннотация. Одной из серьезных проблем развития коневодства является зараженность лошадей паразитами. Вместе с тем, проблема инвазирования и распространение эктопаразитов – власоедов Trichodectes pilosus у лошадей табунного содержания остается весьма актуальной проблемой. Распространение, которых связано с действием различных причин биотического, абиотического, климатического характера и прежде всего наличие возбудителя, особенности его биологии, характера их циркуляции в природном биоценозе и пути передач. Эктопаразиты представляют существенные угрозы для здоровья. Понимание этих паразитов крайне важно для поддержания благополучия лошадей.

Ключевые слова: власоеды, паразит, эктопаразиты, лошади, климат, вид Trichodectes pilosus, проблема.

Annotation. One of the serious problems in the development of horse breeding is the infection of horses with parasites. At the same time, the problem of invasion and spread of ectoparasites – the lice eater Trichodectes pilosus – in herd horses remains a very pressing problem. The spread, which is associated with the action of various reasons of a biotic, abiotic, climatic nature and, above all, the presence of the pathogen, the features of its biology, the nature of their circulation in the natural biocenosis and transmission routes. Ectoparasites pose significant health risks. Understanding these parasites is critical to maintaining equine welfare.

Key words: lice eaters, parasite, ectoparasites, horses, climate, Trichodectes pilosus species, problem.

Актуальность темы. Власоеды – эктопаразиты млекопитающих, принадлежащие к отряду Mallophaga. Отряд Mallophaga включает до 2500 видов, из них около 50 паразитирует у млекопитающих, а остальные у птиц. Ветеринарное значение имеют виды, относящиеся к семейству Trichodectidae, – власоеды, паразитирующие только на млекопитающих. Власоеды сильно вредят сельскому хозяйству, на лошади – Trichodectes pilosus. Питаются власоеды эпидермальными клетками, выделениями сальных желёз и кровью. У

животных вызывают зуд, расчёсы, выпадение волос и гиперкератоз кожи. Власоеды – переносчики возбудителей инфекционных и инвазионных болезней (инфекционная анемия лошадей, дипилидиоз плотоядных и др.).

Целью нашей работы является изучение распространения власоедов у лошадей, наиболее опасные для возможного заражения всего поголовья лошадей.

Задачи: выявление эпизоотологического статуса эктопаразитов, изучение морфологических и биологических особенностей возбудителя эктопаразитарных заболеваний

Объект исследования: Провинции республики возбудитель конских эктопаразитов в личных, подсобных, крестьянских и фермерских хозяйствах, их яйца, личинки и имаго, различные инсектицидные препараты, используемые в инструкции.

Методы исследования: в исследованиях использовались паразитологические, энтомологические, эпизотологические, эколого-фаунистические, экономические исследования, общебиологические и ветеринарные паразитологические современные рекомендательные и методические пособия.

Власоеды Trichodectes pilosus представляют собой мелких бескрылых насекомых желтого или светлокоричневого цвета. Тело у них слегка сплющено в дорсо-вентральном направлении, длиной 1, 5–5 мм. Внешне они сходны со вшами, но отличаются от последних щитовидной головой, которая шире в грудной части, имеют ротовой аппарат грызущего типа, состоящий из верхних и нижних губ, с мощным верхними и нижними челюстями, наружные края их усажены мелкими зубчиками, расположенными на нижней стороне головы, глаза у паразита слаборазвиты, по бокам имеет 4–5-члениковые антенны, грудь состоит из трех различимых сегментов, на которых причленены три пары ног, оканчивающиеся одним или двумя коготками. Брюшко продолговато-овальное, из 8–9 сегментов, оно длиннее головы и груди, вместе взятых. Сегменты брюшка несут волоски, щетинки, расположенные зонами или рядами, характерными для каждого вида. У самок задний конец тела с выемкой, у самцов он округлый. Яйца (гниды) беловатые, овальные, блестящие, 0, 3—1, 5 мм длины. У отдельных видов на скорлупе яиц филаменты, оканчивающиеся крючками, что повышает сцепление с телом хозяина.

Наличие паразитических насекомых установили по характерным признакам: - на теле животных наблюдаются облысевшие участки; II

Международная научно-практическая конференция 176 - отмечаются очаги расчесов и воспалительные процессы в поврежденном кожном покрове; - появляются зуд и раздражение; - у некоторых лошадей наблюдается развитие дерматитов. В холодное время года, когда у лошадей густеет шерсть, они переползают на тело и своими укусами вызывают сильный зуд. Зараженные лошади усиленно расчесывают кожу, трутся о деревья, изгороди. На их теле появляются расчесы и проплешины в области шеи, плеч, паха, корня хвоста, иногда сопровождающиеся небольшими капиллярными кровотечениями. Развивается дерматит, животные истощаются и быстро устают. У исследованных нами разновозрастных лошадей в табуне власоеды обнаружены у всех 100%. При клиническом осмотре на участках кожи, заселенных власоедами, волос взъерошен, неодинаковой длины. Между волосами находятся большое количество отслоившегося эпидермиса и скорлупа власоедов, также обнаружены плешины и очаговые дерматиты в области шеи, плеч, пахов, корня хвоста. Наблюдается зуд у лошадей. При исследовании волос обнаружили Trichodectes pilosus, мелкие бескрылые насекомые желтого или светло-коричневого цвета.

Программы дегельминтизации должны быть адаптированы к конкретным потребностям отдельных лошадей и руководствоваться анализами яиц в фекалиях и ветеринарным советом. Смена препаратов для дегельминтизации и правильное управление пастбищами могут помочь предотвратить развитие устойчивости паразитов к препаратам.

Заключение. Основной задачей коневодства является дальнейшее увеличение поголовья лошадей, повышение продуктивности и снижение себестоимости, развитием прочной кормовой базы и с проведением ветеринарных мероприятий по ликвидации потерь животных от различных болезней, в частности, вызываемых гельминтами.

В ходе проведенных исследований было установлено, что власоеды лошадей имеют широкое распространение в республике, зараженность власоедами у взрослых лошадей и жеребят составляет большое количество с поголовья. Возникновение и развитие эктопаразитов у лошадей и их распространение связаны с действием различных причин биотического характера. Среди них определили в первую очередь истощенность животных, затем, из-за образования наледи в зимний период, недостаточность подножного корма, плохое качество сена, отсутствие дополнительной подкормки овсом. Во-вторых, поздняя зима, в начале ноября были дожди, и выпавший на зиму снег

растаял, а также приход ранней весны, в середине и конце марта были плюсовые показатели температуры воздуха (+10–12ºС), поэтому наблюдали раннее таяние снега, что способствовало наводнение и грязи пастбищ. Отсюда вспышка распространения эктопаразитов – власоедов Trichodectes pilosus – у лошадей. В хозяйствах нами было рекомендовано проводить постоянные ветеринарно-паразитарные обследования лошадей, а также предпринять своевременную профилактику и лечение паразитов, изоляцию зараженных власоедами лошадей во избежание распространения данного паразита у лошадей других коневодческих хозяйств.

Список использованных литературы:

1. В. А. Большакова Нематодозы пищеварительного канала лошадей республики Саха (Якутия) и усовершенствование мер борьбы с ними: автореф. дис. … канд. вет. наук / В. А. Большакова. – М. , – 1998. – 25 с.

2. Л. Ю. Гаврильева Основные стронгилятозы лошадей табунного содержания и мероприятия по борьбе с ними: автореф. дис. …канд. вет. наук. – Москва, 2014 – 14 с.

3. С. И. Исаков Гельминтозы лошадей в условиях косячно-табунного содержания и терапия этих заболеваний // Вредные насекомые и гельминтозы Якутии: Сб. ин-та биологии Якутск. Филиала СО АН СССР. – Якутск, 1971. – С. 109 – 115.

4. Л. М. Коколова Применение антигельминтных препаратов против гельминтозов и оводовых инвазий у табунных лошадей в Якутии/ С. И. Исаков, Л. М. Коколова, Л. А. Верховцева, В. П. Григорьев// Сб. научн. тр. «Достижение науки в производстве». – Якутск, 2000. – С. 122–125.

5. Kochkarovich, Boliyev Shavkat, Sulaymanova Nafisa Abdimuminovna, and Botyrova Zamira Rajaboyevna. "Episootology, Treatment and Prevention of Lerneosis of Fish. " *Journal of Advanced Zoology* 44 (2023).

6. А. А. . ru Стекольников, Г. Г. Щербаков, Г. М. Андреев. 2022 - elibrary

Рекомендовано Учебно-методическим объединением ВУЗов РФ по образованию в области зоотехнии и ветеринарии в качестве уч. пособия для студентов ВУЗов.

7. Э. Робинсон, М. Уилсон: «Болезни лошадей. Современные методы лечения» 2007 г. Подробнее: https://www. labirint. ru/books/359275/

8. И. С. Андреевский. , «Книга болезнях лошадей», Энциклопедия конника 2020 г.

9. А. А. Стекольников, А. Ф. Кузнецов, В. Б. Галецкий: «Уход и болезни лошадей». Учебное пособие для СПО Подробнее: https://www. labirint. ru/books/776951/ **Лань**, 2023 г.

STRUCTURAL CLASSES OF VERBS IN ENGLISH AND UZBEK

Oysara Mansurova Namoz qizi
Student of the Navoi State Pedagogical Institute, English Language and literature department

Nilufar Bafoyeva Salimovna
Navoi State Pedagogical Institute. The teacher of English and literature department
Email: oysaramansurova2002@gmail. com

6) modal frazeologizmlar: das kann der zehnte nicht! "hamma ham qila olmaydi!", dreimal darfst du raten! " harakat qilib koʻring - taxmin qiling!". Eng boy va eng samarali, shuningdek, tuproq materialida strukturaviy jihatdan koʻproq yoki kamroq bir xil turdagi birinchi uch guruhning grammatik tuzilishi. . Grammatik tuzilishiga koʻra frazeologik birliklarni soʻz birikmalari (masalan, der lachende Dritte " kulib turgan uchinchi (ikki raqib kurashidan foyda koʻrgan uchinchi shaxs haqida), predikativ birikmalar) deb tasniflaymiz. Tahlil shuni koʻrsatdiki, jumlalarga tuzilishi jihatidan mos keladigan barcha frazeologik birliklar ham gap emas, ya'ni. mustaqil lingvistik birliklar. Ular orasida ikkita kichik guruh mavjud: nominativ, ma'lum bir hodisani nomlash, frazeologik birliklar (koʻpincha soʻzlarning ekvivalentlari) va kommunikativ (aniq xabarni uzatish). Kommunikativ frazeologik birliklar orasida ikkita kichik guruh aniqlandi:1) frazeologik birliklar kiradi, ular har xil soʻzlashuv maishiy nutq uchun oʻziga xos soʻzlar (naqllar): masalan. *Nun schlägtning (aber) dreizehn!* "bu juda koʻp". 2) aforistik xarakterdagi kommunikativ frazeologik burilishlar (maqol va soʻzlar) *Man kann nicht auf zwei Hochzeiten tanzen* "siz raqsga tusha olmaysiz. bir vaqtning oʻzida ikkita toʻy", *Ein Frieden ist besser als zehn Siege* "yaxshi urushdan yomon tinchlik yaxshiroqdir", *Eins, aber es ist ein Löwe* "bir sher", *Er ist nicht mit vier Pferden fon derh Stelle zu bringen* "Siz uni hech qanday kuch bilan harakatga keltira olmaysiz. " Stilistik tabaqalanish (ekspressiv va stilistik xususiyatlar) nuqtai nazaridan ushbu asarda soʻzlashuv maishiy va kitob frazeologik burilishlarini ajratib koʻrsatish mumkin.

Raqamli otlar frazeologizmlarning shakllanishida faol ishtirok etadi. Raqamlar ramziy yoki madaniy ma'noning tashuvchi boʻlishi mumkin buni pastda berib

o´tilgan misollar orqali xam ko´rish mumkin, bu ularning frazeologik birliklarda qo‘llanishni, shuningdek, ayrim frazeologizmlarning milliy til rasmidagi rolini tushuntiradi.

Nol raqamlar orasida juda aniq pozitsiyaga ega. Qadimgi misrliklar ham, yunonlar ham, rimliklar ham nolni bilishmagan. Mayyaliklar orasida nol boshlanishidan oldin u erda bo‘lgan kelib chiqishi xudosining ramzi hisoblangan. Nol bo‘shliq, yo‘qlik va tartibsizlikni anglatadi. Geothening ranglar nazariyasida: "Ein brechend Mittel, in welchem die Farbescheinungen. . . völlig zu null werden könnten" rang hodisalari butunlay nolga aylanishi mumkin bo‘lgan buzilish muhiti" deya tariflngan.

Von lauter Nullen regiert werden, Da oben sitzen doch nur lauter Nullen qobiliyatsiz odamlardan boshqa hech narsa munosabat bildirmaydi, shuningdek: u erda o‘tirish uchun hech narsa yo‘q, shikoyatlar oshkor bo‘lganda, shoshilinch zarur bo‘lgan chora topilmasa, siyosatchilar va menejerlar tanqidiy yoki iste’fo bilan aytadilar.

Null-acht-fünfzehn nol sakkiz o‘n besh: odatiy tarix, eskirgan narsa. Dastlab 1908 yilda taqdim etilgan va 1915 yilda takomillashtirilgan pulemyotning nomini nazarda tutgan holda sotilgan. Ikkinchi Jahon urushi davrida bu nom ommaviy ishlab chiqarilgan eskirgan ob’ektlarga va umuman takrorlangan barcha narsalarga berilgan.

Null-Null ushbu frazeologizm hojatxonani bildiradi (mehmonxonadagi xona sifatida hisoblanmaydigan xona sifatida, shuning uchun uning raqami yo‘q, lekin "00"). "Null Bock auf nichts" (hech narsaga pul yo´q) hatto Junge Union (Spiegel) ning saylov shiori bo‘lib xizmat qildi. [4]

Eng ko‘p sonli guruh "bir" son komponentli frazeologizmlardir. Topilgan bir soni bilan qo´llanilgan frazeologizmlarning qiymatlari xilma-xildir. Misol uchun *mir ist alles eins* (men uchun hamma narsa bitta) neytral frazeologizmlar va ushbu frazeologizm grammatik jihatdan olmosh, son, ravish va fe´l so´z turkumlaridan tashkil topgan birlikdir. *j-m eins auf (vor) die Birne geben* (nokda (oldin) j-m birini bering) hissiy rangdagi frazeologizmlarni xam uchratish mumkin va grammatik jihatdan son, olmosh, ot, fe´l va predloglardan tashkil topgan. Bir raqami bilan qo´llanilgan frazeologizmlarning anglatadigan manosi aytishimiz mumkinki, bu boshlanish, o‘ziga xoslik, birlik, ma’lum bir jamoaning suratini xam anglatib qo´llanilgan frazeologizmlarni uchratishimiz mumkin.

Erst die Arbeit, dann das Vergnügen avval salom so´ngra kalom ushbu son bilan yasalgan frazologizmda tartib soni qatnashgan bo´lib erst – avval manosini bildirib kelgan. [5]

"Ikki" raqami bilan qo´llaniladigan frazeologizmlar. Bu frazeologizmlar nafaqat nemis tilida balki barcha tillarda keng tarqalgan. "Ikki" raqamiga ega frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu deyarli har bir ekvivalent birlikning boshqa ikkinchi tilda majoziy komponent, semantika, sintaksis jihatidan o‘xshashligi borligidir: wie zwei mal zwei ist vier (ikki marta ikki to‘rt bo‘ladi). Grammatik jihatdan ushbu frazeologizm sifat, son va fe´l so´z turkumlaridan tashkil topganini ko´rishimiz mumkin. "Ikki" raqami deyarli hamma joyda duallik sifatida paydo bo‘ladi. Ikki soni bilan qo´llanilgan frazeologizmlarda ikkilanish, noaniqlik ma’nosini beradi: Zwei Seelen in einer Brust, Es sich nicht zweimal sagen lassen kabi misollarni bunga misol qilib olishimiz mumkin. Yuqoridagi misollarda frazeologizm yasalishi uchun son, ot, fe´l so´z turkumlari va predloglar qo´llanilgan.

Niemand kann zwei Herren dienen – bir ishni boshini tutgan ma´qul. Man kann immer nur eine Sache gründlich tun. Mazkur frazeologizmda ikki sanoq soni ko´chma manoda qo´llanilgan. Yani bu frazeologizm orqali shuni ko´rish mumkin bir vaqtning o´zida ikkita ishni qilmasdan bitta asosiysini mukammal qilgan maqul.

Man soll nich zwei Hasen auf einmal jagen bir o´q bilan ikki quyonni urib bo´lmaydi, ikki maqsadga birdaniga erishib bo´lmaydi, ikkita qaziqqa osilgan suvga gárq bo´lar. Ushbu frazeologizm xam yuqoridagi frazeologizmday baravariga ikki ishni qilib bo´lmaslikni bildiradi. [6]

Hisoblash va u bilan birga raqamlar madaniyatning dastlabki bosqichlaridan boshlab odamlarga o‘z muhitini tuzish va tartibga solish imkonini bergan. Hisoblash - bu hayotning deyarli barcha sohalariga singib ketgan juda qadimgi insoniy kognitiv madaniy yutuqlaridan hisoblanadi. Shuningdek ikkilamchi malaka bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan tartiblash funktsiyasi tufayli raqamlarga juda erta alohida ma’no berilgan va alohida raqamlarga maxsus belgilash funksiyalari berilgan. Muqaddas raqamlar yoki ramziy raqamlar buning ifodasidir. Bu, ayniqsa, uch raqamiga va u ko‘p jihatdan ko‘pchilik yevropa madaniyatlariga tegishli. Uch raqami ilk ilg‘or madaniyatlarda allaqachon muqaddas hisoblangan. [7] Xristianlikda bu muqaddas raqam hisoblanadi, uning ramziy ma’nosi ko‘p marta, ayniqsa o‘rta asrlarda aks etgan va shuningdek uch raqami german mifologiyasida xam alohida rol o´ynaydi. Xuddi shu narsa Keltlar hududida ham amal qiladi.

Uch raqamining madaniy-tarixiy ahamiyati uzoq vaqt oldin, ayniqsa yunon-rim antik davrligi nuqtai nazaridan batafsil ko‘rib chiqilgan. Biroq, Usenerning uch raqamining ma’nosi haqiqiy asosga ega emasligi haqidagi fikriga bu yerda amal qilib bo‘lmaydi. [8]

Raqamlarning nafaqat kundalik hayotda, balki maxsus kontekstlarda, shuningdek, diniy sohada ham yuqori darajada dolzarbligi tufayli, raqamlar va son tushunchalari frazeologizmlarga ham kirib kelgan, chunki frazeologizmlar kundalik madaniyatni, insonlarning bilimini, balki ijtimoiy ma'nosini, kundalik sharoitlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Tilning "madaniy xotira" (kulturellem Gedächnis) ma'nosidagi frazeologizmlar ko'pincha tarixiy vaziyatlarni va anaxronistik tushunchalarni ham beradi.

Shuningdek son koponentli frazeologizmlarni boshqa barcha raqamlarda xam ko´rishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni ko´rsatadiki sonli frazeologizmlar asosan noldan bechgacha bo´lgan raqamlar orasida keng tarqalgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda son komponentli frazeologizmlar keng talqinda qo'llanilmoqda bundan tashqari har bir son bilan qo´llanilgan frazeologizm tarkibida sonlar o'ziga xos ma'no ifodalaydi. Bularni biz tepadigi berib o´tilgan misollar orqali ko´rishimiz mumkin. Bundan tashqari bugungi kunda son komponentli frazeologizmlarni o´rganishga qiziqish katta, sabibi shu paytga qadar sonli frazeologizmlar olimlardan tomonidan keng ko´lamda taxlil qilinmagan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка / Н. М. Шанский – М. : Высшая школа, 1985. стр. 186
2. Чернышева И. И. Фразеология современного немецкого языка / И. И. Чернышева – М. : «Высшая школа», 1970. стр. 199
3. Burger H. Phraseologie / H. Burger – Berlin: Erich Schmidt Verlag GmbH & Co. KG, 2015. S. 241
4. Röhrich L. Lexikon der sprichtwörtlichen Redensarten, Freiburg/Basel/Wien, 2001. S. 1101
5. K. Nasarov, Sch. Imjaminova, N. Tjan „Minimum der deutschen Sprichwörter und Redensarten“ Taschkent 2020. 27 b.
6. K. Nasarov, Sch. Imjaminova, N. Tjan „Minimum der deutschen Sprichwörter und Redensarten“ Taschkent 2020. 49 b
7. Endres F. C. / Schimmel A. , 1996 , Das Mysterium der Zahl. Zahlensymbolik im Kulturvergleich, München. S. 174
8. Epicurea. Ed. Hermannus Usener „Sammlung wissenschaftlicher Commentare“. Stuttgart: Teubner. , 1966. S. 94

МАЪМУРИЙ ОРГАННИНГ, ФУҚАРОЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНИНИНГ, УЛАР МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИ, ҲАРАКАТЛАРИ (ҲАРАКАТСИЗЛИГИ) УСТИДАН ШИКОЯТ ҚИЛИШ ТЎҒРИСИДАГИ ИШЛАР ЮЗАСИДАН СУД МУҲОКАМАСИНИ ЎТКАЗИШНИНГ АЙРИМ ПРОЦЕССУАЛ ЖИҲАТЛАРИ

Маъмура Атажанова Ботировна
Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги, Судьялар олий мактаби тингловчиси

Аннотация: Ушбу мақола маъмурий органлар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) ва қарорлари бўйича берилган шикоят юзасидан суд муҳокамасининг ўтказишнинг айрим процессуал жиҳатларига бағишланган. Мазкур мақола маъмурий органлар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) ва қарорлари бўйича берилган шикоят юзасидан судда иш юритишни ўзига хос хусусиятлари бўйича тайёрланди.

Калит сўзлар: маъмурий органлар, маъмурий органларнинг мансабдор шахслари, маъмурий судда иш юритиш тушунчаси, маъмурий органлар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) ва қарорлари бўйича берилган шикоят юзасидан судда иш юритишни ўзига хос хусусиятлари.

Annotation: This article is devoted to some procedural aspects of conducting a court hearing on the complaint filed against the actions (inaction) and decisions of the officials of administrative bodies. This article was prepared on the specific features of court proceedings regarding the actions (inaction) and decisions of the officials of administrative bodies.

Key words: administrative bodies, officials of administrative bodies, the concept of proceedings in an administrative court, specific features of court proceedings in connection with complaints filed against the actions (inaction) and decisions of officials of administrative bodies.

Ўзбекистон Республикаси ривожланиш йўлининг энг асосий мезони инсон ҳуқуқ ва манфаатлари олий қадрият ҳисобланувчи ҳар томонлама ривожланган ҳуқуқий демократик барпо этишдир. Мамлакатимиз мустақилликка эришиб, асосий Қонунимиз бўлган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида инсон ва унинг ҳуқуқлари олий қадрият сифатида мустаҳкамлаб қўйилиши билан ҳокимиятнинг мустақил бўғини бўлган суд ҳокимиятига шахснинг ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда манфаатларининг қонуний кафолатини таъминлашдек ўта

муҳим ва шарафли вазифа қўйилди. Конституция ва унинг негизида яратилган пухта қонунлар, шунингдек, мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси ҳокимият институтларини шакллантиришни ва уларнинг тўлақонли фаолият кўрсатишини, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, мулкчиликнинг барча турларини, фуқароларнинг давлат бошқарувидаги фаол иштирокини таъминлади.

Юртимизда инсон ва унинг манфаатлари олий қадрият ҳисобланиб, уларнинг маъмурий органлар билан муносабатларида қонун устуворлигини таъминлаш, суд ҳокимиятини фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминловчи ҳокимиятнинг мустақил тармоғига айлантириш, хусусан мамлакатимиз тарихида янги ташкил этилган маъмурий судлар фаолиятини такомиллаштириш орқали маъмурий органларнинг қонунчиликка қатъий амал қилиши устидан суд назоратини ўрнатиш масалалари бўйича кенг қамровли чора тадбирлар амалга оширилмоқда. Жумладан, адолат ва қонун устуворлигини таъминлаш, давлат органлари ва мансабдор шахсларнинг фаолияти устидан самарали суд назоратини ўрнатиш ҳамда фуқаро ва тадбиркорлик субектларининг одил судловга эришиш даражасини ошириш масалалари 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида белгиланган устувор вазифалардан бири бўлиб, мазкур вазифалар маъмурий суд ишини юритишга оид қонунчиликни янада такомиллаштириш мақсадида бу соҳани тадбиқ этиш долзарб аҳамиятга эгадир.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (2023), Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекси (2018), Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар консепсиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5185-сон (2017), Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Судлар фаолиятини янада такомиллаштириш ва одил судлов самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6034-сон (2020), Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026-йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг — Давлат органлари билан муносабатларда фуқаролар ва тадбиркорлик субектлари ҳуқуқларининг самарали ҳимоя этилишини таъминлаш ҳамда аҳолининг судларга бўлган ишончини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-107-сон Қарори

(2022) ва мавзуга оид бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширади.

Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекснинг 4-моддасига мувофиқ, ҳар қандай манфаатдор шахс ўзининг бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқларини ёхуд қонун билан қўриқланадиган манфаатларини ҳимоя қилиш учун маъмурий судга (судга) мурожаат қилишга ҳақли.

Давлат органлари мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) ва қарорлари юзасидан маъмурий судларга мурожаат қилиш оммавий-ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низолар юзасидан амалга оширилади. Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекснинг 127-моддасига асосан, Суд: манфаатдор шахсларнинг; прокурорнинг; давлат органлари ва бошқа шахслар юридик шахслар ва фуқароларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонун билан қўриқланадиган манфаатларини, жамият ва давлат манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида қонун бўйича судга мурожаат қилиш ҳуқуқига эга бўлган ҳолларда, шу давлат органларининг ва бошқа шахсларнинг аризалари бўйича иш қўзғатади.

Маъмурий судларда, суд муҳокамаси ишни суд муҳокамасига тайёрлаш тўғрисидаги ажрим чиқарилган кундан эътиборан бир ойдан ошмаган муддатда тугалланиши керак. Алоҳида ҳолларда, суд муҳокамасининг муддати суд раиси томонидан бир ойдан ошмаган муддатга узайтирилиши мумкин.

Сайлов комиссиясининг хатти-ҳаракатлари (қарорлари) устидан берилган шикоят суд томонидан шикоят берилган кундан эътиборан уч кундан кечиктирмай кўриб чиқилиши, агар сайловга олти кундан кам вақт қолган бўлса, дарҳол кўриб чиқилиши лозим. Шикоят суд томонидан аризачини ва тегишли сайлов комиссиясининг вакилини, шунингдек, прокурорни, агар шикоят аризачига эмас, балки бошқа фуқарога дахлдор бўлса, ўша шахсни ҳам чақирган ҳолда кўриб чиқилади. Бу шахсларнинг келмаслиги ишни кўриб чиқишга тўсқинлик қилмайди. Суднинг ҳал қилув қарори чиқарилиши биланоқ дарҳол тегишли сайлов комиссиясига ва аризачига топширилади.

Суд мажлиси – маъмурий суд иш юритувининг энг муҳим қисми ҳисобланади. Маъмурий суд ишларини юритишда суднинг фаол иштироки асосида амалга оширилади. Суд ишда иштирок этувчи шахсларнинг тушунтиришлари, аризалари, илтимосномалари, улар томонидан тақдим этилган далиллар ва ишнинг бошқа материаллари билан чекланмасдан

маъмурий ишнинг тўғри ҳал қилиниши учун аҳамиятга эга бўлган барча ҳақиқий ҳолатларни ҳар томонлама, тўлиқ ва холисона текширади.

Суд ўз ташаббуси ёки ишда иштирок этувчи шахсларнинг илтимосномаси бўйича қўшимча далиллар тўплайди, шунингдек маъмурий суд ишларини юритиш вазифаларини ҳал қилишга қаратилган бошқа ҳаракатларни бажаради. Ишда иштирок этувчи шахслар ишнинг ҳақиқий ҳолатларини текширишда ва далилларни тўплашда судга кўмаклашиши шарт.

Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодексга асосан, судларда ишлар муҳокамаси ошкора ўтказилади. Давлат сирини ёки қонун билан қўриқланадиган бошқа сирни сақлаш зарур бўлган тақдирда, ишни ёпиқ суд мажлисида эшитишга йўл қўйилади. Ишни ёпиқ мажлисда видеоконференцалоқа режимида эшитишга йўл қўйилмайди, бундай мажлиснинг аудио ва видеоёзуви эса амалга оширилмайди. Эшитиш ёпиқ суд мажлисида ўтказилган тақдирда, ишни электрон шаклда шакллантиришга йўл қўйилмайди. Ишни ёпиқ суд мажлисида муҳокама қилиш тўғрисида ажрим чиқарилади. Суднинг ҳал қилув қарори барча ҳолларда ошкора ўқиб эшиттирилади.

Маъмурий органларнинг низолашаётган ҳужжатларини ҳақиқий эмас деб топиш тўғрисидаги низолар кўрилганда, ушбу ҳужжатларнинг қабул қилинишига асос бўлган ҳолатларни исботлаш мажбурияти ҳужжатни қабул қилган орган зиммасида бўлади.

Мансабдор шахсларнинг ҳаракатларини (ҳаракатсизлигини) қонунга хилоф, деб топиш тўғрисидаги низолар кўрилганда, ушбу ҳаракатларнинг (ҳаракатсизликнинг) қонунга мувофиқлигини исботлаш мажбурияти тегишли давлат органи ёки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи зиммасида бўлади.

Агар ҳужжатни қабул қилган орган унинг қабул қилинишига асос бўлган ҳолатларни, шунингдек, қабул қилинган ҳужжатнинг ёки содир этилган ҳаракатнинг (ҳаракатсизликнинг) қонун ҳужжатларига мувофиқлигини, аризачининг ҳуқуқлари ва қонун билан қўриқланадиган манфаатларини бузмаслигини исботлай олмаса, ариза қаноатлантирилади.

Маъмурий органнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органининг, улар мансабдор шахсларининг қарори, ҳаракати (ҳаракатсизлиги) устидан ариза (шикоят) манфаатдор шахсга ўзининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари бузилганлиги тўғрисида маълум бўлган пайтдан эътиборан олти ой ичида судга берилиши мумкин. Давлат ижрочисининг қарорини ҳақиқий

эмас, ҳаракатларини (ҳаракатсизлигини) қонунга хилоф деб топиш тўғрисидаги ариза (шикоят) манфаатдор шахсга ўзининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари бузилганлиги тўғрисида маълум бўлган пайтдан эътиборан ўн кун ичида судга берилиши мумкин. Ариза (шикоят) беришнинг узрли сабабга кўра ўтказиб юборилган муддати суд томонидан тикланиши мумкин.

Ҳозирда мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳатлар маъмурий органларининг ҳамда фуқаролар ва юридик шахсларнинг қонунларга оғишмай риоя этиш борасидаги масъулиятини янада ошириш, қонун устуворлигини юксак даражада таъминлашга қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 2023 йил.
2. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекси.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2019 йил 24 декабрдаги “Маъмурий органлар ва улар мансабдор шахсларининг қарорлари, ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан шикоят қилиш тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш бўйича суд амалиёти ҳақида”ги 24-сонли қарори.
4. "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 25 январь Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида 2022-йил 28-январдаги ПФ-60-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29. 01. 2022-й. , 06/22/60/0082-сон.
5. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. -Т. : —Адолат, 2009-й.

SO‘FIZODA IJODIDA DAVR VA SHAXS RUHIYATI TAVSIFI

Gulnavoz Mamadaliyeva
Namangan davlat universiteti o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammadsharif So‘fizoda ijodidagi davr va shaxs ruhiyati tasviri haqida fikr yuritiladi. Shoirning ushbu davr adabiyotida o‘rni, she’riyati va uning mavzu ko‘lami, so‘z qo‘llash mahoratiga duch kelasiz. Shuningek, So‘fizodaning ma’rifat jarchisi ekanligiga guvoh bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: ilm-ma’rifat, jadidchilik, erk, ozodlik, adolat, insof, diyonat, ruhiyat, ozodlik.

Milliy istiqlol sharofati tufayli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayoni ijtimoiy hayotning barcha yo‘nalishlarida o‘z aksini topmoqda. Bunda xalqimizning asriy ma’naviy qadryatlarini tiklash, uzoq va yaqin o‘tmishdagi badiiy merosni o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shaksiz, o‘zbek adabiyoti tarixining har bir davriga oid adiblarning badiiy merosini an’anaviylik, o‘ziga xoslik va individual tarafdan o‘rganish zamon talabidir. Bugungi kunda adabiy merosga bo‘lgan e’tibor kuchayganligi sababli tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa milliy qadriyatlarimiz va tariximizni bilishga bosh omil sanaladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi davrning mavjud tuzum tug‘dirgan nohaqlik, adolatsizliklari shoirlar qalbini tug‘yonga keltirgan. Muhammadsharif So‘fizoda o‘sha davr voqealarini, nohaqlikni ochiq-oydin tasvirlab, hajviyalari bilan Vatanda ro‘y berayotgan fojialarni qalamga oldi. Xalqqa va’da qilingan erk va ro‘shnolikni ko‘rmagan shoir o‘tkir tanqidiy she’rlar yoza boshlaydi. Shoirning erk, ozodlik, adolat, insof, diyonat kabi o‘lmas mavzulardagi ijodi xalq ruhiyati kamolotiga ta’sir etadi.

Masalan, So‘fizoda she’rlaridan birida:

Muallimni quvib, maktabni yopgan chustiylar, bizlar,
Berib pora, pristavlarni topgan chustiylar, bizlar.

deya, haqiqat uchun kurashadi. Kinoya va qochirimlarga boy ushbu she’rda, bitta shahar aholisi misolida butun Turkistondagi vaziyat tasvirlangan. Davrdagi bunday noodillik, haqiqatsizlik kabi salbiy hollarni So‘fizoda jur’atkorlik bilan fosh qildi va ularga qarshi nafrat uyg‘ota oldi.

Ushbu davr voqealari Muqimiy qalamida esa quyidagicha bayon etilgan:

Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshiyoni zog‘lar.

Ushbu parchada shoir zamonaning adolatsizligidan ranjib, hamma o‘ziga qulay makonda bo‘lishini bulbul misolida ifodalaydi. Bilamiz ko‘plab asarlarda bulbul o‘z erkinligini har qanday go‘zallikdan ustun qo‘ygan qush misolida uchraydi. Masalan, ulug‘ mutafakkirimiz Alisher Navoiy ham o‘z ijod namunanasida tutqun shaxs ruhiyati bilan bog‘liq quyidagi misralarni keltirib o‘tgan:

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg‘a tikondek oshyon bo‘lmas emish.

Zamonasidagi insofsizliklarni o‘z asarida yoritgan ma’rifatvarlardan biri Is’hoqxon Ibrat ham ayollar huquqini, erkini himoya qilgan:

Alhol muhtasib yo‘q, bir-ikki qilsa ul do‘q,
Ichkuga xalq rog‘ib, doim fiyon bo‘lubtur.
Mahbuba naqshxonlar, ko‘zi qaro juvonlar
Gastinsalarda yurub, sarfi ziyon bo‘lubtur.

Shoirning ushbu she’rida xalqning og‘ir hayoti, mustamlakachilarning kirdikorlari aniq ifoda etilgan.

Jadidlarning yana mushtarak maqsadlaridan biri xalqni ilm-ma’rifatli qilish va omma orasida keng targ‘ib qilishdir. Bu yo‘lda har qanday ta’qiblardan, tahdidlardan cho‘chimay, dadil harakat qilgan So‘fizoda yangi-yangi maktablar ochib, xalq farzandlarini ilm dargohlariga jalb eta boshlaydi. Jadid shoirlarimiz o‘zlari ochgn maktablari uchun darsliklar ham yaratishgan, xalqni g‘aflatdan uyg‘otuvchi, ma’rifat chaqirig‘i bo‘lgan ijod namunalarini yaratganlar. Bunga misol qilib, So‘fizaning o‘zi tug‘ilib o‘sgan Chust shahrida yangi usul maktabini ochgani bunda muhim omil bo‘ldi. U maktab tepasiga “Men ul bo‘yoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chappalarni o‘n ikki oyda oq qilaman” deb yozib qo‘yganiga tarix guvohdir.

Shuningdek, So‘fizodaning ma’rifatchilikni targ‘ib qiluvchi bir qator ijod namunalari mavjud bo‘lib, “O‘qing onalar”, “Gazet to‘g‘risida”, “Quvdi meni johillar” kabi she’rlari shular jumlasidandir.

Bu kabi mazmundagi asarlarni Hamza Hakimzoda, Muqimiy, Sirojiddin Sidqiy, Tavallo, Abdulla Avloniy, Ibrat va boshqa ko‘plab bu davr adabiyoti vakillari ijodida ko‘rishimiz mumkin. Hamzaning “Atir gul”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”,

“Yashil gul” kabi to‘plamlarida ilm-ma’rifatga chaqiriq g‘oyasi bosh o‘rinda turadi. So‘fizoda ham aql va bilim sohibi dilbar ayol qiyofasini chizishga va ayollarning o‘rni ma’rifat yo‘lida qanchalik muhim ekanligini tushuntirishga urindi. Bu kabi harakatlar So‘fizodaning milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotidagi o‘z o‘rnini ko‘rsata oladi.

Erk va ozodlikni har narsadan ustun tutgan Abdulla Avloniy unga olib boradigan yo‘l ma’rifat ekanligini isbotlaydi::

Ilm-u donish yaxshi ziynatdur xotin-qiz ahlina,
Qo‘y qadam ilm uyina, tumoru marjonni unut.

U xalqi uchun ozgina bo‘lsa ham foydasi tegishini istagan kishini ma’rifatga chorlaydi. Uning obrazli ifodasiga ko‘ra, ilm bamisoli bodom ichidagi mag‘iz. Uni qo‘lga kiritish uchun mehnat qilish, chaqib po‘chog‘idan ajratib olish kerak.

Jadidchilik – millatparvarlik harakati faollaridan bo‘lgan Ibrat millat kelajagi, ravnaqini ilmli kishilar ko‘payishida ko‘radi. “Agar bu vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaqqufsiz va taraddudsiz eski maktabalarimiz asoslaridan yiqib, joylariga tartib va taraddudsiz eski maktabblarimiz asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilan yangi usul domlalarning himoyasida bo‘lgan maktabla rva’z etmak lozimdur”, – deb yozadi “Turkiston viloyatining gazeti”da. Bunga qarshi bo‘lgan kishilar bilan gazeta orqali oshkora va dadil munozaraga kirishadi. Ibrat uqtiradiki, “Maktab bo‘lmasa, bu olamda madaniyat joriy bo‘lmaydi… Dunyo ishi uchun ilm kerak, ilm!”

Is’hoqxon Ibratning quyidagi misrasini ma’rifatga chaqiriq sifatida ko‘rishimiz mumkin:

O‘qing ilmu hikmat, sizga bu ish katta ibratdur,
Agar ilm o‘rganursiz, barcha ishda sizga nusratdur.

Agar ilm o‘lmasa, nodon umri barcha kulfatdur,
Bu ashyoyi jadidi mubaddali asli hikmatdur…

So‘fizoda xotin-qizlardagi go‘zallikni ma’naviy go‘zallik bilan uyg‘un holda bo‘lishini orzu qiladi. Ayollarni ma’rifat nuri bilan ham shu’la taratishlarini istaydi, ularni shunga da’vat etadi:

Xonim, suyukli soching vor, na sud shonasi yo‘q,

Ochib desam so‘zimi ma’rifat nishonasi yo‘q.

Hilola bengzar u qoshlarki, sendavor anjaq,
Ziyosi millat uchun partavi maxonasi yo‘q.

Shoir millat ayollarini ilm-ma’rifatli bo‘lishga chaqiradi, xalq, millat, vatan taraqqiyoti uchun qayg‘uradi:

Jahon jamilasi o‘lsun adiba o‘lmasa,
Demak, o‘lur u qizning ziynati zamonasi yo‘q.
Nasl taassuf edilmas shu holda, oy qizlar,
Vatanni xalqlarini ma’rifatli onasi yo‘q.

Shoir jafokash el ahvoliga razm soladi. Umri cho‘rilik bilan o‘tayotgam ma’suma qizlar, sho‘rpeshona onalar, och-nahor va yupun kiyingan bolalar uni iztirobga soladi.

Shoirning 1910-yillar she’riyatida zulmatga chulg‘angan Vatan tashvishlari turadi:

Vatan holindan o‘tru ko‘zlarim saqfinda qon og‘lar,
Na yolg‘iz ko‘zlarim majruh o‘lan jismimda jon og‘lar.

Yozuq oliy Vatan o‘ksiz kabi bir holda dushmushkim,
Agar tahrir etarsan, xomai mo‘jiz bayon og‘lar.

Shoir Muhammadsharif So‘fizoda o‘zbek hajviyoti rivojiga hissa qo‘shgan, satira va yumorlari xalqchilligi bilan ajralib turadigan, adabiyot tarixida muayyan o‘ringa ega bo‘lgan ijodkor sifatida ulkan va lirik iste’dod egasi. Masalan, “O‘qing, onalar” deb nomlangan she’rida ma’rifatdan uzoqda savodsiz, omi bo‘lib qolayotgan ayollarning huquqini himoya qilgan holda ilm o‘rganishga chaqiradi:

Dod o‘shal olami ruhonidan,
Qildi maishat fuqaro qonidan,
Hurmi edi dini aziz jonidan,
Millat uchun kechmadi o‘z qonidan,
Qumri bilan bulbul-u bedonalar,
Yaxshi o‘qir, siz ham o‘qing, onalar

She’rning dastlabki misralarida davr ayolining holiga achinish hissi mavjud. Baxti qaroligidan peshonasi sho‘r bo‘lgan ayollarning xonlarning cho‘risiga aylangani, qadrsizlangani ko‘rsatilgan, bu holatdan afsus-nadomat chekadi.

Qushlar jahon xalqlar mifologiyasida katta ahamiyatga ega bo‘lib, voqealar jarayonida birdaniga paydo bo‘luvchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin o‘zgartiruvchi unsur sifatida e’tirof etiladi. Ular, asosan, ilohiyot bilan odamlarning o‘rtasidagi ko‘prik sifatida, yuksaklik va osmon ramzi timsolida talqin qilingan.

Qushlar timsoli boshqa ko‘pgina xalqlar singari turkiy xalqlar mifologiyasida ham ilohiy olam bilan muloqot qiluvchi vosita sifatida ifodalangan. Tasavvuf adabiyotida qush timsoli Tangrisini izlayotgan solik(ning ko‘ngli yoki ruhi) shaklida qabul qilinadi.

Qumri ham mumtoz adabiyotimizda sayroqi qush sifatida tasvirlanadi. Bulbul esa Sharq adabiyotida “oshiq” ramzida kelishi nafaqat adabiyotshunoslarga, balki barcha she’riyat muxlislariga ma’lum. Bedana ham insonlarga zavq beruvchi, ovozi yoqimli qushdir. She’rda nomi tilga olingan qushlar obrazi ramziy ma’noda inson xarakterini ifodalagan.

So‘fizoda ushbu she’rda “qumri”, “bulbul”, “bedana”larning ham yaxshi o‘qiyotganini nazarda tutgan holda mustamlaka yurtda o‘z huquqini bilmay yurgan o‘zbek ayoli ana shu “qumri”, “bulbul”, “bedona”larga qul bo‘lib qolishidan tashvishlanadi. Onalar ilmli bo‘lsa, oilada tarbiya topayotgan farzandlar dunyoqarashi ham, fitrati va siyrati ham ijobiy tomonga o‘zgaradi. Xalqining ziyoli bo‘lishini xohlagan, orzu qilgan shoir musaddasning har oxirgi misralarida onalarni o‘qishga chaqirmoqda:

Bir qarangiz yerda ko‘kargan giyoh,
Sizga qilur har biri etib nigoh,
Lola kulib, tag‘in kular oymu moh,
Umr aziz, joro turib etdi oh,
Qumri bilan bulbul-u bedonalar,
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar.

Quyidagi misrada esa, ayollarni islom dunyosining bonulari, o‘zbek xalqining qorako‘zlari deya go‘zal ta’riflar orqali ifodalaydi. She’rda ushbu tuzumdan norozilik g‘azabi bir kuni quloqlarni kar qilish darajasigacha yetishi va faqat buning davosi ilm-ma’rifat ekanini uqtiradi:

Millati islomiyaning bonusi,
O‘zbek elining qorako‘z ohusi.
Kar qilur bir kun jahl og‘usi,
Ilm-u amal ushbu kasal dorusi.
Qumri bilan bulbul-u bedonalar,
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar

So‘fizoda nega aynan onalarni ilm-ma’rifatli bo‘lishga undamoqda? Hozirgi zamon tibbiyoti bola tarbiyasini ona qornidan boshlash kerakligini uqtiradi. Zero, ziyoli onadan, ziyoli farzand dunyoga keladi. Uzoqni ko‘ra olgan So‘fizoda onalar uchun ham, farzandlar uchun ham eng ma’qul yo‘l ilm olish ekanini, jamiyat hayotida onalar o‘z o‘rniga ega bo‘lmog‘i lozimligini har bir band oxirida qayta-qayta ta’kidlaydi. Ma’rifat egalari qancha ko‘p bo‘lsa, jamiyat ham tez taraqqiy etadi degan g‘oyani ilgari surgan shoir ma’naviyat va ma’rifat bobida butun millatning estetik tafakkuri rivojiga hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳожиаҳмедов А. Аруз луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 4
2. Husaynxon O. Muhammadsharif So‘fizoda. – Namamangan: Namangan nashriyoti, 2007. – 110 b.
3. Qosimov B, Axmedov S, Dolimov U. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 229 b.

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA MEDIASAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Mahfuza Usanova Karamat qizi
Termiz davlat Pedagogika instituti, Pedagogika nazariyasi va tarixi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘rta maktab o‘quvchilarida media savodxonligini shakllantirishning asosiy yondashuvlari va usullari muhokama qilinadi. Turli xil ta’lim strategiyalari va dasturlarining samaradorligini o‘rganish natijalari tahlil qilinadi. Media ta’limni maktab o‘quv dasturlariga integratsiya qilish muammolari va imkoniyatlari muhokama qilinadi. Maktab ta’limi tizimiga media savodxonligini joriy etishning eng istiqbolli usullari to‘g‘risida xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: media savodxonligi, media ta’limi, media, OAV, media matn, media ta’lim, media o‘rganish, media savodxonlik, media makon.

Аннотация. В данной статье выделено понятие медиаграмотности, а также проведен сравнительный анализ определений, данных этому понятию известными учеными. Кроме того, приведены научно-теоретические взгляды на необходимость и значение медиаграмотности в обществе. В ходе нашего анализа широко обсуждались термины медиаобразование, медиаобучение и медиаграмотность.

Ключевые слова: медиа, СМИ, медиатекст, медиаобразование, медиаобучение, медиаграмотность, медиапространство.

Abstract. In this article, the concept of media literacy is highlighted, and the definitions given to this concept by well-known scientists are comparatively analyzed. In addition, scientific theoretical views on the necessity and importance of media literacy in society are given. In the course of our analysis, the terms media education, media learning, and media literacy were widely discussed.

Keywords: media, media, media text, media education, media learning, media literacy, media space.

INTRODUCTION

Media savodxonlik - odamlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko‘nikmalar to‘plami hisoblanadi.

Media savodxonlik iste’molchilarga axborot va ommaviy dasturlarda tashviqot, senzurayoki biron vaziyatni faqat bir tomondan ko‘rsatish kabi holatlarga ommaviy

axborot vositalarini nima majbur qilayotganligini tahlil qilish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining egasi, ularning moliyalashtirish modeli kabi tarkibiy elementlarni tushunish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik - bu tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo‘llay olish qobiliyatidir.

MATERIALS AND METHODS. Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta’sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o‘yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko‘rishimizga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, bu ta’sir ko‘pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste’molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko‘nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo‘ladi. Bu ko‘nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o‘zi ishlab chiqarish kiradi. Media savodxonligi ko‘nikmalarini o‘rganishning ushbu jarayoni media ta’lim deb atladi.

UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta’limni targ‘ib qilish madaniy-ma’rifiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etildi hamda aynan shu yo‘l bilan media savodxonlikni oshirish mumkinligi takidlandi. UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to‘g‘ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va media savodxonlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Tashkilot, ayniqsa, siyosatchilar, o‘qituvchilar, ommaviy axborot vositalari mutaxassislari, yoshlar tashkilotlari va ushbu sohadagi nochor aholi qatlamlarining salohiyatini oshirishga intiladi, a’zo davlatlarga milliy ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi siyosati va strategiyalarini shakllantirishda yordam beradi.

Media savodxonlikni o‘rganadigan eng qadimgi tashkilot bu National Telemedia Council (Milliy Telemedia Kengashi) Viskonsin shtatining Madison shahrida joylashgan va Marieli Rou 50 yildan ortiq rahbarlik qilgan. Tashkilot dastlab „Telemedium“ deb nomlanuvchi media savodxonlik jurnalini nashr ettirgan. Bugungi kunda Media savodxonlik bo‘yicha butun dunyo mamlakatlarida keng targ‘ibot va tashqivot olib borilmoqda.

O‘z qadriyat va ananalariga ega bo‘lgan Osiyo mamlakatlarida media savodxonlik va uning ta’limga kirib kelishi jarayoni G‘arb mamlakatlarinikidan biroz farq qiladi. O‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab Sharqiy Osiyoda media savodxonlik tomon siljish kuzatildi. So‘nggi yillarda Osiyoda media savodxonlik darajasi o‘sib bormoqda va Osiyo-tinch okeani mintaqasida media savodxonlik bo‘yicha bir nechta

dasturlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab 10-11-sinf o‘quvchilarining „Tarbiya“ darsligiga „Media savodxonlik“ bo‘limi kiritildi.

RESULTS

So‘nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma’lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko‘payishi media savodxonlikka ega bo‘lish zaruratini yanada oshirdi. An’anaviy tarzda media savodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo‘lgan. Bugun media savodxonlik -axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Media savodxon inson o‘ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savolni bera olishi va to‘g‘ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko‘rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko‘rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir. Bugungi axboriy muhitni tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘sh, mediasavodxonlik nima uchun kerak? Avvalo Huquqiy demokratik jamiyatimizning to‘laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish;

. OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini shakllantirish;

. Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo‘l qo‘ymaslik va har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish;

. Insonning vizual obrazlar ta’siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko‘rinmas ma’lumotlarni “o‘qiy olish”;

. OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;

. Axborot qaerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o‘zida aks etayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir.

Media savodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo‘lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro entsiklopediyasida qayd etilishicha, «Media savodxonlik» (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas’uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo‘lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil

eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

Londonning Qirollik universiteti professori S. Fayrstounning fikriga ko‘ra esa, media savodxonlik harakat bo‘lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat. Ingliz siyosatshunosi R. Kibey esa media savodxonlikni turli xil shakllarda ma’lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M. Guetterz esa multimedia savodxonligi o‘z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, mediamatnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi.

Fikrimizcha, media savodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir. Media savodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste’mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga OAV hamda fuqarolik jurnalistika rolini tushunishga yordam berishdir.

Taniqli hind fotojurnalisti Pabak Sarkarning fikriga ko‘ra, mediasavodxonlik sari tashlangan ilk qadam, bu to‘g‘ri savol bera olishdir. Bugungi kunda Internet orqali amalga oshirilayotgan axboriy xurujlar dunyodagi har bir mamlakat milliy xavfsizligi strategiyasining bir qismiga aylandi va u kiberxavfsizlik nomini oldi. Zero, virtual va haqiqiy dunyoning qo‘shilishi, aynan virtual dunyo orqali yoshlar tomonidan haqiqiy dunyoni noto‘g‘ri tushunilishi, turli xil salbiy kuchlar va oqimlar tomonidan bir qarashda ijobiy ko‘ringan, ammo mohiyatan inson ongiga salbiy ta’sir qiluvchi axborotning tarqatilishi ko‘payib borayotganligi hech kimga sir emas. Aynan jamiyat hayotiga ta’sir etuvchi mazkur salbiy jihatlarning oldini olishda aholini mediasavodli qilish zarur, degan fikrlar ko‘paymoqda.

Hozirda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya’ni mediasavodxonlik, mediata’lim, mediani o‘rganish va boshqalar bir- biri bilan bog‘liq bo‘lsa-da olimlar ularni mohiyatan bir-biridan farqlashga urinmoqdalar. Fikrimizcha, mediasavodxonlik mediata’limning uzviy bog‘liq qismidir. Shu bilan birgalikda uning ko‘rinishlari ko‘paymoqda. Bugungi kunda media axborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda media savodxonlik

tushunchasi bilan birgalikda mediata’lim, mediani o‘rganish, mediamadaniyat tushunchalari ham qo‘llanilayotir. Ular bir-biridan farq qiladimi?

Media ta’lim (media education):

– media o‘quv dasturida integrallashgan, fanlararo asosida o‘rganilishini;

– «mediamavzu»ni aniq bir fan doirasida tahlil etilishini;

– amaliy ish va tahlil orqali mediaga tanqidiy yondashishni;

– uning shakli, texnologiyalari, axborotni uzatish usullarini o‘rganishni;

– media agentliklarni, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rolini o‘rganishni;

– talabaning OAV bilan ishlashini;

– tadqiqot faoliyatini;

– medianing til va san’at orqali auditoriyaga ta’sirini o‘rganadi.

Mediani o‘rganish (media studies) o‘z navbatida:

– mediani nazariy jihatdan o‘rganishni;

– mediani qiyosiy jihatdan tahlil etishni;

– uning kontseptual tarkibini;

– mediamatnni tahlil etish va uning yaratilish metodikasini;

– ommaviy kommunikatsiya, kinosan’ati va madaniyatshunoslik fanlarining o‘zaro bog‘liqligini;

– jahon OAVning bir-biriga o‘zaro ta’sirini o‘rganadi.

MUHOKAMA

Media savodxonlik (media literacy) mediani o‘rganish bo‘lib, media ta’limning quyidagi natijalariga asoslanadi va o‘z oldiga:

– medianing shaxs va jamiyatga ta’sirini tushunish;

– ommaviy kommunikatsiya jarayonini anglash;

– mediamatnlarni tushunish va tahlil eta olish;

– media kontekstini tushunish;

– mediamatnlarni yaratish va ularni tahlil etish;

– mediamatnlarni baholashga va ularni saralash vazifalarini qo‘yadi.

Bugungi kunda media, ya’ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san’atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma’lumot inson ongiga o‘zining ma’lum bir ta’sirini o‘tkazib, uning dunyoqarashini o‘zgartirishga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo‘llanilishi va bugungi kunda mediata’lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o‘rganishga bo‘lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va

madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.

XULOSA

Ayni paytda media ta’lim asoslarini har bir ta’lim muassasasiga o‘quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta’lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o‘yinlar shaklida tushuntirish, o‘sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to‘g‘ri qaror qabul qila olishiga asos bo‘ladi.

References:

1. Cynthia Vinney. „Very well mind“. What Is Media Literacy? 2022

2. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. М. : ГУ ВШЭ, 2000.

3. Кириллова Н. Медиакультура: от модерна к постмодерну. М. , 2005.

4. Понимание медиа. М. ; Жуковский, 2003.

5. Sadikovich, H. M. THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE MILITARY SPECIALISTS IN THE UNIVERSITY.

6. Abduqadirov A. A. Media savodxonligi shaxsning media madaniyatini shakllantirish omili sifatida / / Pedagogika. 2018. No 5. 14-18-betlar.

7. Ahmedova L. U. o‘rta maktab o‘quvchilarining media ta’limining integratsiyalashgan modeli / / O‘rta maxsus ta’lim. 2021. No 8. 13-17-betlar.

8. Ibragimov I. F. Zamonaviy maktabda o‘quvchilarning media kompetentsiyasini rivojlantirish strategiyalari / / Zamonaviy ta’lim muammolari. 2022. No 1. 34-40-betlar.

9. Madaminov N. M. O‘rta maktab o‘quvchilari uchun "media savodxonligi asoslari" fakultativ kursi / / O‘zbekiston o‘qituvchisi. 2020. No 3. 12-18-betlar.

BOSHQARUV MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA HARBIY XIZMATCHILARNING ICHKI IMKONIYATLARI

Yo'ldosh Turkmanov Karimovich
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar akademiyasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshqaruv madaniyatini takomillashtirishda harbiy xizmatchilarni ichki imkoniyatlariga bag'ishlangan bo'lib, maqolada harbiy xizmatchilarda boshqaruv madaniyati va harbiy jamoani boshqarishda demokratik boshqaruv tamoyillari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, madaniyat, harbiy, takomillashtirish, imkoniyat, demokratik, tamoyil, erkinlik.

Аннотация: Данная статья посвящена внутренним возможностям военнослужащих в совершенствовании культуры управления, в статье исследуются культура управления военнослужащими и принципы демократического управления в управлении военным коллективом.

Ключевые слова: управление, культура, военные, улучшение, возможности, демократия, принцип, свобода.

Abstract: This article is devoted to the internal capabilities of military personnel in improving the management culture, the article examines the management culture of military personnel and the principles of democratic governance in the management of a military team.

Keywords: governance, culture, military, improvement, opportunities, democracy, principle, freedom.

Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida globallashuv, integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy munosabatlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayni paytda ko'pgina davlatlarda inson hayoti, uning huquq va erkinliklari demokratik qadriyatlar sifatida qaralib, davlat, siyosiy institutlar, xususan, harbiy xizmatchilarni samarali faoliyatining asosiy ko'rsatkichi mezoni ana shu qadriyatlarga qanchalik muvofiqligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan jamiyatning barcha boshqaruv bo'g'inlarida, xususan harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini oshirish dolzarb masala bo'lib, uning ilmiy-falsafiy konsepsiyalarini yaratish amaliy ahamiyatga egadir. [1]

Fanda boshqaruv tushunchasi tizimning o’z hayot faoliyatini ta’minlash jarayoni sifatida tushuniladi. Bunday tizimlar qatoriga biologik, texnik, ijtimoiy tuzilmalar kiradi.

Boshqaruv tuzilma sifatida: boshqaruvchi va boshqariluvchi bo’laklarga ajratiladi. Boshqaruv o’z tasarrufidagi boshqariluvchi bo’lakka muntazam, rejali va maqsadga yo’nalgan tarzdagi ta’sir kuchiga ega. Bunday o’zaro faoliyat tizimning ishchanlik qobiliyatini ta’minlaydi. Boshqaruvdagi tadqiqotlar, kibernetika fani yuzaga kelishi tufayli jadal sur’atlar bilan rivojlanib, murakkab tuzilmani boshqarishning ilmiy asoslangan tavsiyalari amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Boshqaruv bilimlari ko’p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi asosiy manba bo’lib hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomondan, tuzilmaning yaxlitligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi. Shu o’rinda boshqaruvning ikki asosiy funksiyasi farqlanadi: maqsadga yo’naltiruvchi va tashkiliy funksiyalar. Maqsadga yo’naltiruvchi funksiya tuzilmani yanada mukammallashtirish maqsadiga yo’naltiradi. Tashkiliy funksiya esa tuzilmaning maqsadga erishishdagi ichki tartibi va uning turli qismlari o’rtasidagi o’zaro muvofiqlikni ta’minlaydi. [2]

Boshqaruv madaniyati – boshqaruv sohasida muayyan maqsadga erishish yo’lida insoniy salohiyatni ro’yobga chiqarishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar majmui va ularni amalga oshirish jarayoning namoyon bo’lishini anglatuvchi tushuncha. Boshqaruv madaniyati boshqarilayotgan har qanday obyektga nisbatan ishlatiladi. Shuning uchun boshqaruv madaniyatini jamiyatni boshqarishda ham, harbiy bo’linma va muassasalarni boshqarishda ham kuzatishimiz mumkin.

O’z mohiyatiga ko’ra, boshqaruv madaniyati harbiy bo’linma faoliyatida ishtirok etuvchi barcha bo’limlar faoliyatini o’zaro muvofiqlashtirish va harbiy bo’linma miqyosida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish funksiyasini bajaradi. Boshqaruv madaniyati harbiy xizmatchilar faoliyati, maqsad-muddaolari va ularning qadriyatlarini hisobga olgan holda boshqaruvni amalga oshirishdir. Oqilona tarzda tashkil etilgan boshqaruv madaniyati harbiy bo’linmadagi mavjud inson resurslarini jadallashtirish va shu orqali mehnat samaradorligini yanada oshirish imkoniyatini yaratadi. Boshqaruv madaniyatini takomillashtirish orqali muayyan harbiy xizmatchilarning ichki imkoniyatlari – bilimi, tajribasi, ijodiy salohiyati, o’zlarini namoyon etishga intilishi kabi omillarni ro’yobga chiqaradi. Shu ma’noda, boshqaruv madaniyati harbiy bo’linma madaniyati, xulq meyorlari, harbiy xizmatchilar o’rtasida o’zaro muloqotning takomillashuvi, harbiy xizmatga bo’lgan oqilona munosabatning shakllanishiga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining yangi rivojlanish pog‘onalariga

ko’tarilib borishi bilan boshqaruv madaniyati ham davr talabiga mos ravishda mukammallashib boradi.

Shu jihatdan harbiy bo’linma va muassasadagi boshqaruv madaniyati davlat boshqaruvida amal qilayotgan madaniyatning asosiy jihatlarini o’zida aks ettiradi. Boshqaruv madaniyatining asosiy tamoyillarini ishlab chiqishda mazkur jamiyat madaniyatini belgilovchi asosiy omillar, ayniqsa, milliy xususiyatlarni hisobga olish lozim. Bundan tashqari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarni o’zaro muvofiqlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday zarurat harbiy bo’linma va muassasa rivojlanishining asosiy shartidir. Boshqaruv madaniyati ijtimoiy nazorat shakli sifatida mavjud bilimlarni amaliyotga muttasil tatbiq etib borish jarayoni bo’lib, uzluksiz rivojlanish, mukammallashib borish xususiyatiga ega bo’lishi hamda fanning so’nggi yangilik va kashfiyotlarini aks ettirishi lozim. Boshqaruv madaniyatini amalga oshiruvchilar harbiy qism va muassasa boshliqlardir. Zamonaviy komandir va boshliqlarni tayyorlashda ularning ilmiy va madaniy salohiyatini, boshqaruv madaniyatini yanada yuksaltirish eng dolzarb masaladir.

rivoyatlar M. Rizayev, Tojixon opa, U. Hasanov, M. Ziyodulla o‘g‘li, B. Xudoybergan qizi, M. Ollоberganov, Qodir baxshi, Eshmurod baxshi, X. Umarov, Ahamadali ota, N. Qurbonnazarov, S. Qoraboyev, A. Saparov, I. Qodirov, A. Ahmedov, Q. Ahmad o‘g‘li, Bozorboy, N. Saidmurod Panoh o‘g‘li, T. Boboxonov, Ziyodov, T. Boboxonov, A. Karimovlar tomonidan aytilib, Malik Murodov tomonidan yozib olingan. Ayrim asotir va rivoyatlar K. Imomov, Maqsud Shayxzoda. S. Tolstovning kitoblari va „O‘zbek sovet ensiklopediyasi“dan, ayrimlari esa B. Murodov va S. Umarov to‘plagan materiallardan olingan.

Muhokama. "Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"[41], - deya ta’kidlagan prezidentimiz Sh. Mirziyoyev. Bu fikr zamirida boshlang‘ich ta’limda quriladigan tarbiya poydevori yorqin kelajak asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bu davrda beriladigan har qanday bilim bola kelajagiga yo‘l ochib beradi va bunda bolalar adabiyoti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qahramonlarning turli xarakterlari, xatti-harakatlari, tashqi ko‘rinishi, xilma-xil voqea-hodisalarga boy bo‘lgan hikoyalar qiziqarli sanaladi. Bolalar adabiyotining asosiy janrlarida biri hisoblanuvchi rivoyat qahramonlarining ma’naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli hayotning turli oq va qora tomonlari haqida muayyan tushunchalarga ega bo‘ladi. Ularda yaxshilikka nisbatan muhabbat, yomonlikka nisbatan nafrat tushunchalari bir-biridan qiziqarli voqealar negizida shakllanadi.

Natijalar. Rivoyatlar, asosan, g‘oyaviy ma’no jihatdan rang-barangdir. Rivoyatlar negizida yaxshilik, odamiylik, nazokat, aql, sadoqat kabilar ilgari surilsa, zulm, zo‘rlik, adolatsizlik, haqsizlik singari xislatlar qoralanadi.

Rivoyatlar tematikasiga ko‘ra tarixiy va toponimik rivoyatlarga bo‘linadi. [42]

Tarixiy rivoyatlar, asosan, xalq qahramonlari yoki biron shaxs faoliyatiga bag‘ishlangan voqealarga asoslanib yaratiladi va bu turdagi rivoyatlar voqealar

[41] Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatinini birgalikda quramiz. – Toshkent: “ O‘zbekiston”, 2016. – 54-bet
[42] M. Murodov, M. Shayxova (to‘plab nashrga tayyorlovchilar). Asotir va rivoyatlar. – Toshkent: “ Yosh gvardiya”, 1990. – 128-bet.

guvohi bo‘lgan shaxslar tomonidan ko‘rgan-bilganlari asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Biroq, ba’zi tarixiy rivoyatlar hayotiy uydurmalar asosiga qurilib, faqatgina shaxs nomigina saqlanib qoladi. Ko‘pincha tarixiy rivoyatlar yurtining ozodligi uchun jonini fido qilib kurashgan jasoratli shaxslar, xalq manfaati uchun bor kuchi bilan xizmat qilgan kishilar, yaxshilik yo‘lining fidoiy insonlari, mashhur tarixiy alloma, ulamo, sarkardalarga bag‘ishlangandir. O‘zbek xalqi orasida Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy kabi buyuk allomalar haqida yaratilgan o‘nlab hikoyalar saqlanib qolgan. Bunga misol tariqasida Ibn Sinoning betoblar dardiga davo ulashish negizida bir voqea rivoyat qilinadi. Ibn Sino qabul qilayotgan kasallar orasida bir betob yigit tabib tomonida har gal e’tiborsiz qoldirilib ketilaveradi. Yigitning onasi o‘g‘lining yoniga bir kosa qatiq qo‘yib, ishi bilan tashqariga chiqib ketgan kez tomdan kosaga ilon tushib, qatiqga ilon zahri qo‘shiladi va yigit alam ustida bu qatiqni ichadi. Natijada yigit ancha tuzalib, yana Ibn Sino qabuliga borsa, uni yana chetlab o‘tishadi. Bundan norozi bo‘lgan yigit Ibn Sinoga shikoyat qilsa quyidagicha javob beradi:

“Siz kecha va avvalari kelganingizda dardingizga davo yo‘q edi. Shuning uchun sizni ko‘rmagandim. Chunki, men sizga qatiqni to‘shak yoniga qo‘yish, unga ilon zahar solishi, bu qatiqni ichishingiz kerakligini ayta olmas edim. Ammo taqdir sizga bu imkoniyatni yetkazdi. Sizga tabibning keragi yo‘q, szi mutlaqo sog‘siz”[43] – deya qaytargan javoblari Ibn Sinoning naqadar mohir va dono tabib bo‘lganligining yorqin namunasidir. Bu orqali ma’lum bo‘ladiki, qahramonlar tarixiy shaxs, ularning munosabati faktik hodisalarga mos, biroq asar voqealari to‘qima xarakterga ega.

Ikkinchi turdagi, ya’ni toponimik rivoyatlar o‘rin-joy nomi bilan bog‘liq bo‘ladi va bularga yaratilgandan keyin uzoq vaqt o‘tgach yozib olingan rivoyatlar kiradi. Toponimik rivoyatlar uzoq o‘tgan zamonda sodir bo‘lgan voqealar negizida o‘z aksini topadi. Ularda keltirilgan joy nomlari hamisha aniq bo‘lavermaydi. Bu xildagi rivoyatlarni ko‘pincha qadimgi manbalarda uchratishimiz mumkin. Andijon haqidagi quyidagi toponimik rivoyat fikrimiz dalilidir:

Qorabug‘roxon degan podsho bo‘lib, uning o‘zi qashqarda turar ekan. Kunlarning birida u ov qilib yurib, suv bo‘yida qo‘shiq aytib turgan qizni sevib qolibdi. To‘y-tomoshalar bilan unga uylangan kuni urush boshlanib, Qorabug‘roxon urushga jo‘nab ketibti. Bu urushda u g‘olib chiqibdi. Ammo yo‘lda yaralanib, ahvoli og‘irlashibdi. Shunda xon kun chiqish, ya’ni qaylig‘i bor tomonni ko‘rsatib, “Anda jon qoldi, men o‘sha yerga ko‘minglar”, - deb jon beribdi. Vazirlar vasiyatga binoan

[43] Sarimsoqov B. O‘zbek folklorlarining janrlari sostavi. (O‘zbek folklori ocherklari). – Toshkent: “Fan”. 1988.

ko‘rsatilgan joyga ko‘mishibdi. U yer keyinchalik shaharga aylanib “Anda jon, Andijon” bo‘lib ketgan ekan[44].

Bu rivoyatga haqiqatga yaqindek tuyilishi mumkin, aslida esa “Andu” – qabila nomi, “gon” forscha ko‘plik qo‘shimchasi bo‘lib, andularning yig‘ilgan joyi degan ma’noni bildiradi. [45] Vaqtlar o‘tishi bilan Andijon bo‘lib ketgan.

Xulosa. O‘zbek xalq rivoyatlari folklorshunoslikning boshqa janrlari kabi ko‘plab taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan janrlardan biri sanaladi. Sof tarixiy rivoyatlarda xayoliy obrazlar va uydurmalar qatnashmaydi. Tarixiy rivoyatlar xalq tarixining qaysidir shaxsi va qaysidir voqeasining badiiy qarashlari hamda bu shaxs va voqealarning ifodasi bolalar adabiyotining tarbiyaviy tarkibi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Rivoyatlarning aksariyati turli zamonlarda yaratilgan asarlarda keltirib o‘tilgan bo‘lsa, ba’zilari yaqin davrlarda yaratilgan va og‘izdan-og‘izga o‘tib, xalq orasida tarqalgan. Bu rivoyatlarda aniq bir dalil emas, ezgulik, yaxshilik, fidoiylik, muruvvatlilik singari fazilatlar yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatinini birgalikda quramiz. – Toshkent: “ O‘zbekiston”, 2016. – 54-bet
2. M. Murodov, M. Shayxova (to‘plab nashrga tayyorlovchilar). Asotir va rivoyatlar. – Toshkent: “ Yosh gvardiya”, 1990. – 128-bet.
3. Sarimsoqov B. O‘zbek folklorlarining janrlari sostavi. (O‘zbek folklori ocherklari). – Toshkent: “Fan”. 1988.
4. Umarov S. Rivoyat va hayot. – Toshkent: “Sharq”. 1988.
5. Alimov S. Tarixiy-folkloriy jarayon va janrlararo munosabat. – Toshkent: “Fan”. 1993.

[44] Umarov S. Rivoyat va hayot. – Toshkent: “Sharq”. 1988.
[45] Alimov S. Tarixiy-folkloriy jarayon va janrlararo munosabat. – Toshkent: “Fan”. 1993

ROTATION OF OBJECTS IN A GEOGRAPHICAL COORDINATE SYSTEM

Bafo Khaitov Usmonovich
Doctor of Science
Maksud Makhmudov Sheraliyevich,
Scientific researcher
Bukhara engineering-technological institute
xb75@mail. ru

Abstract: The article provides a detailed description of determining the location of objects after rotation, set by geographical coordinates based on latitude and longitude. The solution to this problem contributes to the algorithmizing of determining the latitude and longitude of objects after rotation in Google Maps in real time. Based on this algorithm, the problem of rotating a regular network of source data directly on online Google Maps is solved in order to determine the height values of nodes of a regular network for subsequent digital terrain modeling.

Keywords: geographic coordinate system, latitude, longitude, meridian, rotation, north pole.

The task of rotating objects in a geographical coordinate system is complicated by the fact that the object of rotation has angular coordinates of latitude and longitude, unlike the Cartesian system, which has linear coordinates.

In analytical geometry, the rotation of objects is called the transformation of the coordinate system. The task of converting a coordinate system is that, knowing the coordinates of a point in one system, find its coordinates in another [1] (Fig. 1):

$$\begin{cases} x = x' \cos\alpha - y' \sin\alpha \\ y = x' \sin\alpha + y' \cos\alpha \end{cases} \quad (1)$$




Fig. 1. Transformation of the Cartesian Coordinate System

In the geographical coordinate system, the rotation of objects is complicated by the fact that it is required to pre-determine the coordinates of the latitude and longitude of the object after rotation, which is very problematic [2].

It is known that during rotation, a certain point is selected – the center of rotation, around which all the points of the object rotate. If the object and the center of rotation are set in a geographical coordinate system, therefore, the radius and angle of rotation of each point of the object are known. It is required to determine the latitude and longitude coordinates of each point of the object after rotation.

The formulation of this problem arose when compiling an algorithm for rotating a regular network of initial relief data for the tasks of engineering preparation of territories in Google Maps in real time, which contributes to preliminary and prompt decision-making on the acceptability of the project in a given area [3-5].

If there is a point O, which is the center of rotation, and a point R, which is a point on the rotating object, specified in a geographical coordinate system, located at a northern latitude on the earth's surface (see Fig. 2), then the latitudes and longitudes of points O and R are known.




Fig. 2. The rotation of point R in the geographic coordinate system.

It is known that the meridians on the Earth's surface emanate from the North Pole (in this example, point P). We can form a triangle $\triangle OPR$. Assuming that the latitude of the Northern Hemisphere is measured from the Equator towards the North Pole, we can determine the lengths of the distances *OP* and *RP* to the North Pole.

$$|OP| = \frac{(90°-O_{lat}) \cdot M}{180°}; \quad |PR| = \frac{(90° - R_{lat}) \cdot M}{180°}. \quad (1)$$

Here O_{lat} and R_{lat} are the latitude of the points *O* and *R*;

M is the length of the Earth's meridian 20, 004, 274 m [6].

The perimeter of this triangle is known to us, and in order to rotate point *R* by an angle δ relative to an angle β that is still unknown, it is necessary to determine this unknown angle. To do so, we can use the sine theorem.

$$\frac{|OR|}{\alpha} = \frac{|PR|}{\beta} = \frac{|OP|}{\gamma}. \quad (2)$$

In this equation, the angle α is still unknown, which is defined as:

$$\alpha = R_{long} - O_{long} \quad (3)$$

Here R_{long} and O_{long} is the longitude of the points *R* and *O*.

Based on equation (2), we determine the angle β:

$$\beta = \frac{|PR|\alpha}{|OR|}. (4)$$

Knowing the angle β, we determine the unknown angle δ':

$$\delta' = 180° - (\beta + \delta). (5)$$

Here δ is the angle of rotation of the point R.

After the rotation of point R, a new triangle $\triangle OPR'$ is formed, in which the distances PO, OR' and angle δ' are known, and PR' – latitude and angle α' - longitude of point R after rotation are not known.

Based on the cosine theorem, we determine the unknown side of the triangle $\triangle OPR'$:

$$|PR'| = \sqrt{OP^2 + OR'^2 - 2|OP||OR'| \cdot \cos\delta'} \quad (6)$$

Here $OR'=OR$.

Applying the sine theorem (2), we determine the unknown angle α':

$$\alpha' = \frac{|OR'|\delta'}{|PR'|}. (7)$$

The latitude of the point R' will be:

$$R'_{lat} = 90° - \left(\frac{|PR'| \cdot 180°}{M}\right).$$

The longitude of the point R' is equal to:

$$R'_{long} = O_{long} + \alpha'. (8)$$

Based on the sequence of the above calculations, an algorithm was developed for rotating the points of nodes of a regular network of source data in a geographical coordinate system in the Pithon and JawaScript programming languages with Google Maps integration.

References:

1. Privalov I. I. Analytical geometry. Thirtieth edition – Moscow: Nauka, 1966. – 272-p.

2. How do I rotate a rectangle of latitude and longitude? https://math. stackexchange. com/questions/877469/how-do-i-rotate-a-rectangle-of-latitude-and-longitude

3. 3. Khaitov B. U. Digital terrain modeling for the tasks of preliminary analysis of territories. Bulletin of the Bauman Moscow State Technical University. Ser. Instrumentation. 2019. No. 3. ISSN 0236-3933. – pp. 64-76. http://vestnikprib. ru/catalog/icec/sysan/1153. html

4. Khaitov B. U. Real-time vertical leveling based on GIS and CAD. Journal of Physics: Conference Series 2373 (2022) 022051. ICMSIT-III-2022. IOP Publishing. doi:10. 1088/1742-6596/2373/2/02205. – P. 1-7. https://iopscience. iop. org/article/10. 1088/1742-6596/2373/2/022051/pdf

5. Makhmudov M. SH. Avlyakulova Sh. B. Description of the Transformation of Geometric Forms in a Four-Dimensional Space. The Seybod Report. Vol-18. Issue-07. DOI 10. 17605/OSF. IO/QDZEB. – P. 468-474. https://seyboldreport. org/article_overview?id=MDcyMDIzMDgxMjExNTE1NjU1

6. Meridian. https://ru. wikipedia. org/wiki/

PRAGMATIKADA NUTQIY AKTNING ASOSIY KATEGORIYALARI KOMPONENTLARI

I. Hojaliyev
FarDU dotsenti, filologiya fanlar nomzodi

Nargiza Qodirova
Lingvistika: o‘zbek tili magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada pragmalingvistika muammolaridan biri hisoblangan nutqiy akt tushunchasi yoritilgan. Badiiy asarlardan misollar olinib, ularning reprezentativ, direktiv, ekspressiv aktlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pragmatika, nutqiy akt, reprezentativ akt, direktiv akt, ekspressiv akt.

Abstract: This article briefly describes the concept of pragmatics, speech act. Speech acts were selected from the works of art and their representative, directive, expressive acts were analyzed.

Key words: pragmatics, speech act, representative act, directive act, expressive act.

Аннотация: В данной статье описывается понятие речевого акта, которое является одной из проблем прагмалингвистики. Были взяты примеры из произведений искусства и проанализированы их репрезентативные, директивные, экспрессивные акты.

Ключевые слова: прагматика, речевой акт, репрезентативный акт, директивный акт, экспрессивный акт.

KIRISH

Insoniyatni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlardan biri bo‘lgan til, jamiyat a’zolari o‘rtasida turli xil voqea, jarayon hamda munosabat va his tuyg‘ularni bir-birlariga ifoda etishda qo‘llaniladi . So‘zlovchining so‘zlashishga kirishishi orqali nutq paydo bo‘ladi. Har bir inson ongidagi his tuyg‘ularni tinglovchiga nutq orqali yetkazadi va bu nutqning asosiy vazifasi sifatida qaralib, axborot uzatish hodisasiga aylanadi. Nutqni so‘zlovchi tinglovchiga yetkazib berishi, uning ta’siri va ahamiyati kabi muammolar bugungi kunda pragmalingvistika sohasida dolzarb masalalardan biri sanaladi.

ASOSIY QISM

“Tilshunoslik fani taraqqiyotida til faktlari tadqiqiga turlicha yondashuv bo‘lishi tabiiy. Ana shunday yondashuvlardan biri semiotik yondashuv natijasida pragmalingvistika yo‘nalishi yuzaga keldi “ Pragmatika – grekcha “pragma” so‘zidan olingan bo‘lib, “bajarilgan, bajarilayotgan, bajarilishi zarur bo‘lgan ish” hamda “pradmatiko” so‘zi esa “ishga qobilyati bor, ishchan, ishbilarmon” kabi ma’nolarni ifodalaydi”[1], nutqdagi til birliklarining funksionalligini o‘rganuvchi semiotika, tilshunoslikning sohasidir. U Sokratdan oldingi zamonlarda ham qo‘llanilgan. Keyinchalik uni J. Lokk, E. Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirib olganlar. Shu tariqa pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu sohaning taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30- yillarida pragmatizm g‘oyalarining keng targ‘iboti boshladi. Amerika va Yevropada pragmatikaning keng yoyilishida Ch. Pirs, Ch. Morris, kabilarning xizmati alohidadir. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo‘lgan falsafiy pragmatizm yo‘nalishining asoschisi Charlz Pirs bo‘lgandi. Bu falsafiy tizimning asosiy g‘oyasi semiotik belgining ma’no-mazmunini va bu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganishdir. Bu tamoyil muallifi Ch. Pirs birinchilardan bo‘lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat subyekti omilini hisobga olish kerak bo‘lishini ta’kidlaydi. Pragmatika tilshunoslikining nazariy va amali tarmog‘i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida umumlashtirgan nutqiy jarayon va nutqiy vaziyat ta’sirida namoyon bo‘luvchi, nutq ishtirokchilarining o‘ziga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o‘rganuvchi sohadir. Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida Ch. I. Morris tomonidan ilmiy jarayonga olib kirilgan. U semiotikani semantika, sintaktika, pragmatika kabi tarkibiy qismlarga ajratadi. Tilshunoslikda pragmatikaning yangi tadqiqot obyekti sifatida yuzaga kelishi va ajratilishi, yuqorida takidlanganidek, Ch. Pirs g‘oyalari, shuningdek,

Dj. R. Ostin, Dj. R. Serl va Z. Vendlerlarning 60- 70- yillardagi mantiqiy-falsafiy qarashlari asosida yuzaga kelgan nutqiy akt , Pola Graysning ma’noning pragmatik tahlili va L. Linskiy, Dj. R. Serl, P. F. Strosonlarning deferensiya nazariyalari ta’siri bilan uzviy bog‘liqdir. Chunki nutqiy akt tushunchasi mohiyatiga ko‘ra so‘zlovchi nutqida kommunikativ niyat aks etagan bo‘ladi. Kommunikativ niyat esa nutqiy aktlarning ko‘rinishlari sifatida nutqda shakllanishi uning oldiga qator masalalarni qo‘yadi. Ammo to‘g‘ri va aniq so‘zlash uchun hammaga tushunarli bo‘lgan semantik bilimlarning o‘zinigina bilish yetarli emas, so‘zlash va to‘g‘ri ifodalash uchun individual mahoratiga ham ega bo‘lish lozim. Nutqiy faoliyat - til

ham xuddi shundaydir. Bunga ijtimoiy muhitning o‘zi har qanday shaxs uchun ma’lum imkoniyatlarni yaratadi.

Tilning jonli jarayonga kirib kelishi orqali nutq paydo bo‘ladi. Nutq jarayoni orqali inson ongida turli xil psixologik holatlar yuzaga keladi. Real holatda vujudga kelgan kommunikativ nutq a'zolari hisoblangan so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi holatlar, muammolarni, nutqning ta’siri kabi sohalarni tadqiq qiluvchi tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri pragmalingvistika ekanligi yuqorida ham ta’kidlandi. Ilk bor ushbu ta'limot V. Gumboldt, Sh. Balli, K. Byuller, E. Benvenist, M. Baxtin kabi olimlarning tadqiqotlarida paydo bo‘lgan bo‘lsa, Sh. Safarov pragmatika XX asrning ikkinchi yarmidagi rivoji nutqiy akt nazaryasining lingvofalsafiy ta'limot sifatida shakllanishi bilan bog‘liqligini va bu sohaning asosiy namoyondalari sifatida ingliz mantiqshunosi J. L. Ostin va amerikalik psixolog J. Syari kabi olimlar ishlarida ko‘ringanligini va shakillanganligini ta’kidlab o‘tgan. Nutqiy akt nazariyasi pragmatikaning kichik sohalaridan biri sifatida kiritilgan va o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot sohasi so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplarni ma'lumotni yetkazish bilan birga harakatlar orqali kommunikativ muloqot usullarining qo‘llanilishi bilan ham farqlanadi. Ushbu soha tilshunoslik bilan birga falsafa, psixologiya va adabiyot nazariyalarida, hatto sun'iy intellektni rivojlantirishda ham qo‘llaniladi. Barchamizga ma’lumki, bir inson hasta va o‘lim to‘shagida yotgan bo‘lsa ham unga: "Siz bugun kechagi kundan ancha yaxshisiz, ko‘rinishingiz juda yaxshi, tuzalib ketasiz" nutqiy akti qo‘llansa, bemorning tuzalishiga bo‘lgan ishonchini biroz bo‘lsa ham oshiradi. Bu gap nafaqat tashqi qiyofasiga (yolg‘on bo‘lsa ham)tavsif berish vazifasi orqal (bemorni o‘ziga nisbatan)"ishonch, xabar" vazifasini ham bajaradi. Shuni takidlab o‘tish joizki, deyarli barcha tillarda nutq aktlarini bevosita ifodalovchi ba'zi fe'llar mavjud bo‘ladi; masalan: kechirim so‘rash, shikoyat qilish, xushomad, iltimos qilish, va'da berish va boshqalar. Bu vazifalarni bajaruvchi fe’llar o‘zi bildirayotgan nutqiy aktning lug‘aviy ma’nosini o‘zida aks etgan bo‘lsa ham, ular har doim ham oddiy suhbatda nutqiy aktning eng ko‘p uchraydigan misollaridan biri bo‘lavermaydi. Masalan, so‘zlashuv uslubida vodiy aholisi ko‘p hollarda mehmondo‘stlik belgisini ko‘rsatish uchun va yuzaga kelgan vaziyat sabab "Bizning uyga kiring, mehmon bo‘lib ketasiz" deb aytish o‘rniga "Choy qilamiz" deb ishlatishni maqul ko‘rishadi.

“ Nutqiy aktlar tasnifida illokutiv maqsad, psixologik holat hamda adresant va adresat qiziqishlari bilan bog‘liq propozitsional struktura asos qilib olinadi. Nutqiy aktlar ana shu uch mezon asosida quyidagi tartibda tasnif qilinadi:reprezentativ yoki xabar nutqiy akti, undash yoki direktiv aktlar, majburiy yoki komissiv akt, ekspresiv

aktlar, deklarativ aktlar. Nutqiy aktlar to‘g‘risida so‘z borganda, odatda, ular gap tarkibidagi propozitsiyalarga qiyosan izohlanadi”[2].

Reprezentativ nutqiy akt -insonning hissiy kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lib, unda so‘zlovchi qalbida biron bir holat sodir bo‘lishiga ishonch, tasdiq va aniq jarayonga nisbatan vujudga keladi. “Pushkaryov buni tushundi, o‘rnidan turib kelib, yupatish ohangida gapirdi:

- “Xafa bo‘lmang, keragi yo‘q. . . . .

-Yuragingiz kasal emasmi?-dedi bir ozdan keyin.

-Yo‘q, -bosh qimirlatib javob qildi Sodiq. ”(Shuhrat “Oltin zanglamas” romani) Asarda yupatish ohangida aytilgan gapda Pushkaryovni Sodiqning ahvolidan biroz bo‘lsada xavotirda ekanligini ko‘rish mumkin va bu “mehribonlik” xabar ma’nosini beradi. Sodiqning “Yo‘q” degan javobi yana noverbal vosita “boshini qimirlatishi” esa tasdiq ma’nosini anglatadi. Bu vositalar orqali xabar va tasdiq ma’nolarining mavjudligi ko‘rishimiz va nutqiy aktning reprezentativ nutqiy aktga olishimiz mumkin.

Ekspressiv nutqiy akti tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu nutqiy akt so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi psixologik jarayonlar(kechirim so‘rash, shikoyat qilish, xushomad, maqtov, xafa bo‘lish, hayratlanish va tabriklar va. h. k)ni o‘zida aks ettiradi. “ – Yolg‘on!Tuhmat!-bardosh bera olmadi Sodiq.

-Baqirmang!Qo‘l ostingizdagilarga baqiradigan direktorlik vaqtingiz o‘tib ketgan. Men bu gaplarni o‘z og‘zingizdan eshitganman.

Mirsalimning bu surbetligidan Sodiq yana tutaqib ketdi:

-Tuhmatchi!G‘alamis!Bo‘hton qilgani uyalmaysizmi!” (Shuhrat “Oltin zanglamas” romani)Berilgan parchada o‘zi kutmagan insondan tuhmatlar bo‘layotganligini bilgan tinglovchi psixologik jarayon oqibatida kuchli g‘azab va hayratlanishni paydo qiladi. Bunday qalbi kechinmalar ekspressiv nutqiy aktlarda namoyon bo‘ladi.

Direktiv nutqiy akti so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga ma'lum vazifalarni bajarish majburiyatini yuklay olishi va har ikki nutq a'zolari yuzma-yuz holatda turishi direktiv nutqiy aktda kuzatiladi. Bunga misol sifatida buyurish, topshiriq yuklash, talab qilish holatlarini olishimiz mumkin. “- So‘ngsiz shirin orzular og‘ushida ekan, nazoratchi eshikni zarb bilan ochib: “Kiyin!Yur!”deganida quvonchidan ichida: “Ana, uyga ketdim”, -deb apil-tapil kiyingan sodiq sal o‘tmay o‘zini yana Chuxanov kabinetida ko‘rdi. ” (Shuhrat “Oltin zanglamas” romani)Asarda Sodiqga nisbatan ikkita buyruq nutqiy akti yo‘llandi. Birinchisi

kiyinishi, ikkinchisi turgan joyidan tashqari tomonga chiqishi lozimligidir. Bunda har ikki nutqiy akt ishtirokchilari bir-biriga qarama-qarshi turishganini, so‘zlovchi tomonidan tinglovchiga direktiv holatda buyurish, topshiriq yuklash jarayonini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA

Lingvistikada nutq aktlari hodisalarini o‘rganish har doim dolzarb masala sifatida qaraladi. Nutqning sodir bo‘lish bosqichlari misolida badiiy asarlarda uchraydigan nutqiy aktlar orqali reprezentativ, direktiv, ekspressiv aktlari tahlil qilinadi, bundan nutqiy aktning lingvopragmatik xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatni kasb etadi. Ularni nutq a’zolari hisoblangan tinglovchi va so‘zlovchi o‘rtasida sodir bo‘layotgan nutqiy aktlarni tinglovchi psixalogiyasiga qay darajada ta’sir etishiga qarab turli kategoriyalarda tahlil qilish orqali tilning pragmalingvistika sohasidagi ko‘plab obrazlarni ochib berish imkoniga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qarang: Hakimov M. Pragmalingvistika asoslari darslik-14 bet
2. Hakimov M. Pragmalingvistika asoslari darslik-196 bet
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B. 77-82.
4. Nasridinov M. SCIENCE AND INNOVATION//INTERNATIONAL SCIENTIFICE JOURNAL VOLUME I ISSUE 8 UIF-2022:8. 2/ ISSN:2181-3337, 905-909
5. Jumaqulova Sh . «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya UIF – 2020 , 19-21
6. Jumaqulova Sh . «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya UIF – 2020, 74-76
7. Shuhrat, “Oltin zanglamas” romani – T. : Nurafshon-kitob-ta’minot, 2020.

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV FIKIRLASHNI MEDIA TA’LIM VOSITALARI YORDAMIDA SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nasiba Turg‘unboyev Rustam qizi
Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti
nasiba@gmail. com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikirlashni shakllantirish bo‘yicha ta’lim faoliyatini samarali amalga oshirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jumladan media ta’lim vositlari yordamida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish masalalariga doir ma’lumotlar aks etirilgan.

Shuningdek, Maktabgacha ta’limni raqamlashtirishnig pedagogik omillari, imkoniyatlari ochib berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar (kalit so‘zlar): maktabgacha yoshdagi bolalar, kreativ fikirlash, innovatsion texnologiyalar, media ta’lim vositlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

Abstract: In this article, information on the use of innovative technologies in the organization of preschool education for the effective implementation of educational activities on the formation of creative thinking in preschool children, including information on the issues of organizing the educational and educational process with the help of media educational tools. achieved.

Pedagogical factors and possibilities of digitalization of preschool education are also revealed.

Keywords: children in preschool**,** creative thinking**,** innovative technologies, media educational tools, information and communication technologies

Bugungi kunda O‘zbekistonda hukumat tomonidan maktabgacha ta’limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jarayoni jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirishning tashkiliy, ilmiy va metodik ta’minotini ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish va amaliyotga joriy etish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida – maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-

sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikirlashni shakllantirish bo‘yicha ta’lim faoliyatini samarali amalga oshirish uchun maktabgacha ta’lim tashkilotida bir qator eng yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jumladan media ta’lim vositlari yordamida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa o‘quv jarayonini tashkil qilishda turli xil ta’lim sohalari o‘rtsidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlaydi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlar natijasida barcha sohalarni raqamlashtirishga ulardagi sifat va samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda biz o‘z hayotimizning asosiy qismini virtual dunyoga o‘tkazayapmiz: kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfonlar va boshqa moslamalar orqli. Axborot resurslarining barcha toifadagi inson hayotiga - yosh bolalardan tortib, katta yoshdagi insonlargacha kirib borganligi – axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyatni qiziqtirgan barcha muammolarni hal qilishga qodir degan fikrni shakllantiradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etilishi jamiyat taraqqiyotining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Demokratik islohotlar va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Bu yo‘nalishda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy metodlarini joriy etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu amaliy ishlar ta’lim oluvchilarni muommolarning yechimiga kreativlik asosida yondashishga undaydi.

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo‘ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san’at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

U insonga ba’zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko‘nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o‘z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda [2].

Kreativ fikrlash ta’siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya’ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. O‘z o‘rnida kreativlik zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirishga, multimedia vositalaridan kengroq va samaraliroq foydalanishni taqoza etadi**.**

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda shuni aytish kerak-ki, bugungi rivojlanib borayotgan ta’lim tizimini axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hozirgi ta’lim jarayonida bo‘layotgan kashfiyotlar, ulkan axborotlarni ishlab chiqish va saqlashga hamda ularni kommunikatsiya tarmoqlari orqali tez tarqatish imkonini beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o‘ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat [1].

Multimedia vositalari – bu apparat va dasturlar to‘plami bo‘lib, u insonga o‘zi uchun tabiiy bo‘lgan turli-tuman muhitlarni: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalarni ishlatgan holda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’limni axborotlashtirish – bu ko‘p rejali, kompleks, zaxiralarni talab etuvchi jarayon bo‘lib, bunda bolalar, pedagoglar va maktabgacha ta’lim muassasa ma’muriyati ishtirok etadi.

Maktabgacha ta’limni axborotlashtirish tarbiyachilarga pedagogik amaliyotda yangi metodik ishlanmalarni joriy etish imkoniyatlarini beradi. Bolalar bog‘chasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni zamonaviylashtirish, ularning samarasini oshirish, bolalarni izlanuvchanlik faoliyatiga qiziqtirish, bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’limni differensiallash imkonini beradi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bagbekova Laylo Kadirbergenovna, Замонавий информатиканинг долзарб муаммолари. Рес. илм. -амал. анж. мат. 2023, 422-424 б.

2. Yodgorova S. (2023). Keyslar asosida mantiqiy va kreativ fikr yuritish imkoniyatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslari. Наука и инновация, *1*(14), 61–64.

3. Савченко Н. А. Использование мультимедиа-технологий в общем среднем образовании. Электронное пособие для педагогов. – М. : 2006.

AKADEMIK VAHOB RAHIMOVICH RAHIMOVNING O‘ZBEKISTON TOG‘-KONCHILIK SOHASI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Shahnoza Toshqulova Safarboy qizi
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“O‘zbekiston tarixi” mutaxassisligi tayanch doktoranti,
shahnoza. toshqulova@gmail. com

Abstract. In this article, the academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, doctor of technical sciences, professor, accomplished specialist in the field of Uzbek mining, Rakhimov Vakhab Rakhimovich’s life path, scientific activity, achievements in his field and Tashkent State Technical University information about his contribution to the development is provided. The life path of the scientist is polished in chronological order in the article. The main attention is focused on the scientist's scientific activity, scientific works and several patents.

Key words. Rakhimov Vakhab Rakhimovich, Academy of Sciences of Uzbekistan, Tashkent State Technical University, Faculty of Mining and Metallurgy, academician, Ingichka, Koytosh, Mirgalimsoy.

Inson tug‘ilganidan boshlab izlanadi. Izlanaveradi, intilaveradi. Qadamlar sekinlashadi, sochlarga oq oralaydi, to‘kiladi, umr shomi yetgach bu dunyoni tark etadi. . . Ammo umr so‘nggida topgani bir hovuch ham chiqmaydi. Sababi? Sababi ming bitta. Chunki bu hayot. Hayot yo‘lida topganlarning barchasida hikmat bor. Yaxshiliklar bor. Yaxshi insonlar bor. Ana shunday ilm-fanning jonkuyar insonlaridan biri akademik Rahimov Vahob Rahimovichdir.

Vahob Rahimovich allaqachon texnika fanlari doktori, professor hamda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi unvoniga erishgan, Islom Karimov (sobiq Abu Rayhon Beruniy) nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining faol va ardoqli ustozlaridan biri sifatida o‘n yillab samarali mehnat qildi. O‘zidan minglab shogirdlar va yuzlab tog‘-konchilik sohasiga doir ilmiy ishlarni qoldirib ketdi.

Vahob Rahimov 1934-yilning 26-dekabr kunida ko‘hna va qadimiy Shahar Samarqandda tavallud topdi. Texnika fanlari doktori, professor, o‘z davrining yetuk ilmli konchi olimi va geologiya hamda tog‘-konlari sohasi bo‘yicha kuchli mutaxassis o‘zbek olimi bo‘lgan. 2000-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zoligiga saylangan sohasining yetuk va kuchli akademiklaridan biri

hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining rasmiy saytida quyidagi xotira saqlanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari

Рахимов Вахоб Рахимович

08. 10. 1934 -

Saylov yili: 2000 y.

Специальность: горное маркшейдерское дело[46]

Akademik-olim qariyb 60 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, “Kon-metallurgiya” kafedrasi mudiri, kon-metallurgiya fakulteti dekani, prorektori kabi mas’ul lavozimlarda ish faoliyatini olib bordi. U geologiya va geofizika, tog‘-kon muhandisligi va geodeziyaning dolzarb masalalarini ilmiy tadqiq etishga, fanning ushbu murakkab sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashga o‘zining ulkan hissasini qo‘shdi[47]. Uning ishlanmalaridan hamon soha mutaxassislari foydalanishda davom etmoqdalar. Bu esa olim ilmiy faoliyatining behuda ketmaganini, u yaratgan ilmiy-amaliy ishlanmalar hamon dolzarbligini saqlab qolganidan dalolatdir.

Akademik Rahimov Vahob Rahimovichning umr yo‘li, ilmiy faoliyati anchayin ibratlidir. Olim O‘rta Osiyo politexnika institutining Konchilik fakultetini 1957-yilda muvaffaqiyatli tarzda tamomlagan. Shundan so‘ng O‘zbekiston Fanlar akademiyasining konchilik va ruda-kon bo‘limida ilmiy xodim bo‘lib 1957 - 1958-yillarda ishlagan. Aynan shu davrni konchi olimning uzoq yillar davom etgan ilmiy-amaliy faoliyati debochasi deyish o‘rinli bo‘ladi[48].

Mana shu yillarda ilmiy faoliyatini davom ettirgan holatda 1959 - 1961-yillarda A. A. Skochinskiy nomidagi Moskva tog‘-kon ishlari institutining aspiranturasida ham tahsil oldi. 1962-yilda o‘zining nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Shu davrdan e’tiboran, ya’ni 1963-yildan boshlab Toshkent politexnika institutida (hozirgi TDTU) dastlab katta o‘qituvchi, so‘ngra dotsent unvonida ilmiy ishlarini davom ettirdi.

[46] Fanlar akademiyasining sobiq haqiqiy a'zolari. https://academy. uz/uz/academics/previous-members?page=10

[47] Ушел из жизни академик Вахоб Рахимов. 29. 10. 2014. https://www. gazeta. uz/ru/2014/10/29/rakhimov/

[48] Vahob Rahimovich Rahimov. https://uzpedia. uz/pedia/vahob_rahimov

Vahob Rahimov dotsent sifatida “Marksheyderlik ishi va geodeziya” va “Konchilik ishi” kafedrasida 1968-yildan boshlab kafedra mudiri lavozimida ishlay boshladi.

1969-yilga kelib yosh olim Tog‘-metallurgiya fakulteti dekani lavozimga saylandi. Qirq yoshga yetmasdan yosh olimning yirik fakultet dekani lavozimini egallashi XX asrning 60-70 – yillarida anchayin murakkab va shu bilan birga iste’dod hamda bilimning ulkan natijasi deyish mumkindir.

Vahob Rahimovich 1971-yilda Moskva davlat konchilik instituti ilmiy kengashida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Muvaffaqiyatli himoyadan keyin texnika fanlari doktori ilmiy darajasiga erishdi hamda tez fursatda professor unvoniga ham loyiq ko‘rildi[49].

Texnika fanlari doktori Vahob Rahimovich Rahimovning ishlari 1980-yilda hukumat tomonidan munosib ko‘rilib “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni bilan taqdirlanadi.

Vahob Rahimovich 1984 - 1990-yillarda Toshkent davlat texnika universiteti prorektori lavozimida ishlagan. 1990-yilda yana kafedra mudiri sifatida o‘z ilmiy ishlarini davom ettirgan[50].

Akademik Vahob Rahimovich Rahimov 2010-yilgacha Moskva konchilik va Qozog‘iston milliy texnika universitetlari qoshidagi doktorlik dissertatsiyalarini himoyalash bo‘yicha ixtisoslashgan kengash a’zosi bo‘lgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zoligidan tashqari Rossiya konchilik akademiyasining akademigi unvoniga ham ega bo‘lgan.

2000-yilning 19-mayida o‘tkazilgan saylov natijasiga ko‘ra tog‘-konchilik sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lgan professor Rahimov Vahob Rahimovich O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi[51].

Akademik Vahob Rahimov mustaqillik yillarida erishgan ilmiy yutuqlari, ko‘p yillik sermahsul xizmatlari uchun 2004-yilda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan[52].

2010-yildan umrining oxirigacha Toshkent davlat texnika universitetining “Marksheyderlik ishi va geodeziya” kafedrasi professori bo‘lib faoliyat yuritdi.

[49] Rahimov Vahob Rahimovich. 16. 07. 2022. https://uztext. com/103732-text. html
[50] Vahob Rahimov. https://uz. wikipedia. org/wiki/Vahob_Rahimov
[51] Fanlar akademiyasining sobiq haqiqiy a'zolari. Действительные члены Академии Наук Узбекистана, ранее входившие в её состав (по состоянию на 01. 01. 2024 г.). 19. 05. 2024. **https://academy. uz/uz/page/fanlar-akademiyasining-sobiq-haqiqiy-azolari**
[52] Vahob Rahimov. https://uz. wikipedia. org/wiki/Turkum:Mehnat_shuhrati_ordeni_sohiblari

2012-yilda Vetnam Sotsialistik Respublikasiga ilmiy texnik kadrlarni tayyorlashdagi xizmatlari uchun ushbu davlatning yuqori darajali “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan.

Vahob Rahimovich “Konchilik shuhrati” belgisining barcha darajalari sohibi bo‘lgan. U bir qancha ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va yuzalb ilmiy maqolalar muallifi sanaladi.

Asosiy ilmiy ishlari konlarni qazib olish natijasida tog‘ jinslari massivida geomexanik jarayonlarning o‘zgarish qonuniyatlarini aniqlash, tabiiy va texnogen konlarning mineral xomashyo potensialidan to‘la va kompleks foydalanishni ta’minlaydigan ekologik toza texnologiyalarni yaratish va qo‘llash hamda konchilik ishlarida elektronoptik asboblar va sun’iy yo‘ldoshlar orqali zamonaviy marksheyderlik texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muammolariga bag‘ishlangan[53].

Akademik Vahob Rahimov Toshkent davlat texnika universiteti professori, kafedra mudiri, dekani va prorektori lavozimlarida ishlagan davrida kafedra, fakultet va universitetning yanada rivojlanishiga, moddiy-texnik bazasini kengaytirishga, ishlab chiqarish bilan aloqalarni mustahkamlashga katta hissa qo‘shdi. Ilmiy institutlar, o‘quv jarayonini ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash, bo‘lajak muhandis, bakalavr, magistr va doktorantlarni amaliy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirishga o‘zining ulkan olimlik hissasini qo‘shdi.

V. R. Rahimov tog‘-kon geomexanikasi sohasidagi yetakchi olimlardan biri sifatida ilmiy doiralarda keng tanilgan edi. Uning asosiy ilmiy faoliyati foydali qazilma konlarini o‘zlashtirish texnologiyasi, geodeziya va tog‘-kon geomexanikasi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Uning rahbarligida ko‘p yillik izlanishlar natijalari asosida ishlab chiqilgan kon ishlarini xavfsiz olib borish va xona-ustunli kon tizimining loyiha parametrlarini hisoblash bo‘yicha tavsiyalar kiritildi va keng qo‘llanilishini topdi. Ruda konlarini o‘zlashtirish texnologiyasini loyihalashda Ingichka, Qo‘ytosh, Mirg‘alimsoy kabi konlar yuqori o‘rin tutadi[54].

Akademik Vahob Rahimovning 935626-raqamli “Анкер-верхняк для выработок со сводчатой кровлей” (“Tog‘li tomli qazish ishlari uchun yuqori

[53] Основи разработки мелкомасштабних золоторудних месторождений Кизилкумов, Ташкент – 2000. С. 11.
[54] Вахоб Рахимович Рахимов (к 80-летию со дня рождения). // Горный журнал Казахстана. 2014. № 10. С. 51. https://rucont. ru/efd/458950

langar”)[55], 1075913-raqamli “Способ автоматического сейсмоакустического контроля состояния массива горных пород” (“Tog‘ jinslari massalarining holatini avtomatik seysmik-akustik kuzatish usuli”)[56], 1084425-raqamli “Устройство для фотографирования стенок буровой скважины” (“Quduq devorlarini suratga olish uchun qurilma”)[57] va 1694897-raqamli “Способ сплошной отработки целиков” (“Ustunlarning uzluksiz rivojlanishi usuli”)[58] nomli ilmiy ishlariga berilgan patentlar hamon saqlanib kelmoqda.

2014-yilning 29-oktabrida Geologiya va konchilik sohasining atoqli olimi, texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Vahob Rahimov 80 yoshga to‘lish arafasida vafot etdi. Olimning vafoti munosabati bilan o‘sha paytdagi mamlakat Prezidenti Islom Karimov va o‘sha davrdagi Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev hamda boshqa rasmiy shaxslar hamdardlik bildirishdi[59]. Rasmiy ta’ziya matni O‘zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sahifasida e’lon qilindi.

Akademik Vahob Rahimov kafedrada ko‘p yillar katta o‘qituvchi, dotsent, professor bo‘lib, yuzlab balki minglab shogirdlarini soha mutaxassislaridan biriga aylanishiga hissa qo‘shdi. Olim hamkasblari, talabalari, shogirdlari xotirasida o‘ta bosiq, halol, mehribon, samimiy, doimo yordamga tayyor va yuqori madaniyatli ustoz bo‘lib qoldi. Shogirdlari bugun ham u bilan benihoya faxrlanishadi.

Bugun olim hayot bo‘lganida qutlug‘ 90 yoshini hamkasb-shogirdlar davrasida, ilk ilmiy va mehnat faoliyati boshlangan Toshkent davlat texnika universitetida va Fanlar akademiyasida nishonlayotgan bo‘lardi.

O‘z vaqtida o‘tkir zehnini anglagan, ilmiy qobiliyatini munosib baholay olgan har bir tashkilot va ta’lim muassasalari Vahob Rahimovni o‘zlarida ishga olishga harakat qilgan edilar.

---

[55] В. Р Рахимов, В. Д. Морозов, А. Ю. Студеникин, Н. Д. Бессонов и А. А. Алиходжаев. Анкер-верхняк для выработок со сводчатой кровлей. Опубликовано 15. 06. 1982. Бюллетень Москва. https://patentdb.ru/patent/935626

[56] В. Р. Рахимов, В. Д. Морозов, А. Ю. Студеникин, Н. Д. Бессонов и А. Л. Лифер. Способ автоматического сейсмоакустического контроля состояния массива горных пород. Ленинград: Наука, 1978, С. 23. https://patentdb. ru/patent/1057913

[57] В. Р. Рахимов, Ф. М. Арипова, В. К. Бызеев и В. В. Морозов. Устройство для фотографирования стенок буровой скважины. реднеазиатский научно-исследовательский и проектный институт цветной металлургии (53) 528. 7 16. 3(088. 8) (56) 1. Авторское свидетельство СССР. https://patentdb.ru/patent/1084425

[58] В. Р. Рахимов, В. П. -Х. Пак, Г. С. Цой и А. Т. Зарецкий, А. Ф. Суханов. Способ сплошной отработки целиков. Разрушение горных пород взрывом. Москва: Недра, 1983, С. 180. https://patentdb.ru/patent/1694897

[59] Akademik Vahob Rahimov vafot etdi. 29. 10. 2014. Общество

Akademik Vahob Rahimovning ilmiy ishlari, hammualliflikda chop etilgan ilmiy asar va maqolalari, tog‘-konchilik rivojini targ‘ib etuvchi ilmiy ishlari, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan maqolalari, televideniye orqali keng ommaga namoyish etilgan hujjatli ishlari hamon alohida ahamiyatga ega.

Akademik Vahob Rahimovning faoliyati ko‘pqirrali bo‘lib, u fundamental olim, uzoq yillik pedagog, ijodkor, chin ma’noda o‘tkir tog‘-konchi olimidir. Bu bejizga emas. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Akademik Vahob Rahimov mohir notiq ham bo‘lgan edi. O‘zining olib borgan faoliyati davomida minglab marotaba tinglovchilarga o‘qigan maruza darslarida ishtirok etganlar hamon yaxshi eslaydilar. Olimning maruzalari o‘ziga xos, asoslarga boy. Muhtasarini aytganda, haqiqiy tog‘-konchilik sohasining fidoyi olimi edi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fanlar akademiyasining sobiq haqiqiy a'zolari. https://academy. uz/uz/academics/previous-members?page=10
2. Ушел из жизни академик Вахоб Рахимов. 29. 10. 2014. https://www. gazeta. uz/ru/2014/10/29/rakhimov/
3. Vahob Rahimovich Rahimov. https://uzpedia. uz/pedia/vahob_rahimov
4. Rahimov Vahob Rahimovich. 16. 07. 2022. https://uztext. com/103732-text. html
5. Vahob Rahimov. https://uz. wikipedia. org/wiki/Vahob_Rahimov
6. Fanlar akademiyasining sobiq haqiqiy a'zolari. Действительные члены Академии Наук Узбекистана, ранее входившие в её состав (по состоянию на 01. 01. 2024 г.). 19. 05. 2024. **https://academy. uz/uz/page/fanlar-akademiyasining-sobiq-haqiqiy-azolari**
7. Vahob Rahimov. https://uz. wikipedia. org/wiki/Turkum:Mehnat_shuhrati_ordeni_sohiblari
8. Основи разработки мелкомасштабних золоторудних месторождений Кизилкумов, Ташкент – 2000. С. 11.
9. Вахоб Рахимович Рахимов (к 80-летию со дня рождения). // Горный журнал Казахстана. 2014. № 10. С. 51. https://rucont. ru/efd/458950
10. В. Р Рахимов, В. Д. Морозов, А. Ю. Студеникин, Н. Д. Бессонов и А. А. Алиходжаев. Анкер-верхняк для выработок со сводчатой кровлей. Опублик овано 15. 06. 1982. Бюллетень Москва. https://patentdb. ru/patent/935626
11. В. Р. Рахимов, В. Д. Морозов, А. Ю. Студеникин, Н. Д. Бессонов и

А. Л. Лифер. Способ автоматического сейсмоакустического контроля состояния массива горных пород. Ленинград: Наука, 1978, С. 23. https://patentdb. ru/patent/1057913

12. В. Р. Рахимов, Ф. М. Арипова, В. К. Бызеев и В. В. Морозов. Устрой ство для фотографирования стенок буровой скважины. реднеазиатский научно-исследовательский и проектный институт цветной металлургии (53) 528. 7 16. 3 (088. 8) (56) 1. Авторское свидетельство СССР. https://patentdb. ru/patent/1084425

13. В. Р. Рахимов, В. П. -Х. Пак, Г. С. Цой и А. Т. Зарецкий, А. Ф. Суха нов. Способ сплошной отработки целиков. Разрушение горных пород взрывом. Москва: Недра, 1983, С. 180. https://patentdb. ru/patent/1694897

14. Akademik Vahob Rahimov vafot etdi. 29. 10. 2014. Общество

AHMAD YASSAVIYNING “ DEVONI HIKMAT “ ASARINING POETIK XUSUSIYATLARI

Dilorom Jo‘rayeva Ulug‘bek qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi , ilmiy faoliyati, “Devoni hikmat” asarining poetik xususiyatlari haqida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tariqat, yassaviya, “Devoni hikmat” , tasavvuf, ilohiyot.

Keyingi yillar ichida adabiy-ma’naviy hayotimizda «tasavvuf», «mutasavvif», «ilohiyot» kabi tushunchalar tobora keng kirib kelmoqda. Aslida adabiy-falsafiy olamning hodisasi XX asrning hodisasi emas. XV asrning ikkinchi yarmida yashab faoliyat ko‘rsatgan adib va qomusiy olim Husayn Voiz Koshifiyning shahodatiga qaraganda, tasavvufning o‘q ildizlari Odam Ato va uning dastlabki farzandalari taqdiridan boshlanadi. Bunday ilmiy taxminlar boshqa irfoniy manbalarda ham ko‘zga tashlanadi. Uzoq o‘tmishda shakllana boshlagan tasavvuf necha ming yillar davomida g‘oyat olis va to‘lqinli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Uning bag‘rida necha-necha tariqatu oqimlar tug‘ilib, yashab hayot bilan vidolashuvga ulgurdi. Eng muhimi, tasavvuf hamisha ezgulik tarafida turdi, insonning jismoniy, ma’naviy- ruhiy kamolatining hammabop yo‘llari, uning poklanishi va balog‘ati ustida fikr yuritdi.

Mustaqillik davri boshlanishi bilan tasavvuf ta’imoti va tasavvuf adabiyoti vakillariga munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi. Bu qonuniy va tabiiy o‘zgarish, albatta. Chunki tasavvuf va tariqatlar, tasavvuf maslagi zaminida shakllangan ma’naviy hayot bizning madaniyat tariximizda muhim mavqega ega bo‘lgan. Biz nafaqat ilm-fan, adabiyot, san’at va musiqamizni, tilimiz taraqqiyotini ham tasavvufdan butunlay ajratib tasavvur eta olmaymiz.

Diniy-tasavvufiy adabiyot o‘zbek mumtoz adabiyotining o‘ziga xos bir tarmog‘iga aylanganligi, avvalo, mazkur haqiqat bilan izohlanadi.

Tasavvuf tarixini o‘rganmay turib o‘zbek mumtoz adabiyotining tub mohiyatiga yetib bo‘lmaydi. Atoqli olim E. E. Bertelьs o‘tgan asr boshidayoq qayd etgan edi: «Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. . . bu adabiyotdan xabardor

bo‘lmasdan Sharqning o‘zini ham anglash qiyin». Tasavvuf adabiyotini bilish va o‘rganish uchun esa avvalo tasavvufning o‘zini bilish kerak.

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta’limot bo‘lib, islom olamida VIII asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Dastlab u zohidlik harakati ko‘rinishida kurtak yoyadi. Gap shundaki, hazrat Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo‘linish yuz beradi, ayniqsa, xalifa Usmon raziyallohu anhu zamonida boylikka ruju qo‘yish, qimmatbaho tuhfalar bilan qarindosh-urug‘lar, yaqin do‘st-birodarlarni siylash rasm bo‘ladi. Umaviya xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to‘plash avj oldi. Ya’ni diniy mashg‘ulotlar, Xudo yo‘lidagi toat-ibodat o‘rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshladi. Bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo‘ygan e’tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo‘ldi. Ular orasida hadis to‘plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo‘lib, uy-joy, mol-mulkka e’tibor qilmagan sahobalar ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlangan bo‘lsalar, ikkinchi qismi qanoat va zuhdni («zuhd» so‘zidan «zohid» so‘zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvatdorlar, boylar axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g‘oyasini targ‘ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashganlar, surunkali toat-ibodat bilan shug‘ullanganlar.

Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahrori vali kabi ulug‘ mashoyixlar shariat ilmi va tariqat amaliyotini birlashtira olgan komil insonlar edi. Ularda shariat ilmidan tashqari yana botiniy-ilohiy ilm ham jo‘sh urib turgan. Ana shu fazilat bilan ular oddiy dindorlar, muhaddisu mufassirlardan ustun edilar.

Ahmad Yassaviy hazratlari turk dunyosining eng mashhur shaxsiyatlaridandir. Farididdin Attor uni "Piri Turkistoniy" ("Turkiston piri") deb atagan edi. Buyuk Navoiy "shayxul mashoyix" ("shayxlar shayxi") deb nomlaydi. O‘z yurtida esa "hazrati sultonim" deydilar. Yassaviyning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar juda oz. Borlari ham rivoyat va afsonalarga qorishib ketgan. Buning ustiga, Yassaviy ijodi O‘zbekistonda mustaqillikdan keyingina o‘rganilmoqda. Bu borada birinchi manba, tabiiyki, uning "Devoni hikmat" asaridir. Shuningdek, Yassaviy xalifasi Sulaymon Boqirg‘oniyning "Hakim ota kitobi", Navoiyning "Nasoyim ul muhabbat", Fazlulloh Ro‘zbehxonning "Mehmonnomayi Buxoro", Xizr ibn Ilyosning "Manoqibi Hoji Bektoshi valiy", Avliyo Chalabiyning "Sayohatnoma", Husomiddin

Bulg‘oriyning "Tavorixi Bulg‘oriya", Haziniyning "Javohir ul-abror" kitoblarida ham adib haqida ozmi-ko‘pmi ma'lumotlar berilgan. Yassaviy haqidagi ma'lumotlarni birinchi marta to‘plab, jiddiy tadqiq qilgan turkiyalik olim Muhammad Fuod Ko‘pruluzoda bo‘lgan edi. U 1918- yilda "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar" degan kitobini e'lon qildi. Abdurauf Fitrat 1927 - yilda Yassaviy va uning ijodiy qiyofasi haqida maqola yozdi. 1972- yilda esa prof. E. Rustamovning , , Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi" maqolasi ("O‘zbek tili va adabiyoti" jurnali 4-5-sonlar) chop etilgach, sho‘ro idoralari tomonidan muallif boshiga turli savdolar tushdi. 1991- yildan keyingina uning hikmatlarini va u haqdagi tadqiqotlarni nashr etish keng yo‘lga qo‘yildi. Hozirda Yassaviy ijodi birgina O‘zbekiston yoki Qozog‘istondagina emas, jahon turkologlari tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ahmad Yassaviy hozirgi Qozog‘iston Respublikasining Chimkent viloyatiga qarashli Sayram shahrida tug‘ilgan. Sayram (Saryom) O‘rta Osiyoning qadim shaharlaridan. Bir vaqtlar " Isfijob" , "Madinat ul bayzo" (Oq shahar) nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Tarixi miloddan oldingi zamonlarga borib taqaladi. Alisher Navoiy Ahmad Yassaviyning tug‘ilgan yerini Yassi deb ko‘rsatadi. Yassi bugungi Turkiston shahrining qadimgi nomidir. Uning Yassaviy taxallus - nisbasi, ayrim she'rlarida bunga ishoralar borligi, ehtimol, Navoiyni shunday fikrga kelishga undagan bo‘lishi mumkin. Lekin Yassaviy hayoti va ijodini qiyoslab o‘rgangan mutaxassislar uning Sayramda tug‘ilgani haqiqatga yaqinroq, deb hisoblaydilar. Yassaviyning tug‘ilgan yili ham aniq emas. Manbalar uning Yusuf Hamadoniy qo‘lida o‘qiganligini tasdiqlaydi. Shunga qaraganda, Ahmad Yassaviy XI asrning ikkinchi yarmida tug‘ilgan. Chunki Yusuf Hamadoniyning tavallud sanasi 1048-yildir. Ahmad Yassaviyning otasi Ibrohim shayxlik martabasida edi. Uning hazrati Ali avlodlaridan bo‘lganligini naql qiladilar. Onasi Oysha shayx Ibrohimning shogirdlaridan bo‘lgan Musa shayxning qizidir. Ahmad oilada ikkinchi farzand bo‘lgan. Opasining oti Javhari Shahnozdir. Juda yoshlik paytlarida ota-onasi vafot etib, yetim qoladi. Opasi bilan birgalikda Yassiga keladi. Arslonbob degan shayx qo‘lida tarbiya topadi. Yosh Ahmadning Arslonbob bilan uchrashuvi voqeasi rivoyatlarga ko‘milgan. Ularga ko‘ra, Arslonbob payg‘ambarimiz as'hoblaridan bo‘lib, to‘rt yuz yil yashagan. U Muhammad payg‘ambarning Yassaviyga atab bergan omonatlari - bir dona xurmoni necha yuz yillar tishining kovagida asrab keladi va yetti yashar Ahmadga topshirib, bolaning tarbiyasini o‘z zimmasiga oladi. Ma'lumotlarga ko‘ra, Ahmad Yassaviy Arslonbob vafotidan keyin, taxminan 1110-yillardan boshlab Buxoroda o‘qiydi. Mashhur Yusuf Hamadoniydan tahsil oladi. Uning xalifasi (yordamchisi), izdoshi darajasiga ko‘tariladi. Manbalarga ko‘ra, Yusuf

Hamadoniy vafotidan keyin uning o‘rniga birinchi xalifa shayx Abdulloh Barqiy ko‘tariladi. U vafot etgach, ikkinchi xalifa shayx Hasan Andoqiy, uning o‘limi (1160-yil) dan so‘ng esa, uchinchi xalifa Ahmad Yassaviy irshod (rahbar)lik mavqeyini egallaydi. So‘ng bir "ishorati g‘aybiya" (ilohiy ishorat) bilan o‘z o‘rnini to‘rtinchi xalifa Abduxoliq G‘ijduvoniyga topshirib, Yassiga qaytadi va vafotiga qadar u yerda irshodlik maqomida bo‘ladi. Ahmad Yassaviyning pirlik maqomi shu darajada yuqori ediki, xalq orasida: "Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad", - degan naql paydo bo‘ladiBuyuk mutasavvuf Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan birinchi so‘fiy, tasavvufning buyuk vakilidir. "Yassaviya" tariqatining asoschisidir. Tasavvuf esa Sharq olamining keng tarqalgan falsafasidir. Tasavvufning asosida Allohni anglamoq yotadi. Alloh haqdir, haqiqatdir. Uni oddiy odamning jo‘n aqli bilan anglash mumkin emas. Buning uchun ustoz, pir kerak. Chunki bu dunyoda o‘z holingcha to‘g‘ri yo‘lni topish g‘oyat qiyin. Bu boradagi birdan-bir to‘g‘ri yo‘l tariqatdir. Tariqat deganining o‘zi ham "yo‘l, "usul" degan ma'nolarni bildiradi.

Tariqatga siyosatlig‘ murshid kerak,
Ul murshidga e'tiqodlig‘ murid kerak,
Xizmat qilib pir rizosin topmoq kerak,
Mundog‘ oshiq haqdin ulush olur ermish.

Tariqat shariatning davomidir. Yassaviy aytmoqchi, shariat imonning po‘sti bo‘lsa, tariqat uning mag‘zidir. Shariat uning zohiri bo‘lsa, tariqat botinidir. Birini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shariat islomda rioya qilinishi lozim bo‘lgan diniy qoidalar yig‘indisidir. Tariqat shularni anglamoq yo‘lidir. Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar orasidan chiqqan birinchi mutasavvifgina emas, yangi bir tariqatning asoschisi hamdir. Bu tariqat uning nomi bilan "Yassaviya" deb ataladi. Tariqat o‘zining quyidagi qoidalariga ega:)

1. Murid o‘z pirini barchadan afzal bilmog‘i va unga o‘z ixtiyorini to‘la topshirmog‘i lozim.

2. Murid o‘z pirining barcha ramz va ishoralarini mukammal anglay olishi kerak.

3. Murid o‘z pirining barcha so‘zlari hamda ishlariga sodiq va fidoyi bo‘lishi lozim.

4. Murid o‘z pirining barcha topshiriqlarini chaqqon, sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog‘i shart. Chunki Alloh rizosi unga bog‘liqdir.

5. Murid o‘z so‘ziga sodiq, va'dasida mustahkam bo‘lib, piriga nisbatan ko‘nglida biror shubhaga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

6. Murid Alloh yo‘lida butun mol-u mulkini o‘z piriga nisor etmoq uchun doimo tayyor turmog‘i lozim.

7. Murid o‘z pirining barcha sir-asrorini bilgani holda uni boshqalarga bildirishni xayoliga ham keltirmasligi, do‘stiga do‘st, dushmaniga dushman bo‘lib yashamog‘i shart.

8. Murid o‘z pirining mushkulotlarini oson qilmog‘i, pand-u nasihatlarini bajo keltirmog‘i lozim

Demak Ahmad Yassaviy ruhiy olamning barcha gunbazlarini diliga jo etgan. Endi uning haq-taolo bilan muloqot qilishiga kundalik ikir-chikir tashvishlar halal berolmaydi»[2] - deydi Nasafiy. Ahmad Yassaviyning juda chuqur va boy mazmunga ega bo‘lgan «Devoni hikmat»ida mutafakkirning so‘fiylik- falsafiy dunyoqarashi o‘zining butun borligi bilan o‘quvchi diqqatini rom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Tasavvuf . Toshkent . 2009.
2. Islom tasavvufi manbalari (tasavvuf nazariyasi va tarixi) ilmiy majmuas . Toshkent. 2005
3. Usmon T. Tasavvuf tarixi . Istiqlol

O‘ZBEKISTONDA OILA HUQUQI TARIXI

Zulayho Ibragimova Karimboyevna
Xorazm viloyati yuridik texnikumi kafedra mudiri,

Donoxon Yo‘ldosheva Baxromovna,
Donaxon Janibekova Omanbayevna
Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘quvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila huquqining mamlakatimizda yaratilish tarixi haqida batafsil so‘z yuritiladi. Shuningdek, oilaning jamiyatda tutgan o‘rniga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyat, huquq, Turkiston, nikoh, er-xotin, “Avesto”, Sug‘d arxivi.

Oila jamiyatning ustunidir. Oila davlatning kichik bir ko‘rinishi desak ham aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Mamlakatimizda oilaga, oilaviy masalalarga alohida e’tibor bilan qaralgan. Shuningdek, O‘zbekistonda oila huquqining ham o‘ziga xos yaratilish tarixi bor. Quyida bu haqida bir nechta manbaalarga tayangan holda batafsil so‘z yuritamiz.

O‘zbek xalqi Turkistonning qadimiy xalqlaridandir. Bu jumhuriyat hududlarida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlarda isbotlangan va tasdiqlangan. O‘zbek xalqining vujudga kelishi, rivojlanishi va uning ko‘payishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Xalqlar ko‘payishining birdan-bir asosi ularning nikoh va oila munosabatlarida bo‘lishidir. Juda qadim vaqtlarda hozirgi tushunchadagi nikoh va oila munosabatlari bo‘lmagan. Dastlabki vaqtlarda guruhiy nikoh, ya'ni bir guruh ayollar bilan bir guruh erkaklar o‘rtasida umumiy er-xotinlik, yaqin qarindoshlar o‘rtasida jinsiy aloqalar bo‘lgan. Zardushtiylik dinining asoschisi va Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda yaqin va O‘rta Sharq, ayniqsa, Xorazm xalqlari ko‘p asrlik ijodining mahsuli, bir qancha elatlarning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-nafosat va ahloqiy-ta'limiy qarashlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lgan "Avesto" kitobining muallifi Spitama Zaradushtra oilaviy turmush masalalarida juda qiziq ma'lumotlarni beradi. “Avesto”da insoniy burch faqat axloqiy yo‘l-yo‘riqlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to‘g‘risida ham o‘ylashi zarurligi ta'kidlanadi. O‘sha

davrda erkaklar roppa-rosa 16 yoshidan uylanib, bir nechta xotin olish huquqiga ega bo‘lgan. Hamma vaqt birinchi xotin boshqalariga bosh bo‘lgan”.

“Avesto”da qayd etilishicha, erkak kishi, avvalo, uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to‘q va jismonan baquvvat bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘z vaqtida ovqatlanishi zarur, aks holda erkak kishi o‘z xizmat va axloqiy burchlarini bajara olmaydi. “Yeb ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishga kuchi bo‘lmaydi, er-xotinlik vazifasini ado etishga quvvati yetmaydi, bola tug‘dira olmaydi” (“Yasna”, 33, 3-bob). Umuman, zardushtiylikda oilaviy burch va farzand tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Bu o‘rinda “Avesto” tadqiqotchisi H. Homidovning fikrini keltirib o‘tish o‘rinlidir: “Erkak zuryod qoldirish qobiliyatiga ega bo‘lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg‘a bosishar yoki beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur qilishardi. Ba'zan bunday erkakni qopga solib kaltaklashgan. “Avesto”da qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug‘ qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko‘p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, bir yo‘la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtiriladi”.

Patriarxal oila Markaziy Osiyo xalqlarida oilaning eng dastlabki tarixiy shakli hisoblangan. Bu oila ayni zamonda jamiyatning asosiy ishlab chiqarish jamoasi ham bo‘lgan. Shuning uchun oilaviy munosabatlarga, har bir oila a'zolarining xatti-harakatlariga alohida e'tibor berilgan. Markaziy Osiyoda patriarxal oila eramizdan oldingi birinchi ming yilliklarda vujudga kelgan. Uning eng rivojlangan davri eramizning birinchi asrlariga to‘g‘ri keladi. Oilaning bo‘linib ketishi, o‘rniga kichik-kichik oilalarning tarkib topishi eramizning birinchi ming yilligi o‘rtalaridan boshlanadi va deyarli XX asrlargacha davom etdi. Kichik oilalarning vujudga kelishi bilan birga nikohning shart-sharoitlari ham o‘zgarib boradi. Patriarxal oila mavjud sharoitlarda nikoh shartlari ancha qat'iy va cheklangan edi.

Nikoh-bu erkak bilan ayol o‘rtasidagi muayyan ittifoqning va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi va ma'qullanishining tarixiy shaklidir. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning fikricha, bironta ham xalq nikohdan holi emasdir. Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi, er-xotin, ota-ona va farzandlar o‘rtasida axloqiy, huquqiy majburiyatlar o‘rnatadi. Nikoh jinsiy ehtirosni mahfiylik pardasiga o‘raydi, er-xotin orasidagi tabiiy munosabatga axloqiy, ma'naviy go‘zallik, andisha baxsh etadi. Nikoh (arabcha - qo‘shilish) so‘zi o‘zbek tiliga arablardan kirib kelgan. Arab istilochilari islom dini qoidalarini o‘rnatish maqsadida Markaziy Osiyo xalqlarining islomdan oldingi dini bilan bog‘liq bitiklarni, ma'lumotlarni yo‘q qilib yuborganlar. Bu bilan madaniyatimiz rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatganlar. Buyuk bobokalonimiz

Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida bergan xabariga qaraganda, Markaziy Osiyoni fatq etgan arab lashkarboshisi Qutaybaning buyrug‘ig‘a ko‘ra Xorazm yozuvini yaxshi biladigan va uni boshqalarga o‘rgatadigan kishilar o‘ldirilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ayrim tadqiqotlar islomgacha bizda erkak va ayol o‘rtasida nikoh degan tushuncha bo‘lmagan, deb e'tirof etadilar. Bu fikr haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Qadimgi grek tarixchisi Strabonning (miloddan av. 64-63-mil. 23-24 yillar) yozishicha, har bir massagetning o‘z xotini bo‘lgan. Ana shu tarixchining fikriga qaraganda, erkaklar va ayollar jinsiy hayotda muayyan erkinliklarga ham ega bo‘lganlar. Umuman olganda, Markaziy Osiyoda ayollarga qadimdan katta hurmat bilan qaralgan. Ular jamiyatda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanishgan. Gerodotning “Tarix” nomli asarida vatanparvar ayol To‘maris haqida keltirilgan tarixiy ma'lumot bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bunga ko‘ra, Turon aholisi To‘maris boshchiligida bosqinchi Qayxusrav armiyasiga qaqshatqich zarba beradi. Boshqa bir qadimgi grek tarixchisi - Elion qoldirgan ma'lumotga ko‘ra, Markaziy Osiyodagi yirik qabilalardan biri bo‘lgan saklarning odatlari bo‘yicha uylanishni istagan har bir yigit o‘zi uylanmoqchi bo‘lgan qiz bilan yer osti uyida kurash tushishi shart bo‘lgan. Yigit kurashda g‘alaba qilgan taqdirdagina uylanish huquqiga ega bo‘lgan. Aks holda o‘ning o‘zi qizning asiriga aylangan. Demak, bu yerda kurash o‘ziga xos tarzda nikoh vazifasini bajargan.

Markaziy Osiyo xalqlarining mashhur dostonlari - “O‘g‘o‘znoma”, “Alpomish” va “Manas”larda nikoh bilan bog‘liq odatlarda yigitning jismoniy qobiliyatlariga va uni sinab ko‘rishga alohida ahamiyat berilgan. Yigitning qizga munosib yoki munosib emasligini aniqlash uchun talabgorlarning o‘zaro ot poygasi, kamonda nishonni urishi, uzoqqa o‘q o‘zishi, kurash tushishi kabi raqobatchilik shakllaridan ham foydalanilgan. Shuningdek, bu tanlov “Qiz quvlash”, “Tortishmachoq“ singari ko‘rinishda ham o‘z ifodasini topgan, ularning qoldiqlari hozirgacha yetib kelgan. Lekin ana shu kurashlar, qiz quvlashlar chog‘ida qanday so‘zlar, duolar ishlatilganligi haqidagi xabarlar bizgacha yetib kelmagan yoki tarixchilar bunga e'tibor berishmagan. Lekin sug‘d yozma yodgarliklaridan bu xususda ancha ma'lumotlar topish mumkin. Eramiz boshlaridan to X-XI asarlarga qadar yozilgan ana shunday noyob sug‘d yozma yodgorliklari bizgacha yetib kelgan. Panjikent yaqinidagi Mug‘ tog‘i tepasidagi qadimgi qasr harobasidan 80 ga yaqin sug‘d hujjatlari topilgan. VII asr oxiri -VIII asr boshlariga oid bu hujjatlar Sug‘d arxivi deb yuritiladi. Ular orasida tadqiqotchilar tomonidan shartli ravishda “Nov. 3” (Navekat nomli shaharda tuzilgan hujjat bo‘lgani uchun) deb belgilangan sug‘dcha nikoh guvohnomasi, “Nov. 4” deb belgilangan kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari bayon etilgan ikki hujjat

bor. Mazkur hujjatlar qadim va ilk o‘rta asrlardagi O‘zbekiston xalqlarining nikoh-oila va u bilan bog‘liq mulkchilik va boshqa ijtimoiy munosabatlari to‘g‘risida hikoya qiluvchi muhim yodgorlikdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, jamiyat, davlat, insoniyat taraqqiy etgani sari oila huquqi ham yanada takomillashib boraveradi. Zeroki, inson bor ekan, oila bor, oila bor ekan, jamiyat bor, jamiyat bor ekan, davlat bor, davlat bor ekan, huquq bor.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining oila huquqi. Toshkent -2005
2. Ahmedov B. O‘zbek ulusi. –T. : Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992.
3. Yo‘ldoshev J. Hasanov S. Avestoda axloqiy-ta'limiy qarashlar. T. , “O‘qituvchi”, 1992.
4. Homidov X. “Shohnoma”ning shuhrati”. T. , “O‘zbekiston”, 1991.

MASHG‘ULOTLARDA TALABALARNI FAOLLIGINI OSHIRISHGA YO‘NALTIRUVCHI QIZIQARLI TOPSHIRIQLAR MAJMUI

Ravshanoy Xamrakulova
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
ravshanoyhamrakulova@gmail. com

Hilola Tuychiyeva
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi


Dilshoda Qodirova
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada mualliflar mashg‘ulotlar davomida talabalarni faolligiga ko‘maklashuvchi savol va topshiriqlar haqida fikr yuritadilar. Bundan tashqari, ushbu topshiriqlarni nomlari, qanday tartibda olib borilishi kerakligi bo‘yicha yo‘riqnomalar beriladi.

Kalit so‘zlar: muz davri, ice-breaking methods (muzyorar), case study, tomorqa, so‘z o‘yini.

Avvalo, o‘qituvchilarning mashg‘ulotga tayyor ekanligi mashg‘ulotni qiziqarli o‘tishining dastlabki sababi bo‘lib xizmat qiladi. Yosh mutaxassislarning bilimi bo‘lishi mumkin, lekin ularning mashg‘ulot uchun mo‘ljallangan dars rejasini yo‘qligi o‘quvchilarga to‘g‘ri va samarali bilim berishiga to‘sqinlik qiladi. Buning asosiy sababi shundaki, o‘quvchilarning fiziologik va ruhiy olamining turfaligidadir. Ularning har biriga e’tiborini qaratib dunyoqarashiga yo‘l topguncha mashg‘ulot uchun ajratilgan vaqt o‘tib ketadi. Oqibatda, o‘qituvchi ham o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha olmaydi. Shuning uchun biz yosh kadrlarga dars rejasini berilgan darslik va qo‘llanmalar asosida tayyorlash kerakligini aytib o‘tmoqchimiz. Ularga tayangan holda tayyorlangan ish rejasi o‘qituvchilarga yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib xizmat qiladi. Keyinchalik yillar o‘tib, dars jarayonining asosini tushunib olgandan so‘ng, qo‘shimcha o‘yin va topshiriqlarni darsga moslab foydalanishga o‘rganadilar. Biz mualliflar bilan birgalikda quyida bir qator mashg‘ulotlar davomida talabalarni faol bo‘lishiga turtki bo‘luvchi topshiriqlarni ko‘rib chiqamiz. Masalan, yangi o‘quv yili, fan va fan o‘qituvchisi talabalar uchun yangi. Holat sizga tanish bo‘lsa kerak, talabalar ham o‘qituvchi ham mashg‘ulot qanday bo‘lishi haqida o‘ylab

hayajonlanadilar. Ushbu holatni “Muz davri” deb ataydilar, ya’ni xona jimjit, talabalar o‘qituvchining qanday ekanligini va ularga muomalasi haqida fikr yuritadilar. O‘qituvchi talabalarni mashg‘ulotga tayyorlagarlik ko‘rishlari uchun yordam berishi kerak. Bizga bunda “muzyorar” (ice-breaking methods) yordam beradi. Masalan, o‘quvchilar “Agar men … bo‘lganimda” nomli o‘yin orqali o‘zlarini tanishtirishlari mumkin. Ushbu topshiriqni quyidagicha bajaradilar. “Mening ismim Roziya. Agar men qush bo‘lganimda, kabutar bo‘lgan bo‘lar edim, chunki u chiroyli va oqko‘ngil. U ucha oladi va yaxshilik elchisi. Ushbu topshiriq orqali biz o‘qituvchilar talabalarning qiziqishlari va dunyoqarashi haqida biroz tasavvurga ega bo‘lamiz. Har bir o‘qituvchi o‘zining mavzusiga qarab moslashi mumkin. Talabalar hayvon, hasharot, qush yoki baliq turlaridan ham tanlab aytishlari mumkin. Masalan, Mening ismim Anvar agar men hasharot bo‘lganimda, men chumoli bo‘lardim, chunki u juda ham mehnatkash va xalqparvar. U ekinlarning urug‘i bilan oziqlanadi. Yana bir o‘ziga xos “Muzlik davri” ni eritib yuboruvchi topshiriqlardan biri “O‘z odamchangizni yasang”. Bu topshiriqni bajarish uchun fan o‘qituvchi har bir talabadan bir varaq qog‘oz olishni so‘raydi va o‘zi ham olib namuna tarzida jarayonni ketma-ketlikda tushuntiradi. Qog‘ozni oling, uzunasiga teng ikkiga buklang, qo‘llaringizda odamchani boshini qirqishdan boshlang va uzmagan holda oyoqlarigacha qirqing. Faqat ushbu faoliyatni qo‘lda qirqib bajaradilar. So‘ngra xohishlariga qarab ko‘rinishini chizadilar va orqasiga ismining bosh harfiga qarab yoqtiradigan va yoqtirmaydigan turli meva va sabzavotlar, taom turlari va boshqalar haqida yozib hammaga ko‘rsatib tushuntiradilar. Quyidagi 1-rasmda o‘quvchilar bajargan topshiriqdan namunalar ko‘rsatilgan.



1-rasm

Ushbu faoliyat turi o‘quvchilarni bilimlarini tekshirish bilan birga kayfiyatini ko‘tarilishiga turtki bo‘ladi. Mashg‘ulot davomida o‘zlashtirilgan yangi so‘z va iboralarni mustahkamlash uchun qiziqarli o‘yinlardan biri quyidagicha olib boriladi. Fan o‘qituvchisi doskaga yangi so‘zlarni dars davomida yozib tushuntiradi. Talabalarga doskadagi so‘zlarni bir qator ko‘zdan kechirib olishlarini va undan so‘ng ko‘zlarini yumishini aytadi. O‘qituvchi talabalarni qaramayotganini tekshirib doskadagi so‘zlarni o‘zining xohishiga ko‘ra o‘chiradi. Kim birinchi qaysi so‘zni o‘chirganini aytsa ballar yig‘adi.

Biologiyani o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llashning asosiy mohiyati-mashg‘ulot davomida barcha talabalar o‘quv-bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etayotgan muammolar, voqea va hodisalarni rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo‘llarini izlab, eng maqbul variantini tavsiya etadi. [1] Talabalarni erkin fikrlarini namoyon etishda keys stady juda samarali natija beradi. Case study orqali fanga aynan mavzuga doir muammoli vaziyat yoki muammoli savol butun guruhga taqdim etiladi. Har bir talaba ushbu vaziyat yoki savolga erkin fikrini namoyon qiladi. Case studyni savol-javobdan farqi shundaki, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri degan fikr yo‘q. Har bir talabaning fikri muhim bir fikr sifatida tinglanadi va tahlil qilinmaydi. Bu orqali har bir talabani erkin fikrlash,


fikrlarini erkin namoyon qilish qobilyati rivojlanadi. Masalan, biologiya faniga oid “Case study” “Tuxum birinchi paydo bo‘lganmi yoki tovuq” kabi savollarni berishimiz mumkin. Matematikani chet tillarini o‘qitishga samarali integratsiya qilish uchun o‘qituvchilar o„z darslarini puxta rejalashtirishlari va o‘quv dasturlarini ishlab chiqishlari kerak. Ular matematik tushunchalar va faoliyatlarni turli tillarni o‘rganish vazifalariga, masalan, lug‘at mashqlari, grammatika mashqlari yoki o‘qishni tushunish mashg‘ulotlariga kiritishlari mumkin. [2] Matematikaga oid mashg‘ulotni qiziqarli bo‘lishi uchun quyidagicha “So‘z o‘yini” nomli topshiriqni berishimiz mumkin. Masalan, “Noma’lum son qatnashgan tenglik nima?” (tenglama). Shu kabi ta’riflarni o‘qituvchi beradi, talabalar esa javobini topadilar. Xorijiy tillarda o‘tilgan mavzularni mustahkamlash va darslarni qiziqarli olib borish uchun “Colours”, Opposites” kabi “Tomorqa” nomli o‘yinni talabalarga bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dastlab, o‘qituvchi qutidan tomorqa yasaydi, qattiq qog‘ozdan sabzilar qirqib orqasiga zid ma’noli so‘zlarni, ranglarni va boshqa mavzuga oid yangi so‘z va iboralarni yozib tomorqada kichikroq teshikchalar qirqib, sabzilarni joylaydi. Talabalar navbat bilan kelib, stolga maxsus qo‘yilgan tomorqadan birdaniga ikkitadan sabzini tortib oladi. O‘yinda muvaffaqiyatga erishish uchun ikkala sabzidagi so‘zlar bir-biriga mos kelishi kerak. Masalan, birinchisida “Big” (katta) bo‘lsa, ikkinchisida “Small” (kichkina) so‘zi bo‘lishi kerak. Ushbu o‘yin namunasi quyidagi 2-rasmda ko‘rsatilgan.



2-rasm

Bizning fikrimizga ko‘ra, tilni o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish so‘zlovchining hayotiy tajribasi va muhiti orqali yuzaga chiqadi. [3] Ba'zi ingliz tili o‘qituvchilari talabalarning bilimini oshirish uchun yangi usullardan foydalanishni yaxshi ko‘radilar. Biroq, ular sinfxonadagi jihozlardan foydalanish o‘rniga, haqiqiy

atrofimizdagi hayotdan olingan narsalardan foydalanadilar. [4] Realia (hayotdan olingan) – bu hayotda mavjud narsalardan foydalanib, mashg‘ulotni tushuntiradilar. Masalan, mashg‘ulotning mavzusi “Oshxona anjomlari” bo‘lsa, qoshiq, piyola, kosa kabi anjomlarni ko‘rsatib tushuntirsa bo‘ladi. Lekin, realiani salbiy tomoni shundaki, katta o‘lchamdagi jihozlarni, hayvonlarni xonaga olib kirish qiyinchiliklar tug‘diradi. Talabalarni og‘zaki nutqini va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini o‘stirish maqsadida quyidagicha o‘yinni topshiriq qilib bersak bo‘ladi. Bunda bizga ikkita A3 formatda qattiq qog‘oz beriladi. Qog‘ozda yuzni ifodalash uchun sochlari chizilgan bo‘lishi kerak. Har bir talabaga qog‘oz beriladi va maxsus tayyorlangan yuzning turli o‘lchamdagi qismlari stolni ustiga qo‘yiladi. Talabalar ko‘rmagan holda boshqa bir talaba bergan ta’rifga ko‘ra yuzga qismlarni yopishtiradi. Ushbu jarayonni quyida berilgan 3-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



3-rasm

Talabalar ko‘rmagan holda berilgan ta’rifga qarab topshiriqni bajaradilar. Bunda ularning tinglash va gapirish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bundan tashqari, yana bir qator o‘yin va topshiriqlar mavjud. Masalan, “A what” (bu nima?), “Find your partner” (sherigingizni toping), “Voleybol-basketbol” kabi o‘yin va topshiriqlar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘qituvchi qanchalik darsga tayyorlanib kirsa, talabalarga bilim berish shunchalik oson va qiziqarli bo‘ladi. Har bir o‘rganuvchi o‘ziga xos dunyoqarashga va ko‘nikmaga ega bo‘lib, fan o‘qituvchilari ularga ta’lim berishda o‘zgacha yo‘l topa olishlari maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuychiyeva H. BIOLOGIYANI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING XUSUSIYATLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – №. 28

2. Ahmadjon o‘g‘li, R. A. , & Abdulaxatovna, X. R. (2023). MATEMATIKA FANINING CHET TILINI O ‘QITISHDAGI AHAMIYATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(10), 253-256.

3. Xamrakulova, R. (2023). TURLI SOHA VAKILLARIGA CHET TILINI O‘QITISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(2 Part 2), 45-49.

4. Ravshanoy, M. S. T. U. K. (2023). REALIA AND ITS USAGE. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(10).

5. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023, January). Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari. In international conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 378-380).

6. https://blog. hubspot. com/marketing/ice-breaker-games

7. https://www. indeed. com/career-advice/career-development/case-study

8. https://www. merriam-webster. com/dictionary/realia

KAOLINNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA UNING BOYITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Abbosxon Turdiev Baxtiyor o‘g‘li
Bahodirjon Hoshimov Baxromjon o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali “Metallurgiya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu ishda Angren kaolini tarkibi o‘rganildi va ushbu tarkibga asosan hozirgi kundagi kaolinni boyitish, qayta ishlash usullari tahlil qilindi. Va yakunda kaolinni boyitish va qayta ishlashning samarali usuli taklif qilindi.

Kalit so‘zlar: Kaolinit, kvars, dala shpatlari, saralash, ajratish, boyitish, reagnentlar, natriy gidroksid, ph ko‘rsatkichi, alyuminiy(III)oksid, temir(III)oksid.

Annotation: In this work, the composition of angren kaolin was studied and, based on this composition, the methods of enrichment, processing of the present-day kaolin were analyzed. And in the end, an effective way to enrich and process kaolin was proposed.

Keywords: kaolinite, Quartz, Field slate, sorting, separation, enrichment, reagnents, sodium hydroxide, pH indicator, aluminium(III)oxide, iron(III)oxide.

Kirish.

Kaolin xom ashyosini boyitish massaning tarkibi va texnologik xususiyatlarini barqarorlashtirishga yordam beradi, mahsulot sifati va asbob-uskunalar unumdorligini oshiradi, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Kaolinlarni boyitish jarayoni ulardan asosiy gil minerali – yirik o‘lchamli aralashmalar va rang beruvchi oksidlardan tozalangan kaolinitni ajratishni ta'minlaydi. Kaolin tabiatda kaolinit, kvars, dala shpatlari, slyuda, temir va titan saqlovchi birikmalardan tashkil topgan polimineral aralashma holida uchraydi [1].

Maqolada [2] kaolin xomashyosini boyitishning turli usullari tahlil qilingan va uning sifatini oshirish uchun eng samarali texnologik usullar tavsiya etilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra boyitish jarayonida temir birikmalari katta fraksiyalar bilan olib tashlanmaydi, chunki Fe_2O_3 ning maksimal miqdori nozik disperslangan temir o‘z ichiga olgan minerallarda 0, 063 mm dan kam bo‘lgan fraksiyalarda mavjud. Boyitish jarayonidan maqsad qazib olingan tabiiy xomashyo tarkibidagi qimmatli mineral hosil qiluvchi jinslar miqdorini oshirish, uning sifatini oshirishdan iborat. Boyitish usullari mineral xom ashyo tarkibiy qismlarining fizik-kimyoviy xossalari - zichligi, qattiqligi, eruvchanligi, elektr o‘tkazuvchanligi va magnit sezgirligi, alohida

suyuqliklarning namligi va boshqalarning fizik-kimyoviy xususiyatlaridagi farqga asoslanadi. Hozirgi vaqtda kaolin xomashyosini boyitish uchun quruq, nam, kimyoviy, aralash va boshqa qayta ishlash usullari qo‘llaniladi. Quruq boyitish usulining mohiyati shundan iboratki, kaolin namligi 3%–5% gacha oldindan quritiladi, so‘ngra kaolinlarni tashkil etuvchi mineral donalar o‘lchamidagi farqdan kelib chiqqan holda tanlab maydalash va havo tasnifiga (ajralish) o‘tkaziladi. Quruq usulda texnologik sxema sezilarli darajada soddalashtirilgan, ammo asosiy komponentning sezilarli yo‘qotishlari kuzatiladi. Kaolin boyitishning quruq usuli kaolin xom ashyosidan 80-82% qimmatli fraksiyalarni ajratib olishni ta'minlaydi. 0, 06-0, 08 mm dan ortiq yirik donli aralashmalarni o‘z ichiga olgan kaolinlarni boyitishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kaolinni boyitishning quruq usulining afzalliklari quyidagilardan iborat: kamroq mehnat sarfi, suvsiz joylarda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoniyati, elektrolitga ehtiyoj yo‘qligi, ixcham uskunalar. Ushbu usulning kamchiliklari mahsulotning nisbatan past sifati, havo tasnifi paytida ushlanib bo‘lmaydigan eng qimmatli mayda fraksiyaning sezilarli yo‘qotishidir, bu kaolinning plastikligi va bog‘lanish qobiliyatini yomonlashtiradi. Nam boyitish jarayonidan oldin tanlab maydalash (tishli maydalash rulonlari yordamida kaolin 100 mm dan kichik bo‘laklarga maydalanadi) va yanchish (yanchish tegirmonida kaolin va kvartsning mayda zarralari bo‘lgan suspenziya hosil bo‘ladi) amalga oshiriladi. Flotatsiya zarrachalarni zichligi va kattaligi bo‘yicha tasniflashga, shuningdek, alohida minerallar donalarining suv bilan har xil namlanishiga asoslanadi. Odatda puch jinslar bo‘lgan oson namlangan minerallar pulpa ichidagi havo pufakchalariga yopishmaydi va flotatsiya apparatining pastki qismida to‘planadi. Foydali minerallar havo pufakchalari bilan ko‘tariladi va ko‘pikda to‘planadi. Boyitishning dastlabki bosqichi kaolinning maksimal hosildorligi (taxminan 50 %) bilan tavsiflanadi.

Quyida kaolin va boshqa minerallarni qo‘shimchalardan tozalashning takomillashtirilgan usullari taqdim etilgan. Xususan, ushbu ixtiroda gidrosulfit yoki bisulfit materialidan kaolinni va boshqa minerallarning yorqinligini oshirish va rang beruvchi qo‘shimchalarni kamaytirish uchun foydalaniladi. Ushbu ishda jarayon kaolin va oqartiruvchi moddalar aralashmasi kislotali muhitda pH ko‘rsatkichi 2, 8 - 3, 2 ga teng diapazonda amalga oshiriladi. Optimal harorat 40-50 °C, davomiylik muddati 0, 75 yoki 0, 5 soat.


Nisbatan ko‘p miqdorda temir va organik aralashmalarni o‘z ichiga olgan cho‘kindi kulrang kaolin ozon gazining mayda bo‘lingan pufakchalarini mineralning suyuq, suvli ko‘rinishiga kiritish orqali qo‘shimchalardan tozalanadi. Slip kislotalanadi, flokulyatsiya qilinadi, filtrlanadi va yuviladi. Mazkur ishda pH


ko‘rsatkichi 7 dan 9 gacha bo‘lgan qiymatlarda samarali ekanligi aniqlandi. Ozonning sarfi 1 t kaolin uchun 1, 4-4, 5 kg.

Mualliflar tomonidan yaratilgan kaolinni qo‘shimchalardan tozalashning mazkur usuli sifatli kaolin olishda uning tarkibidagi rang beruvchi modda bo‘lgan temirni yo‘qotishga asoslanadi. Ixtironing texnik natijasi - yangi Fe (II) birikmalarining hosil bo‘lishi va ularni to‘liq olib tashlash bilan Fe (III) ning qaytarilishining kuchayishi tufayli kaolin oqligining oshishi va sarg‘ishligining pasayishi bilan ifodalanadi. Bu natijaga xomashyoni deferrizatsiya yo‘li bilan oqartirish orqali erishiladi , bu kaolin suspenziyasini tayyorlash, unga tabiiy mikroflorani faollashtiradigan ozuqaviy muhitni kiritish va suspenziyani o‘z vaqtida doimiy haroratda ushlab turish, keyin magnit ajratish va ammoniy oksalat eritmasi bilan yuvish orqali hosil bo‘lgan qoldiqni kimyoviy tozalash orqali erishiladi. Taklif etilayotgan texnik yechimga ko‘ra , Fe(III) ning bioreduksiyasi ozuqaviy muhit bilan birgalikda kaolin tabiatiga o‘zlarining metabolik mahsulotlari bilan moslashgan aerob va anaerob bakteriyalarning faol senozi ko‘rinishidagi inoklumni kiritish orqali kuchaytiriladi. Kiritilgan inoklum va kaolin suspenziyasining hajm nisbati 1÷4 ni tashkil qiladi. Quruq kaolin massasiga nisbatan suspenziyani o‘z vaqtida ushlab turishning harorat rejimi 20÷30°C ni tashkil qiladi va uni oksidlanish-qaytarilish potentsiali pH 7, 0±1, 0 gacha o‘rnatilguncha ushlab turiladi. Suspenziyaga keyingi kimyoviy ishlov berishdan oldin magnit ajratish amalga oshiriladi. Ushbu usulning kamchiligi anaerob bakteriyalarning past o‘sish sur'ati va shunga mos ravishda ularning metabolik mahsulotlarining sekin to‘planishidir. Taklif etilayotgan texnik yechimning maqsadi Fe(III) oksidining yangi Fe(II) oksidi birikmalarini hosil qilish bilan qaytarilishini kuchaytirish va kaolinni keyingi qayta ishlash jarayonida ularni samarali olib tashlash orqali kaolinni oqartirish samaradorligini oshirishdan iborat.

Ushbu mualliflik ishining maqsadi NH_4HF_2 va NH_4F ning suvli eritmalarida kaolin kontsentratlarini boyitishning ftoridli gidrokimyoviy usulini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, ularni turli xil foydali komponentlarni kompleks ajratib olish bilan qayta ishlash imkonini beradi. Chalgan konining (Amur viloyati) kvars-kaolin-dala shpati xomashyosini boyitish natijasida olingan KM-1 va KN-73 markali kaolin kontsentratlari tadqiqot ob'ektlari bo‘ldi. Kaolin kontsentratlarining tarkibi asosan qatlamli silikatlar va qo‘shimcha anionli aluminosilikatlar kichik sinfiga kiruvchi kaolinit $Al_4[Si_4O_{10}](OH)_8$ mineralini o‘z ichiga oladi. Kaolin kontsentratlarida alyuminiy oksidi miqdori 37 % ga yetadi, bu o‘rtacha sifatli boksit rudalari tarkibiga teng. Kaolin kontsentratlarini qayta ishlash uchun NH_4HF_2 va NH_4F ning suvli eritmalari qo‘llanilgan. Reaksiyalar normal sharoitda davom etadi, ularning

qizdirilishi ftoridni boyitish muddatini sezilarli darajada qisqartiradi. Dastlabki kaolin kontsentratlari maydalangan va teflon tigel yoki stakanlarga joylashtirilgan. Keyin ammoniy ftoridlarning suvli eritmalari qo‘shildi va termostatda ma’lum haroratlarda va tajribalar davomiyligida saqlanadi. Olingan mahsulotlar filtrlash orqali ajratiladi. Amorf kremniy oksidi va alyuminiy gidroksidi sintezi floroplastdan tayyorlangan gidroliz apparatida amalga oshirildi. Ammiakli suvni qayta tiklash floroplastikadan tayyorlangan qurilmada, NH_4HF_2 ni amalga oshirildi, laboratoriya bug‘latgich-kristalizatorida o‘tkazildi. Alumina sintezi maxsus elektr pechda amalga oshirildi. Ushbu ish Rossiya fundamental tadqiqotlar jamg‘armasi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi (loyiha № 14-05-00239a) (1. 1-rasm).





1. 1-rasm. Kaolin kontsentratlarini ftorid gidrokimyoviy qayta ishlash jarayonida material oqimlarining texnologik sxemasi.

Xulosa: Yil sayin alyuminiyga ehtiyojning ortib borishi natijasida past sifatli alyuminiy xomashyolari, jumladan kaolinni qayta ishlab uning tarkibidan kerakli komponentlarni sifatli ajratib olish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ikkilamchi xomashyo sifatida to‘planib yotgan kaolindan alyuminiy oksidini olish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xorijiy mamlakatlarda kimyoviy boyitish usuli ya’ni reagentlar yordamida qo‘shimchalardan tozalash keng tarqalgan bo‘lib, Chexiyada kaolin suspenziyasini gidrosulfit bilan oqartirish usuli qo‘llaniladi, bu kislorodsiz muhitga ega reaktorlarda gidrotsiklon bilan boyitilgandan keyin amalga oshiriladi. AQSHda kaolinni oqartirish gidrosulfat bilan sulfat kislotali muhitda olib boriladi. Germaniyada qog‘oz sanoatida qo‘llaniladigan kaolinni oqartirishda temir birikmalari bo‘lgan kaolinga natriy sulfat bilan, hosil bo‘lgan temir tuzlariga esa fosfor kislotasi bilan ishlov beriladi. Ammo mazkur usullarni Angren kaolinini boyitishga qo‘llab bo‘lmaydi, sababi, boshqa davlatlardagi kaolin bilan Angren kaolinining tarkibi, sifati, mavjud qo‘shimchalar turlicha bo‘lib, qo‘llaniladigan texnalogiya ham farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Закиров М. З. , Гончаренко А. И. «Каолин Ангренского месторождения ипути их использования». В кн. :Генезис и ресурсы каолинов и огнеупорных глин. – М. : Наука, 1990.

2. СПОСОБ ОТБЕЛИВАНИЯ КАОЛИНА aspx © ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г. В. Плеханова» https://www. rea. ru/ru/org/managements/orgnirupr/Pages/2582164.

3. Maurice Lynwood Atkinson, Mary Elizabeth Methods for bleaching kaolin clay and other minerals and bleached products obtained by the method EP1146089A1European Patent Office https://patents. google. com/patent/EP1146089A1/en

4. Bekmaxamatovich, K. S. , Kamolidinovich, M. S. , Abdijalilo‘G‘Li, S. S. , & Uralbayo‘G‘Li, R. I. (2024). MIS ISHLAB CHIQARISH SANOATI VA UNDA HOSIL BO ‘LUVCHI TEXNOGEN CHIQINDI MANBALAR VA ULARNING TARKIBIDAN METALLAR AJRATIB OLISH IMKONIYATLARI. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 2(1), 20-25.

METALL TARKIBLI ERITMALARDAN METALLARNI EKSTRAKSIYA USULI BILAN AJRATIB OLISH

Abbosxon Turdiev Baxtiyor o‘g‘li,
Bahodirjon Xoshimov Baxromjon o‘g‘li
TDTU Olmaliq filiali “Metallurgiya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu ishda metallarnii kambaġal eritmalari tarkibidan jahon amaliyotiga asoslanib ekstraksiya usuli bilan samarali ajratib olish usullari o‘rganildi. Xususan tarkibida oġir rangli metallar saqlagan eritmalarni yod qo‘shimchalardan ekstraksiya usuli bilan tozalash taklif etildi.

Kalit so‘zlar: ekstraksiya, ekstrogentlar, kation almashinuvchi estrogent, anion almashinuvchi ekstrogent, mis eritmasi, suvli faza, organik faza, reekstraksiya, regeneratsiya.

Anotation: In this work, methods of effective extraction with the extraction method based on world practice were studied from the composition of poor solutions of metallarnii. In particular, solutions containing heavy non-ferrous metals were proposed to be purified from iodine additives by Extraction method.

Keywords: extraction, extractions, cation exchange estrogen, anion exchange estrogen, copper solution, aqueous phase, organic phase, reextraction, regeneration.

Annotation: in this work, effective extraction methods using the extraction method based on world practice have been demonstrated from the composition of metallarnii kambagal solutions. In particular, it was proposed to purify solutions that contain oil non-ferrous metals by the method of extraction from iodine qoshimchas.

Keywords: extraction, estrogens, cation-exchanging estrogen, anion-exchanging extrogent, copper solution, aqueous phase, organic phase, reextraction, regeneration.

Ekstraksiya jarayoni suv bilan aralashmaydigan bir qator organik moddalarning metall ionlari bilan selektiv birikmalar hosil qilishi va ularni organik fazaga ajratib olish qobiliyatiga asoslangan. Ekstragentlarning quyidagi guruhlari ma'lum: solvat mexanizmi bo‘yicha ishlaydigan kislorod tarkibli (ketonlar, spirtlar, aldegidlar, oddiy va murakkab efirlar va neytral fosfor tarkibli birikmalar - tributilfosfat (TBF) va boshqalar) ekstragentlar; kation almashinuvchi (kislota alkilfosfatlar, alkil pirofosfatlar, karion va naftenik kislotalar va boshqalar) ekstragentlar; anion almashinuvchi erituvchilar (aminlar va ularning hosilalari).

Ekstragentlarga qo‘yiladigan talablar [1] [2] adabiyotlarda keltirilgan bo‘lib, bular quyidagilar: yuqori taqsimot koeffisienti va tanlovchanlik; zichliklari orasidagi sezilarli farq, yuqori fazalararo kuchlanish; yuqori ajralish darajasi tezligi, suvli fazada o‘zaro past eruvchanlik; kislotalarga, ishqorlarga va oksidlovchilarga kimyoviy ustuvorlik; miqdoriy regenerasiyaning imkoniyati va soddaligi; uchuvchanligi, yopishqoqligi va zaharlovchanligining pastligi, alangalanish haroratining yuqoriligi; sintez qilish imkoniyatining mavjudligi va arzonligi.

Mualliflar [3] ekstragent molekulasini sxematik tarzda quyidagicha tasvirlagan: RY^+X^-, R - suvda past eruvchanlikni ta'minlovchi organik radikal; Y^+ - molekulaning musbat zaryadlangan qismi (S, R, S, N, As, Sb va boshqalar); X^- - molekulaning manfiy zaryadlangan qismi (O, Sl, Br, I, ON, SH, S va boshqalar). Bunday elementlarning birikmalari soni juda ko‘p bo‘lishi mumkin va ulardan olingan ko‘plab molekulalar ekstraksion xususiyatlariga ega ekanligi aniqlangan. Spirtlar, efirlar, ketonlar, aldegidlar, kislotalar, sulfidlar, sulfoksidlar, aminlar, fosfororganik birikmalar, surma, mishyak birikmalari va boshqalar ekstragentlar bo‘la olishini aniqlagan.

Noorganik moddalarni ekstraksiya qilishda odatda suvli fazadan bir yoki bir nechta moddalar bitta ekstragent yordamida ajratib olinadi. Organik moddalar aralashmalarini ekstraksiyalash yo‘li bilan ajratishda ishlatiladigan ekstragentlar soniga qarab quyidagilar mavjud: kamida uchta komponentdan tashkil topgan tizimlarda bitta ekstragent bilan ekstraksiyalash (boshlang‘ich eritmaning ikkiga ajraladigan komponenti va ekstragent); kamida to‘rt komponentdan tashkil topgan tizimlarda ikkita ekstragent (fraksiyali ekstraksiya) bilan ekstraksiyalash (dastlabki eritmaning ikkita aralashmaydigan ekstragent orasida taqsimlanadigan ikkita komponentini ekstraksiyalash) [4].

Misni kambag‘al eritmalar tarkibidan ekstraksiya usulida organik erituvchilar bilan ajratib olish AQSh va Afrikaning bir qancha zavodlarida muvaffaqiyatli qo‘llaniladi. Ekstrasiya usulida organik fazani reekstraksiyalash bosqichida mis eritmasini (90 g/l gacha mis) olish ko‘zda tutilgan bo‘lib, u elektroliz yo‘li bilan sof katodli mis olish yoki avtoklavda cho‘ktirish orqali qayta ishlanishi aniqlangan.

Ekstraksiya yordamida xlorid kislotasi bilan tanlab eritishga misol sifatida Norvegiyadagi sanoat uskunasida mis-nikelli faynshteynni qayta ishlash keltirilgan. Xlorid kislota bilan tanlab eritish harorati 70°C bo‘lganda nikel, kobalt va temir sulfidlari erigan, Cu_2S va platinoidlar esa qoldiqda qolgan. $HFeCl_4$ shaklidagi temir tributilfosfatning kerosindagi eritmasi yordamida ekstraksiya yo‘li bilan ajratib olingan; kobalt toluolda triizooktilamin yordamida ekstraksiya usulida ajratib

olingan. $NiCl_2*6H_2O$ tozalangan eritmadan kristallanishi ko‘rsatilgan. Keyin bu tuz kuydiriladi, bug‘larni xlorid kislotasi bilan ushlab turiladi va hosil bo‘lgan nikel oksidi vodorod bilan qayta tiklanadi. Metall eritiladi va granulalanadi; uning tozaligi 99, 7% ni tashkil qilgan [6][8].

Eritmani temir va boshqa aralashmalardan tozalash uchun dastlabki mis tarkibli sulfatli eritmaga metall temir bilan Fe(III) ionlari Fe(II) ga aylanguncha ishlov berilgan. Keyin eritmaga natriy gidroksid qo‘shildi va reaksiya natijasida hosil bo‘lgan cho‘kma mis gidroksidi quyuqlashtirish yo‘li bilan suyuq fazadan ajratib olindi. Quyultirilgan bo‘tana Eskayd-110 erituvchisidagi LIX984n ning 15 % li eritmasi bilan ekstraksiya qilindi. Shu yo‘l bilan olingan mis tarkibli organik fazaga 0, 05-0, 3 mol/l konsentrasiyali sulfat kislotasining kuchsiz eritmasi bilan ishlov beriladi. Temir va boshqa qo‘shimcha elementlarni o‘z ichiga olgan suvli faza ajratilib, eritmani qayta ekstraksiyalash orqali organik fazadan mis ajratib olingan. Sof misni ajratib olish 99, 5 % ni tashkil etgan [9].

Ekstraksiya jarayonida sulfatli eritmalaridan misni ajratib olish

usuli, sulfatli eritmalarini kation almashinadigan organik seleksiyalovchi ekstragent eritmasi bilan aralashtirish orqali ekstrasiya qilish va undan keyin misli ekstrakt va ekstraksiya rafinatini olish uchun cho‘ktirish yo‘li bilan ajratishdan, hamda qayta ekstraksiyalangan eritmani flotasiya yo‘li bilan tozalash, so‘ngra filtrlash yoki koalissensiyalash orqali misni tozalangan qayta ekstraktidan elektro - ekstraksiyalash yo‘li bilan katodli mis va ishlatilgan elektrolitni olish, misni qayta ekstraksiyalash uchun sarflangan elektrolitdan foydalanishdan iborat ekanligi aniqlangan.

Tarkibida boshqa metallar bo‘lgan kislotali eritmalardan nikel (II) ni ajratib olishda sintetik α-tarmoqli uchlamchi karbon kislotalar asosidagi gidrazidlarni ekstragent sifatida ishlatishni taklif kilgan.

Nikel va kobaltni monokarbon kislotalar va xelatlanmaydigan oksimlar aralashmalari bilan ajratish usuli ish mualliflari tomonidan taklif qilingan. Ushbu usulga ko‘ra, nikelni eritmalardan ajratib olish va uni kobaltdan ajratish monokarbon kislotalarning (xususan, n-oktan kislotasi, n-dekan kislotasi, Versatic 6 va 10) va xelatlanmaydigan oksimlar (geptanaloksim, oktanaloksim va boshqalar)ning ekvimolyar aralashmalari bilan amalga oshirilgan.

Ekstragent sifatida Cyanex 923 reagentidan foydalangan holda mis elektrolitini mishyakdan ekstraksiya yo‘li bilan tozalash jarayonining qonuniyatlari ish mualliflari tomonidan o‘rganilgan.

Elektrolitlarni mishyakdan tozalash texnologiyasi ekstraksiyalashning 3 bosqichini va reekstraksiyalashning 4 bosqichini o‘z ichiga olishi kerakligi, bunda ekstraksiya bosqichida organik va suvli fazalar nisbati 1, 7:1, reekstraksiya bosqichida esa - 0, 95:1 bo‘lishi lozimligi aniqlangan. Elektrolitlarni mishyakdan tozalanish darajasi 83, 3 % ni tashkil qilgan. Tadqiq qilinayotgan jarayonning afzalliklari - mishyaknini yo‘qotishning yuqori samaradorligi, reekstraksiyalashda misning kam yo‘qotilishi, apparatlar jamlanmasining soddaligi va ishonchliligi, texnologiyani to‘liq avtomatlashtirish imkoniyati mavjudligi bilan tavsiflangan.

CYANEX 272 ekstragenti aromatik va alifatik erituvchilar bilan to‘liq aralashadi hamda qizdirish va gidrolizga juda chidamli, sulfat va xloridli muhitida kobaltni nikeldan ajratish uchun yuqori selektivlikni namoyish etgan, shuningdek kalsiy ionlarini sust ekstraksiyalashi, bu esa suyuqlik ekstraksiyasi aylanishida hosil bo‘lishi mumkin bo‘lgan gipsli ifloslanishning oldi olingan. CYANEX 272 markali ekstragent mis(II), kobalt (II) va nikel (II) ionlarini olishda samarali hisoblanadi. Mis (II) va kobalt (II) ni ajratishning imkoniyati deyarli yo‘qligi hamda mis (II) va kobalt (II) ni nikel (II) dan ajralishi pH = 5 bo‘lganda kuzatilgan.

Kislotali muhitda xloridli eritmalardan og‘ir rangli metallar va temirni ajratish, shu jumladan kobalt, mis va temirni trialkilfosfat va trialkilamin bilan birgalikda ajratib olish va metallarni alohida reekstraksiya qilish, olingan kobalt birikmalarining tozaligini oshirish ekstraksiyalash 0, 7-1, 0 mol/l alyuminiy xloridi ishtirokida 1:(2, 3-4) hajm nisbatida trioktilamin va tributilfosfat aralashmasi bilan amalga oshirilgan, kobaltni reekstraksiyalash 1, 5-2, 0 mol/l konsentrasiyali alyuminiy xlorid eritmasi bilan olinib, undan keyin mis va temirni tozalash amalga oshirilgan.

Tadqiqot ishlarida 1-{[2-(2, 4dixlorofenil)-4-propil-1, 3-ioksolan-2-il] -metil}-1N-1, 2, 4 toluoldagi triazolning xlorid kislota eritmalaridan mis (II) ni ekstraksiyalash yo‘li bilan olish o‘rganilgan. Mis (II) ni olish 3–5 mol/l konsentrasiyali HCl eritmalaridan reagent sifatida qo‘llash samarali hisoblangan. Reagent suvli fazaning kislotaligi 4 mol/l HCl gacha bo‘lganda mis (II) ni nikel (II) va kobalt (II) dan ajratib olish uchun ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatgan.

Tadqiqot ishlari mualliflari tomonidan mis (II), kobalt (II), nikel (II), rux (II) N', N'dialkilgidrazidlarning paratretbutilbenzoy kislotasi yordamida ekstraksiyasi o‘rganilgan. Mis (II) boshqa sanab o‘tilgan metallardan farqli o‘laroq, ushbu reagentlar tomonidan rN ning har xil qiymatlarida va NH_3 har xil konsentrasiyalarida olingan, bu esa uni tanlab ajratish imkonini bergan. Mis (II) ni ajratib olish rN>2 bo‘lganda boshlanadi, rN ~4 da 99 % dan ko‘proqqa etadi va NH_3~8 mol/l gacha shu

qiymatda qolgan. Ammoniy tuzlari mis (II)ni ajratib olish darajasini pasaytirishi aniqlangan.

Mis (II), rux (II), nikel (II), kobalt (II), va temir (III) ionlarini ekstraksiyasi sharoiti (pH qiymatlari, reagent miqdorining ta'siri)ni o‘rganish simmetrik 1, 2 diasilgidrazinlar va alifatik karbon kislotalar va α-tarmoqlari yuqori karbon kislotalar Versatic-10, 1, 2 diasilgidrazinlar rangli metallar ionlariga va karbon kislotalarga nisbatan ko‘proq selektiv ekstragentlar bo‘lib, reagent radikallarining tarmoqlari va uzunligining oshishi ularning ekstraksiya xossalarini va uglevodorod erituvchilar bilan mosligini yaxshilashi va shu bilan birga komplekslarini maksimal darajada ekstraksiyalanishi ishqoriy muhitlarda kuzatilgan: rux (II) –pH qiymati 10, 0–11, 5 bo‘lganda; mis (II) – pH qiymati 6, 0–9, 0 bo‘lganda; nikel (II) – pH qiymati 10, 3–10, 6 bo‘lganda; kobalt (II) – pH qiymati 10, 5–11, 0 bo‘lganda nikel (II) va kobalt (II) uchun pH>11 bo‘lganda gidroksid hosil bo‘lish reaksiyasini kuzatish mumkin

Tadqiqot Ishida umumiy formulasi

$CH_3R_IR_2CC(O)NHN(CH_3)_2$ (eritma kerosin ichida 0, 05 - 2 mol/l shaklida) ko‘rinishida bo‘lgan α-tarmoqlari uchlamchi karbon kislotalar asosida N', N'dimetilgidrazidlar xossalari ekstragent sifatida past kislotali va ammiakli muhitdan mis (II), nikel (II) va kobalt (II), NH_3 va ammoniy sulfat konsentrasiyasining ta'siri ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishida muhit pH qiymati 6-10 oralig‘ida bo‘lganda nikel (II)- kobalt (II), mis (II)-nikel (II), mis (II)- kobalt (II) ajratish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Organik faza sig‘imi 45-50 g/l gacha metall ionini tashkil etgan. Ushbu reagentlarning kamchiligi - sintezning davomiyligi, yakuniy mahsulot chiqishining pastligi (30 – 60 %), organik faza sig‘imining nisbatan pastligi (mis (II) bo‘yicha 25 - 26 g/l dan oshmaydi).

Tadqiqot ishi da α-tarmoqlari uchlamchi karbon kislotalarning $CH_3R_1R_2CC(O)NHNH_2$ fraksiyalari asosidagi gidrazid eritmalaridan foydalangan holda suyuq ekstraksiya yo‘li bilan temir va unga yo‘ldosh rangli metallar ishtirokida kislotali suvli muhitdan nikel (II) ni ajratib olish imkoniyati uglevodorod erituvchisiga (kerosin, nonan) modifikator-2-etilgeksanol qo‘shish bilan ajratib olish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Sintetik kislota eritmasidan nikel va ruxni ajratib olish uchun ekstraksiyali erituvchidan foydalanilgan. Ko‘pgina tanlab eritish eritmalari va chiqindi suvlari tarkibida rux va nikel uchraydi. Nikel va ruxni ajratish uchun bis (2, 4, 4-trimetilpentil) fosfin kislotasi (Cyanex 272) va di (2-etilgeksil) fosfin kislota (D_2EHPA) ishlatiladi. D_2EHPA tizimida muvozanat holatida pH=2, ruxni ajratib olish ko‘rsatkichi 98 % dan oshgan, nikelni ajratib olish darajasi esa atigi 0, 36 % ni tashkil etgan. Muvozanat rN qiymati 3, 5 bo‘lganda kuzatilgan, ya'ni bunday

sharoitda ruxning ajratib olinishi yakunlangan va tarkibida 99 % dan ortiq rux bo‘lgan eritmadan ruxni Cyanex 272 yordamida qayta ajratib olingan. D_2EHPA va Cyanex 272 yordamida nikelning maksimal ajratib olinishiga mos holda pH ko‘rsatkichining 4, 5 va 7, 5 qiymatlarida erishilgan. Rux va nikelni ajratib olish ko‘rsatkichi 98 % dan ortiqni tashkil etgan.

Mualliflar ishida asosan nikel va misni birgalikda ammiakli muhitdan emulsion suyuq membrana tizimiga ajratib olish darajasini emulsiyaning xomashyoga nisbati, konsentrasiyasi va pH ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi o‘rganilgan. Ekstraksiyalash jarayonida esa bu faktorlar etarlicha yordam berib, metall ionlarini yutish (shimib olish) ko‘rsatkichini, shuningdek, tozalash va tashuvchining konsentarasiyalari kabi omillarning oshishiga yordam bergan.

Taqdim etilgan adabiyotda tarkibida nikel (II) va kobalt (II) saqlagan ammiakli eritmalarda kobalt (II) ni selektiv ajratish ekstragent sifatida 8-gidroksixinolin (8-HQ) li emulsion suyuq membrana ishlatilishi ko‘rsatilgan. Membranali eritma suyultiruvchi (kerosin), sirt faol modda (ECA 4360J) va ekstragent (8-HQ) dan tashkil topgan. Membrana tarkibi dastlabki eritmaning pH ko‘rsatkichi, boshlang‘ich eritmadagi kobalt (II) va nikel (II) konsentrasiyalari, aralashtirish tezligi, ekstragentning konsentrasiyasi, haydaluvchi eritmaning pH ko‘rsatkichi va kompleks hosil qiluvchining konsentrasiyasi, shuningdek, fazalar nisbati ham o‘rganilgan.

Fosforoorganik ekstragentlar nikel va kobaltni bir-biridan ajratish uchun keng qo‘llaniladi. Maqolada Cyanex 272 asosidagi suyuq membranani qo‘llash orqali nikelni kobaltdan ajratib olish ko‘rsatkichlarining dastlabki natijalari ko‘rsatilgan.

Ekstragent sifatida (Cyanex 272, HA) [bis (2, 4, 4-trimetilpentil) fosfinli kislota] ishlatish orqali sulfatli eritma tarkibidan rux, nikel va mislarni ajratib olish bo‘yicha tadqiqot-tajriba ishlari o‘tkazilgan.

Maqola da mis, nikel va kobaltlarni yuqori ajratib olish imkoniyatlariga ega bo‘lgan gidrometallurgik sxema keltirilgan. Ekstraksiyalashda Cyanex 272 reagentining qo‘llanilishi nikelni kobaltdan ajratish imkonini bergan.

Kashfiyotda tarkibida temir va rangli metallar saqlagan kislotali suvli ertimadan nikelni ajratib olishga qaratilgan. Ekstragent sifatida sintetik a-tarmoqli uchlamchi darajali karbon kislotalar ($CH_3R_1R_2CC(O)NHNH_2$, bu erda R_1 va R_2 alkil radikallari, uglerod atomlarining yig‘indisi 10÷19 ga teng) asosidagi gidrazidlar qo‘llanilib, ular tarkibida temir (III), kobalt (II) va rux (II) saqlagan eritmadan nikel (II) ni yuqori darajada selektiv ravishda ajratib olishga erishilgan.

Kerosindagi olein kislotasi va trietanolaminning aralashmasini nikelli elektrolitni tarkibida temir (E_{Fe}=80, 46-95, 25 %) va mis (E_{Cu}=3, 5684, 25%) dan ekstraksiyalash amalga oshirilgan.

Mualliflar LIX®984N ni kerosinda qo‘llash orqali sulfatli eritmalardan mis (II) ni ajratib olish imkoniyatlarini o‘rganishgan. Tarkibida 6, 35 g/l mis (II) va 0, 58 g/l nikel (II) saqlagan sintetik mis-nikelli eritmadan 20 % li LIX® 984N qo‘llash orqali misni ajratib olish mumkinligini aniqlashgan.

Misni ajratib olishda qo‘llaniladigan: LIX 984N, LIX 612N-LV va Acorga M5640 kabi reagentlarning ta'siri muhokama qilingan. Lyubin boyitish fabrikasida ishlab chiqarilgan flotokonsentratni atmosferada tanlab eritishdan olingan suvli eritmasi ishlatilgan. Kuchli modifikasiyalangan aldoksin reagentlari (Acorga, LIX 612) o‘zgartirilmagan salisilaldoksim/ketoksim aralashmasidan (LIX 984N) ustun ekanligi ko‘rsatgan.

Ammiak-karbonatli muhitda mis va nikelni bir-biridan selektiv ravishda ajratish uchun kerosin bilan suyultirilgan LIX 984N qo‘llanilgan bo‘lib, bunda mis va nikelni selektiv ravishda jarayonda yo‘qotish, ammiakli tozalash va birgalikda ekstraksiyalash tarkibida 3 g/l dan mis va nikel yana 60 g/l ammoniy karbonat saqlagan eritmada olib borilgan.

Mis va nikelni suvli eritmalardan suyuqlik-suyuqlik ekstraksiyasi bilan ajratish erituvchi sifatida kerosindagi LIX 664N yordamida o‘rganilgan. Ikkala metall ham sulfat shaklida olingan va dastlabki eritmalardagi mis va nikel nisbati 10:1 da ushlab turilgan. Misni selektiv ajratib olish 40 % li LIX 664 N da 6000 gacha etgan. Mis ajratib olingandan so‘ng nikel saqlagan rafinatni pH ko‘rsatkichi ammiakli eritma qo‘shish orqali 9 gacha oshirilib, nikelni ajratib olishdagi LIX 664 N konsentrasiyasining ta'siri o‘rganilgan.

Tarkibida mis (II), temir (III) va rux (II) saqlagan sulfatli eritmadan misni mikroflyuidli ekstarksiyalash DZ988N (5-nonilsalisilaldoksima va 2-gidroksi-5-nonil-asetofenneoksimalarni bir hajmda olingan aralashmasi)ni qo‘llab ilk bor eni 40 mkm bo‘lgan 30 kanalga ega birlashtirilgan mikromikserda amalga oshirildi. Odatiy porsiyalab ekstraksiyalash ham taqqoslash uchun parallel holatda olib borildi. Suvli fazaning boshlang‘ich ta'siri, ekstragentning konsentrasiyasi va ($\beta Cu/Fe$ va $\beta Cu/Zn$) taqsimlanish koeffisientlarini hisobga olgan holda mis (II) ni samarali ajratib olishda oqim tezligi kabi parametrlar o‘rganilgan. Bir tomonlama tajribalarga ko‘ra dastlabki optimal ekstraksion parametrlar bu pH-1, 96, ekstraktor konsentrasiyasi 15 % va suvli yoki organik faza oqim tezligi 15 ml/min. Ushbu yaratilgan maqbul sharoitlarda β

Cu/Fe va β Cu/Zn ning mos ravishda 644 va 7417 qiymatlari bilan misning 84, 05 % i ajratib olishga erishildi.

Kerosindagi bifunksional ionli suyuqlik (IL) kerosindagi (trioktilmetilamoniy/2, 4, 4-trimetilpentilfosfinat, [A336/Cyanex 272] yordamida misni boshqa asosiy metall ionlaridan alohida ajratish uchun yangi erituvchi ekstraksiya jarayoni haqida xabar berilgan. Jarayonda qo‘llanilgan ionli suyuqlik misni boshqa Aliquet 336 yoki Cyanex 272 ekstragentlarni alohida qo‘llanilgandan afzalroq ekanligi aniqlangan. Misning nikelga, kadmiyga va temirga bo‘lgan selektivlik munosabati kerosindagi 0, 05 mol/l [A336/Cyanex 272] ekvimolyar binarli aralashmani qo‘llash orqali tadqiq qilingan. Misni eng yuqori ajralish koeffisienti βCu/Cd=8, 41 pH muhit 3, 56 bo‘lganda erishilgan.

Xulosa

Ushbu ishda o‘tkazilgan eksperemental tadqiqotlar adabiyotlar tahlili hamda mis ishlab chiqarishdagi metal saqlagan eritmalarni tarkibidan qimmatbaho komponentlari olish muamosi boyicha faoliyat yuritayotgan korxonalar amaliyoti asosida quyidagilar aniqlanadi. Ertimalar tarkibidan metallarni ekstraksiya usuli bilan ajratib olish asosan kambaġal eritmalarni qayta ishlashda qo‘laniladi va yuqori samara beradi. Agarda yuqori konsentratsiyali eritmalar uchun ekstraksiya usuli qo‘llanganda ekstrogentlar sarfi juda yuqori bo‘ladi va uni qayta tiklashda malum qismi yo‘qotiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Набойченко С. С. , Агеев Н. Г. , Дорошкевич А. П. , Жуков В. П. , Елисеев Е. И. , Карелов С. В. , Лебедь А. Б. , Мамяченков С. В. Процессы и аппараты цветной металлургии. Учебник для вузов. – Екатеринбург: ГОУ ВПО УГТУ–УПИ, 2005. - 700 с.

2. Вольдман F. М. , Зеликман А. Н Теория гидрометаллургических процессов: Учеб. пособие для вузов. 4е. изд. , перераб. и доп. М. : Интермет Инжиниринг, 2003 – 464 с.

3. Борбат В. Ф. , Лещ И. Ю. , Новые процессы в металлургии никеля и кобальта. М. , «Металлургия», 1976 – 360 с.

4. Медведев А. С. , Богатырёва Е. В. Теория гидрометаллургических процессов: Теория и практика гидрометаллургических процессов, лежащих в основе производства цветных и редких металлов // Учеб. Пособие. -М. : изд. Дом. МИСиС, 2009. –347 с.

5. Марченко Н. В. Металлургия тяжелых цветных металлов // [Электронный ресурс]: электрон. учеб. пособие. – Красноярск, 2009. –402 с.

6. Mamarahimov, S. K. , Rahimov, S. D. , & Xoliqulov, D. B. (2021). Kamyob metallar ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan chiqindi suvlar tarkibidan metallarni ajratib olish imkoniyatlarini o‘rganish. Science and Education, 2(6), 278-283.

7. Mamaraximov, S. K. , Turdiev, A. B. , & Mirzaraimov, A. A. (2024). Tashlandiq shaxtalar chiqindi suvlaridan metallarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish. Journal of Advances in Engineering Technology, (1), 22-28.

8. Xudoymuratov, S. , & Tursunova, I. (2024). RENIY METALINI OLINISHI VA QO‘LLANILISH SOHALARI. Interpretation and Researches, 2(7(29).

9. Ashurova , F. , & Xudoymuratov, S. (2024). ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASIDA HOSIL BO‘LGAN KUL VA SHLAKLARNI KOMPLEKS QAYTA ISHLASH USULLARINI O‘RGANISH. Talqin Va Tadqiqotlar.

METALL SAQLAGAN ERITMALARDAN SORBSIYA USULI BILAN METALLARNI AJRATIB OLISH

Abbosxon Turdiev Baxtiyor o‘g‘li
Bahodirjon Xoshimov Baxromjon o‘g‘li
TDTU Olmaliq filiali “Metallurgiya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu ishda sorbsiyalash jarayonining mohiyati termodinamik xususiyatlar o‘rganib chiqildi. Va yakunda turli hil metallarning maksimal sorbsiyalanish imkoniyatini beruvchi muhit o‘lchovlari taklif qilindi.

Kalit so‘zlar: Sorbsiyalash jarayoni, sorbent, pH korsatgich, konsentratsiya, mis sulfat eritmasi, smala(qatron), anion almashinuvchi qatron, kation almashinuvchi qatron, desorbsiya.

Annotation: in this work, the essence of the sorption process, the thermodynamic properties were studied. And in the end, environmental measurements were proposed, allowing maximum sorption of various homogeneous metals.

Keywords: sorption process, sorbent, pH indicator, concentration, copper sulfate solution, smala(resin), anion exchange resin, cation exchange resin, desorption.

Har xil haroratlarda ishqorli eritmalarda markasi AD–05–2 bo‘lgan uglerodli sorbentlarni nikel (II) ionlariga nisbatan adsorbsiyalash qobiliyati tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Dimetilglioksimning modifikasiyalangan sorbentlari sig‘imni oshirishga va nikelni eritmadan selektiv ajratib olish imkoniyatini beradi. Sorbsiyalash jarayonining termodinamik xususiyatlari modifikasiyalangan sorbentlar bilan jarayonning yaxshiroq borishidan dalolat beradi. Nikel ionlarini maksimal sorbsiyalanish holati pH muhit 9-11, 5 da borishi aniqlangan. Sorbsiyalash jarayoni 4 soat davom etishi, ammo asosiy jarayon esa 2 soatda tugashi kuzatilgan. Jarayonning haroratini oshirish bilan sorbsiyalash ham tezlashishi va to‘liqroq sodir bo‘lishi kuzatilgan [1][2].

Mis (II), rux (II), nikel (II), kobalt (II) va temir (II) ionlarini uglerodli nanomateriallarga adsorbsion usulda ajratib olish jarayoni o‘rganilgan. Elektrolit konsentrasiyasini 1-200 mg/l diapazonda ortib borishi adsorbsiyalash ko‘rsatkichining oshishiga olib kelgan. Konsentrasiya 200 mg/l dan ortib ketgandan

so‘ng esa hisob-kitoblarda adsorbentning adsorbsiyalash qobiliyati maksimum darajaga etib to‘xtashi va o‘zgarmay qolishi kuzatilgan [3][4].

Nikel ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan tarkibida rux, mis, temir saqlagan markasi «ch» bo‘lgan reaktiv sulfatli nikelli eritmalarni funksional guruhlar: aminouksusli (Lewatit TP207); bis-2, 4, 4trimetilpentil-fosfinli kislota (Lewatit TP272); aminofosfonli (Purolite S940) yordamida sorbsion tozalash ko‘rib chiqildi. Texnologik eritmalar tarkibida metall-qo‘shimchalar, g/l: 147, 6 Ni; 2, 02 Zn; 0, 36 Cu; 0, 17 Fe; 9, 8

H_2SO_4 va model binarli nikel – metall eritma tarkibi g/l: 75, 9–88, 6 Ni; 7, 1 Zn; 0, 52 Cu; 0, 34 Fe; 4, 7 H_2SO_4 eritmalardan sorbent sig‘imlarini statik va dinamik ko‘rsatkichlari aniqlangan [4].

Tarkibida (rux, mis, temir) saqlagan metall qo‘shimchali texnologik nikelli eritmalarni Lewatit TP207, TR272 va Purolite S940 qatronlari bilan sorbsiyalanganda elementlarni ajratib olish darajasi qattiq suyuq fazaning (Q:S) proporsional 0, 01:0, 4 oralig‘ida oshib borishi va misni ajratib olish (~64 %) va nikelni (~1 %) yuqori ajratib olish darajasi

Lewatit TP207 da, temir (III) (~49 %) esa Purolite S955 da namoyon bo‘lgan.

Shuningdek, birgalikda sorbsiyalash Zn va Fe (~8–12 %), Cu (~14 %) tashkil etgan [5].

Eritmalardan metall ionlarini sorbsiyalashdagi asosiy faktorlardan biri bu - muhitning kislotaliligi hisoblanadi. Mis birikmalarining muhitning kislotaliligiga bog‘liqligi sorbent yuzasi bilan har xil ta'sirlashishi mumkin. Shuningdek, mis saqlovchi eritmasorbent sistemasida muhitning kislotalilik darajasini sorbsion tenglikka ta'siri o‘rganilgan. Eritmaning pH muhiti 1 dan 9, 2 gacha, mis (II) ionlari konsentrasiyasi 10 dan 30 mg/l gacha o‘zgartirilgan. Ertimaning pH muhiti 5 dan 6 gacha o‘zgarganda yashil tuproqning maksimal sorbsion sig‘imi kuchli va ishqor muhitlarda yutish qobiliyati past va mos ravishda 65 va 45 % deb qabul qilingan [6].

Eritmalardan nikel (II) ni ajratib olish va xrom (II), temir (III), alyuminiy (III), mis (II), rux (II), kobalt (II), temir(II), marganes (II), kalsiy (II), magniy (II) kabi qo‘shimchalardan tozalash eritmaning pH muhitini 4-6, 5 ga etkazish orqali amalga oshirilib, eritma yoki bo‘tanadan nikelni sorbsiyalash kuchsiz kislotali kationit bilan, to‘yingan kationitdan nikelni desorbsiyalash esa sulfat yoki xlorid kislotasi bilan nikel desorbati olishga qaratilgan. To‘yingan kationitni desorbsiyalashdan oldin unga qo‘shimchalardan tozalangan nikelli eritma bilan ishlov berilib, nikel saqlagan desorbatning bir qismining pH ko‘rsatkichi dastlabki kelayotgan eritma pH

ko‘rsatkichidan balandligi, sorbsiyalashga kelayotgan eritma yoki bo‘tanani pH ko‘rsatkichidan past bo‘lgan.

Oksidli nikel rudalaridan nikelni ajratib olish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: sulfat kislota bilan nikelni tanlab eritish; boy mahsulotni neytrallash; undan nikelni ionitga sorbsiyalash; desorbatni qayta ishlab nikel olish. Rafinatning bir qismi rudani tanlab eritish uchun yuborilsa, bir qismi esa ohak suti bilan neytrallanib temirdan tozalashga yo‘naltirilgan.

Mis (II) ionlarini Kursk viloyatining tabiiy sorbentlari (mergel, opoka, torf va Mixaylovsk kon-boyitish kombinatining otval xvosti) bilan sorbsiyalash tadqiq qilingan bo‘lib, sorbsiyalash jarayonining tenglik va kinetik parametrlari aniqlangan. Mis kationlariga nisbatan yuqori sorbsiyalash qobiliyatini torf va opoka namoyon qilgan. Galvanika sanoatida oqova suvlarni dastlab torf va opoka sorbentlari bilan sorbsiyalab so‘ng tozalash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mualliflar ishida tarkibida 95 % glaukonit saqlagan konsentratdan mis (II), qo‘rg‘oshin (II) va temir (II) larni ajratib olish dinamikasi o‘rganilgan. Muhit pH-6, 5 bo‘lganda 20-30 daqiqa eritmani aralashtirib sorbsiyalash mobaynida quyidagi metallarni ajratib olish darajasi qo‘rg‘oshin (II) – 60 %, temir (II) – 70 % va mis (II) – 80 % ni tashkil etgan. Bir martalik sorbsiyalash jarayoni davomida pH muhitni 6, 5 dan 10 koeffisientga ko‘tarish mis (II) va qo‘rg‘oshin (II) kationlarini ajratib olishni 7-10 % gacha oshirishga xizmat qilishi kuzatilgan. pH muhitni ko‘tarish Pb (II) kationlarini sorbsiyalash jarayoniga maksimal ta'sir ko‘rsatgan.

Ushbu ishlarda asosan bentonitli gillarda (tuproqlarda) qo‘rg‘oshin va mis ionlarini adsorbsiyalashni harorat, pH muhit va ta'sirlashish vaqtlariga bog‘liqligi tadqiq qilingan. Tuproqlarning alyuminolli va silanolli guruhlari ham ionalmashinish jarayonlarida, shuningdek, og‘ir metallar ionlari bilan ham komplekslar hosil qilishda ishtirok etadi. pH muhitga qarab u yoki bu jarayon ustunlik qiladi. Haroratni 20 ℃ dan 60 ℃ gacha oshirish bilan ionlarning adsorbsiyalanishi ham ortib boradi. Sorbsiyalash izotermlarining xususiyati tanlangan intervaldagi haroratiga bog‘liq emasligi o‘rganilgan.

Arzon tabiiy sorbentlardan (karbonatli minerallar) foydalanish oqova suvlarni metall ionlaridan tozalashning istiqbolli usullari tadqiqot ishida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bunda tabiiy karbonatli minerallar bilan mis (II) ionlarini ajratib olish uchun maqbul sharoitlar o‘rganilgan. Bundan tashqari karbonatli mineral namunalarining strukturaviy va mikroskopik xususiyatlari o‘rganilgan.

Mis sulfat eritmasidan KU – 2Ch8 va temir (III) gidroksid kationit asosli kompozision sorbentlar yordamida mis (II) ni sorbsiyalash tadqiqot natijalari ishda

keltirilgan va o‘rganilayotgan metall ionining taqsimlanish koeffisientlari hisoblangan. Ionalmashinish kinetikasi (tezligi) o‘rganilib, mis (II) ning gelli diffuziya koeffisienti hisoblangan.

Mualliflar ishida mis (II) ionlariga nisbatan tabiiy materiallar (mergel, opoka (kremniyli mikrog‘ovakli cho‘kindi jins va torf)ning sorbsiyalash qobiliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tajriba tadqiqotlari shuni ko‘rsatganki, suvni mis (II) ionlaridan tozalashda mergel, opoka va torfdan foydalanish mumkin va bunda samaradorlik 80-87 % ni tashkil etgan.

Oksidlangan ko‘mirdan ajratib olingan gumin kislotalar bilan sorbsiyalash, shuningdek, barcha dastlabki va qoldiq ko‘mirlar bilan mis kationlari komplekslarining hosil bo‘lishi hisobiga jarayon kechishi, alohida fuksional guruhlar, yuzaning manfiy zaryadlangan qismlari va komplekslar hosil bo‘lishiga, asosan, kislorod saqlagan va aromatik strukturalar o‘z hissalarini qo‘shishi hisobiga amalga oshishi aniqlangan.

Adabiyot da opal-kristobalit jinslari asosidagi tabiiy mineral sorbent yordamida suv tizimlaridan mis (II) ionlarini ajratib olish jarayoni va uning statik sharoitda o‘zgartirilgan shakllari o‘rganilgan. O‘rganilayotgan sorbentlarning mis (II) ionlariga eng yuqori moyilligi pH muhit 5÷8 oralig‘ida sodir bo‘lgan.

Harorat 20 ℃ da muqobil sorbsion material – (Larix sibirica) Sibir daraxti ignasimon bargi yordamida mis va nikel ionlarining sorbsiyalash jarayoni o‘rganilgan. Mis (II) va nikel (II) ionlarining konsentrasiyasi 10-1500 mg/l ni tashkil etgan sharoitda amalga oshirilgan

Turli xil tashqi sharoitlarda gumatlarning mis (II) ionlariga nisbatan sorbsiyalash qobiliyati ustida o‘rganishlar ishda olib borilgan. Natriy gumatlarining 2, 4 g/l sarfi natijasida mis ionlarining ajratib olish darajasi 90 % ni tashkil etgan. Ayni shu vaqtda kaliy gumatlarining 3 g/l sarfi misni 92 % ga, quruq gumatlarning 4, 6 g/l sarfi 89 % gacha ajratib olish imkonini bergan.

Istiqbolli adsorbent 4-aminbenzoy xitozonli granulaga bog‘lash asosida yaratilgan va bu o‘z navbatida ko‘rib chiqilayotgan metall ionlariga oson kirishi uchun polimer tarmog‘ini kengaytirib, uning kristallik darajasini pasaytiradi. Ushbu metall ionlarining bog‘lanishi mumkin bo‘lgan hodisa bo‘lib, u o‘z-o‘zidan va endotermik jarayonda kechadi. U sanoat miqyosida ushbu yuqori aminokislotalarga boy adsorbent metall ionlarining, hatto ushbu tadqiqotda qayd etilmagan ionlarning ham adsorbsiyasi uchun ajoyib nomzod bo‘lishi mumkinligi aniqlangan.

Mualliflar ishida nikelli eritmalardan ruxni, misni, temirni fuksional guruhlar: aminodiuksusli (Lewatit TP 207); bis2, 4, 4-trimetilpentil fosfinli kislota (Lewatit TP

272); aminofosfinli Purolite S 940; bilan sorbsion tozalash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Sorbsiyalash texnologiyasidan foydalanish metall qo‘shimchalardan etarli darajada tozalash imkonini bermaydi, ammo D2EGFK va Versatic 10 bilan bosqichma-bosqich ekstraksiyalash orqali bu muommoni hal qilish mumkinligi o‘rganilgan.

Ixtiro kislotali eritmalardan mis (II) ionlarini sorbsion ajratib olishga taalluqli va sanoat va maishiy chiqindi suvlarni anion almashish bilan tozalash uchun ishlatilishi o‘rganilgan. Bunda 40 g/l xlorid kislota va ammoniy xlorid, gidroksidi yoki ishqoriy er metallari bo‘lgan eritmalardan mis (II) ionlarini sorbsiyalash 70-80°C haroratda amalga oshirilgan. Sorbsiya oldindan xlorid kislota yoki suv eritmasi bilan ishlov berilgan AMP yoki AM-2b markali anion almashuvchilarda amalga oshirilgan. Anion almashuvchilar sifatida almashinuv guruhlarini o‘z ichiga olgan AMN markali anion almashinadigan qatronlar va almashinuv guruhlarini o‘z ichiga olgan AM-2b dan foydalanilgan.

Eritmalardan nikelni ajratib olish va qo‘shimcha metallar (xrom (II), temir (III), alyuminiy (III), mis (II), rux (II), kobalt (II), temir (II), marganes (II), kalsiy (II), magniy (II))dan tozalash pH ko‘rsatkichi qiymatini 4-6, 5 gacha ko‘tarish orqali, pH ko‘rsatkichini 4-6, 5 da eritmalardan yoki bo‘tanadan nikelni kuchsiz kislotali kationitiga sorbsiyalash, to‘yingan kationitdan nikelni nikel desorbat eritmasi ko‘rinishida olish uchun sulfat yoki xlorid kislotadan foydalanilgan.

Xulosa: Ushbu ishda o‘tkazilgan eksperemantal tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili asosida quyidagilar aniqlanadi. Sorbsiya usuli bilan metallarni ajratib olish yuqori konsentratsiyali eritmalarda qo‘llash mumkin. Ammo sarbentlarni metal ionlari bo‘yicha siġimi kichik bolganligi sababli bu holat ko‘p miqdordagi sorbentlarni talab qiladi. Bundan tashqari mahalliy sorbentlarni mavjud emasligi va eritmadagi metallarni alohida ajratish imkoni yoqligi bu usulni qo‘llash jarayonini qiyinlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дударева Г. Н. , Нгуен Н. А. , Сырых Ю. С. Изучение адсорбционной активности углеродных сорбентов к ионам никеля // Вестник ИрГТУ 2010 №7 (47). с. 147–151.

2. Дударева Г. Н. , Везенцев А. И. Углеродные сорбенты для избирательного извлечения никеля (II) из водных растворов // Научные ведомости БелГУ. 2013. № 10 (153). Выпуск 23. с. 125–130.

3. Милютина А. Д. , Колесников В. А. , Колесников А. В. Сорбционные характеристики углеродных наноматериалов по Cu2+, Ni2+ , Zn2+, Co2+, Fe2+ отношению к ионам // Успехи в химии и химической технологии. ТОМ XXX. 2016. № 1. с. 42–43

4. Гражулене С. С. , Редькин А. Н. , Телегин Г. Ф. , Баженов А. В. Сорбционные свойства углеродных нанотрубок в зависимости от температуры и последующей обработки // Журнал аналитической химии. – 2010. – Т. 65. № 7. с. 699–706.

5. Тимофеев К. Л. , Краюхин С. А. , Мальцев Г. И. Сорбционная очистка никелевых растворов от металлов-примесей // Вестник ЮУрГУ. 2016. Т. 16, № 1. с. 157–165. 108

6. Toshpo‘Latov, A. A. , Mamaraximov, S. K. , Xaydaraliyev, X. R. , & Rahmonova, F. (2023). RENIY METALLURGIYASINING ZAMONAVIY AHVOLI. International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences, 4(3), 56-60.

7. Kambarov, A. , Rakhmanov, I. , Karshibayev, S. , Mamarakhimov, S. , & Shamatov, S. (2024). TECHNOLOGY OF OBTAINING IRON POWDERS BY THERMAL TREATMENT OF IRON OXIDE-CONTAINING METALLURGICAL WASTE USING HYDROGEN. Science and innovation, 3(A3), 27-31.

8. Xudoymuratov, S. , & Tursunova, I. (2024). RENIY METALINI OLINISHI VA QO‘LLANILISH SOHALARI. Interpretation and Researches, 2(7(29)

9. Ashurova , F. , & Xudoymuratov, S. (2024). ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASIDA HOSIL BO‘LGAN KUL VA SHLAKLARNI KOMPLEKS QAYTA ISHLASH USULLARINI O‘RGANISH. Talqin Va Tadqiqotlar.

METALL SAQLAGAN ERITMALARDAN METALLARNI CHO‘KTIRISH USULI BILAN AJRATIB OLISH

Abbosxon Turdiev Baxtiyor o‘g‘li
Bahodirjon Xoshimov Baxromjon o‘g‘li
TDTU Olmaliq filiali “Metallurgiya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu ishda metallarni kislotadagi eritmalari tarkibidan cho‘ktirish usuli bilan samarali ajratib olish va mis ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan texnologik eritmalardan mis va nikelni alohida ajratish usullari o‘rganildi. Shuningdek tarkibida metallar saqlaydigan oqava suvlarni tozalash hamda ular tarkibidagi metallarni ajratib olish usullari taklif etildi.

Kalit so‘zlar: oksidli nikel rudalari, tanlab eritish, cho‘ktirib ajratib olish, fosfat kislotasi, natriy gidroksid, suvli faza, organik faza, ph ko‘rsatkich, neytrallash, filtrlash.

Annotation: in this work, methods were studied to efficiently extract metals from the composition of their solutions in acid by the method of deposition and separate copper and nickel from the technological solutions formed in the production of copper. Methods have also been proposed to purify wastewater containing metals as well as to extract the metals contained in them.

Keywords: oxide nickel ore, selective smelting, precipitate extraction, phosphatic acid, sodium hydroxide, aqueous phase, organic phase, pH indicator, neutralization, filtration.

Mualliflar [1] ishida kerosindagi naften kislotasi bilan ko‘pikli flotoekstraksiyasi orqali nikelni misdan ajratish va hosil bo‘lgan ko‘pik mahsulotini suvli va organik fazalarga ajratish usuli taklif etilgan. Shu bilan birga nikel va misning ko‘pikli flotasion ekstraksiyasi pH=7, 8-8, 25 muhitda birgalikda amalga oshirilishi va hosil bo‘lgan ko‘pik mahsulotining organik bosqichi pH=3, 7-5 muvozanat qiymatida sulfat kislotasining suvli eritmasi bilan harorat 60-70°C da ishlov beriladi. Bu holatda nikel va misni bir-biridan ajratish kollektiv ko‘pikli flotoekstraksiyalashning ko‘pikli organik mahsulotini sulfat kislotasi bilan ishlov berish orqali amalga oshirilgan, ya'ni nikelni selektiv reekstraksiyalash jarayoni o‘tkazilgan. Oksidli nikel rudalarini sulfat kislotasida tanlab eritishdan olingan eritmalardan metallarni cho‘ktirib ajratib olish gidrolitik usul bilan olib borilgan [2].

Muhit pH=7-9, 5 oralig‘ida tarkibida nikel, kobalt va marganes bo‘lgan kompleks cho‘kmalar olingan bo‘lib, nikelli eritmani qo‘shimchalardan tozalashda cho‘ktirish usuli o‘rganilgan. Eritmalarni qayta ishlash natijasida nikel boyitmasi deb ataladigan tovar holdagi mahsulot olishga erishilgan [3].

Muallif [4] mis (II) ionlarini gidrazin bilan tiklanish qonuniyatlarini o‘rgangan. Gidrazinning sezilarli darajada tiklash potensialiga qaramay ($E^0_{N2/N2H4}$ = -0, 23 V - kislotali muhit, $E^0_{N2/N2H4}$ = 0, 16 V - ishqoriy muhit), stabilizator bo‘lmaganda mis (II) akva-gidrokso komplekslarining tiklanishida ham mis va Cu_2O ni ajratib olish imkonini bermasligi aniqlangan.

Nikel saqlagan sulfat kislotali eritmalardan qo‘shimchalarning (Cu(II), Zn(II), Fe(II) va b.) ionlaridan tozalash eritmaga fosforli kislota qo‘shish orqali ularni qiyin eruvchan fosfatlar holida biriktirib amalga oshirilgan [2]:

$Me^{2+} + NiCO_3 + H_3PO_4 = MePO_4 + Ni^{2+} + CO_2 + H_2O$,

Bu erda, Me (II) - (mis (II), rux (II), temir (II) va b.) qo‘shimchalarining ionlari.

Ushbu usulning asosiy kamchiligi shundan iboratki, bu usulni faqat tarkibida misning ulushi o‘ta kam hollardagina qo‘llanilishi va jarayonda ishlatiladigan reagentning qimmatligi hisoblanadi.

Eritmadan temirni va boshqa qo‘shimchalarni tozalashda mis saqlagan sulfatli eritmani metallik temir bilan qayta ishlab, Fe (III) ionlarini Fe (III) ion holatigacha tiklashga erishilgan [5]. Keyin esa eritmaga NaOH qo‘shib reaksiya natijasida cho‘kma mis gidroksidini suyuq fazadan quyultirish orqali ajratib olingan. Olingan bo‘tanani Eskayd 110 suyultiruvchisida 15 % li LIX 984 n bilan ekstraksiyalashga yuborildi. Mis saqlagan organik faza 0, 05–0, 3 mol/l konsentrasiyali sulfat kislotaning kuchsiz eritmasi bilan ishlangan. Temir va qo‘shimchalarni o‘z ichiga olgan suvli faza organik fazadan ajratib olinib, undan misni reekstraksiyalash yo‘li bilan ajratib olingan bo‘lib, toza misni ajratib olish darajasi 99, 5 % ni tashkil etgan.

Oqova suvlarni og‘ir metallardan tozalashda, asosan, regenerasion yoki oksidlovchili jarayonlar qo‘llanilgan. Ozon bu jarayonlarda ekologik nuqtai nazardan eng ideal oksidlovchi hisoblanadi. Metallurgiya korxonalarining oqova suvlarini tozalash uchun ozondan foydalanish juda kam o‘rganilgan. Ozonlanishdan keyin metall ionlari erimaydigan gidroksidlar shaklida cho‘kishi aniqlangan [6].

Chiqindi kislotali eritmalardan nikelni cho‘ktirib olish bo‘yicha bir qancha turli xil reagent - cho‘ktiruvchilar: natriy karbonat (Na_2CO_3), natriy sulfid (Na_2S), ammoniy gidrosulfid (NH_4HS), natriy gipofosfit (NaH_2PO_2), dimetilglioksim va natriy gidroksidlari (NaOH) qo‘llanilib tajribalar o‘tkazilgan bo‘lib, eritmalardan nikelni cho‘ktirib olishda eng samarali cho‘ktiruvchi dimetilglioksim reagent

xisoblanadi. U, odatda, analitik kimyoda nikelni aniqlashning sifat va miqdor ko‘rsatkichlarida qo‘llaniladi. Kimyoviy reaksiyaning stexiometrik nisbatiga ko‘ra 1 kg nikelni cho‘ktirish uchun 2 kg dimetilglioksim talab etiladi.

Chiqindilarning eritmalari natriy gidroksid eritmasi bilan o‘zaro ta'sirlashgan vaqtda eritmadan misning cho‘kish imkoniyatlari ishda o‘rganilgan. Bunda jarayondan olingan cho‘kma filtrpresslarda filtratdan ajratiladi. Cho‘kmalarni keyingi qayta ishlash turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin, ulardan biri elektrolizdir. Tarkibida mis bo‘lgan ho‘l cho‘kma sulfat kislotada eritiladi. Natijada katta miqdorda issiqlik ajralishi bilan boradigan shiddatli reaksiya ketadi. Hosil bo‘lgan elektrolit dastlab tindirilib, so‘ng dekantasiyalanib elektroliz vannasiga yuboriladi.

Minerallarga to‘yingan sanoat suvlarini ionli flotasiya usulida tozalash uchun yangi GLIPET (polietilentereftalatni gliserin bilan aralashmasi) reagentini qo‘llash suvni mis, rux, temir, nikel, qo‘rg‘oshin, kadmiy kabi metall kationlardan (98, 5 dan 99, 99 % gacha) tozalash sifatini oshirib berish imkoniyatini berishi o‘rganilgan. Bundan tashqari tog‘-kon sanoati korxonalarining minerallashtirilgan sanoat suvlarini flotasion tozalash uchun GLIPET reagentidan foydalanish ekologik xavfsiz va texnologik jihatdan amaliyotga tadbiq etish mumkinligi, polietilen glikol tereftalatning qattiq maishiy chiqindilarini (PET konteynerlari) utilizasiya qilish va undan foydalanish imkonini berishi, tozalash

jarayonida Cu, Zn, Fe, Ni, Pb, Cd metall kationlaridan tozalangan suvni tog‘kon va qayta ishlash korxonalarida suv ta'minotini qayta tiklash uchun ishlatish tavsiya etilgan

Temirning to‘liq oksidlanishidan so‘ng temir birikmalari va silikatlarini CaO bilan cho‘ktirish ishda olib borilgan. Sementasiyalashdan so‘ng esa nikel, kobalt va mis sulfatlari saqlagan tiniq eritma va cho‘kindidagi temir birikmalari silikatlaridan ajratilgan. Bioregenerasiyadan so‘ng pH muhitni oshirish natijasida gel hosil bo‘lishi kuzatilmasligi aniqlangan bo‘lib, buni silikatlar temir va kalsiy birikmalari bilan birgalikda etarlicha kompakt ko‘rinishidagi cho‘kma hosil bo‘lishi bilan tushuntirilgan.

Tarkibida temir cho‘kkan kobalt va nikelni olish usuli, eritmadagi vodorod ko‘rsatkichini o‘zgartirish orqali silikatli rudalarni tanlab eritgandan so‘ng eritmadan kobalt va nikel ajratib olish o‘rganilgan. Cho‘ktirishdan olingan temir saqlagan cho‘kma ajratilib, ammiakli eritma bilan yuvilib, yuvishdan olingan eritmaga temirni cho‘ktirishdan olingandan keyingi qolgan eritma bilan aralashtiriladi va bu aralashgan eritmadan nikel va kobalt natriy yoki ammoniy sulfid yordamida ajratib olingan.

Nikel va kobalt sulfidi konsentratlarini atmosfera bosimida sulfatli eritmalaridan cho‘ktirish usuli pH muhitni o‘zgarishi va sulfid saqlagan komponentlarni qo‘shish orqali olib borilgan. Bunda nikel va kobaltni sulfid holida cho‘ktirishgacha dastlabki bo‘tanani neytrallash va temir (III) temir (II) holigacha tiklanib, shu bilan birga qo‘shimchalar ham dastlabki cho‘ktirilib, cho‘kma neytrallanib filtrlangan. Natriy gidrosulfidi sulfidli reagent sifatida ishlatilgan. Temirni tiklashdan oldin bo‘tanani neytrallash pH muhiti 0, 8 dan kam sharoitlarda olib borilib, so‘ngra temirni tiklash va qo‘shimchalarni cho‘ktirish pH 0, 8-1, 2 muhitda natriy gidrosulfid yordamida amalga oshirilgan.

Eritmaning pH qiymatini sozlash orqali metallarni cho‘ktirish uchun neytrallashtiruvchi reagent bilan eritmani bosqichma-bosqich samarali qayta ishlashni o‘z ichiga olishi ishda keltirilgan. Jarayonning birinchi bosqichida eritmani pH vodorod ko‘rsatkichi 5-5, 5 ga, ikkinchi bosqichda esa pH 8, 5-9, 5 ga etguncha qayta ishlangan. Eritmani so‘nggi bosqichda qayta ishlash natriy gidroksid, natriy karbonat yoki ammiakning suvli eritmalari saqlagan ishqoriy reagentlarda olib borilgan. Ikkinchi bosqichdan so‘ng eritmaning pH ko‘rsatkichi 10-12, 5 ga etguncha qo‘shimcha qayta ishlangan. Jarayonning asosiy texnik natijalari bo‘lib, nikelni yo‘qotishni kamaytirish hamda boshqa qimmatbaho komponentlarni selektiv ravishda ajratib olishga erishilgan.

Nikel sulfatini o‘z ichiga olgan eritmalarni qayta ishlash usuli nikel va kobaltni pH 2-4, 5 va xona haroratida natriy gidrosulfidi bilan kollektiv konsentratga cho‘ktirishni o‘z ichiga olgan. Nikel va kobaltni cho‘ktirish uchun natriy gidrosulfid reagent sarfi stexiometrik miqdordan 10-50 % ga ko‘proqni talab etishi, eritmani qo‘shimchalardan tozalash vaqtida nikel va kobalt yo‘qotilishining oldini olish o‘rganilagan.

Tarkibida past navli nikel va kobalt saqlagan materialni uyumda tanlab eritib, uning tarkibidan nikel va kobalt ajratib olish, asosan, rangli metallarni fraksiya bo‘yicha ajratish, tanlab eritish va eritmani qayta ishlash ko‘rib chiqilgan.

Rangli metallar saqlagan sulfatli eritmalarni temirdan tozalash kislotali eritmani ohak yoki ohaktosh bilan amalga oshirilib, so‘ng kislorod bosimi va yuqori haroratda avtoklavda oksidlantirilib undan temirni oksigidrolizlanib cho‘ktirilgan. Texnik natija sifatida filtrlash dastgohi hajmining qisqartirilishi va temirni yaxshi filtrlanadigan cho‘kma holida ajralib, u bilan rangli metallarning yo‘qotilishini kamaytirish aniqlangan.

Ushbu usul nikelli eritmani (tezligi 0, 5-1 ml/min) tiklangan temir kukuni orasidan o‘tkazib, nikelni sementasiyalashga asoslangan. Bunda reaksion aralashmani

harorat 20-30 ℃ da yuqori chastotali nurlanish uchun yo‘naltiriladi, jarayon natijasida eritmadan nikelni to‘liq ajratib olish amalga oshirilgan.

Mualliflar ishida hosil bo‘ladigan mis nanozarrachalarining turg‘unligi va morfologiyasiga ta'sir etuvchi bir qancha muhim faktorlar (mis birikmalarining kompleks redoks-potensiali, tiklovchi, stabilizatorlar, pH va boshqalar) ko‘rsatilgan. Mis nanozarrachalarini olishning uchta kimyoviy usuli aniqlangan va tavsiflangan: mis komplekslarini tiklovchilar yordamida termik destruksiyalash; oksidlanish-tiklanish jarayonlari uchun spesifik sharoit va prekursorlarning jamlanmasi; mis birikmalarini tiklash uchun nanoreaktor sifatida miselyar va boshqa organik tizimlarning qo‘llanilgan.

Quyidagi tadqiqot ishida nikel nanotuzilishli kukunini qiyin eruvchi nikel karbonat holida ajratib olish imkoniyati ko‘rib chiqilgan. Bunda tiklovchining maqbul konsentrasiyasi 0, 6 mol/l ni tashkil etishi va tiklanish jarayonining samarali kechishi jarayoni haroratga bevosita bog‘liqligi aniqlangan.

Ba'zi turdagi tiklovchilarning qo‘llanilishi (gidrazin, natriy borogidrid, askorbin kislotasi) har xil turdagi moddalar (CuO, Cu_2O yoki CuO)ning hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin, shuni ham hisobga olish kerakki bunda mis ionlarining va tiklovchining konsentrasiyalari nanozarrachalarni hosil bo‘lishiga ta'sir qilishi o‘rganilgan.

Mualliflar ishida mis ionlarini tiklash uchun cho‘ktiruvchi-tiklovchi sifatida $N_2H_6SO_4$ (gidrazin sulfat) qo‘llanildi, gidrazin sulfat eritmasining maqbul konsentarsiyasi, pH muhit va vaqt - harorat rejimlari o‘rnatilgan. Harorat 70℃ da eritmaning tinish vaqtining uzayib borishi jarayonda ishlatilayotgan gidrazin miqdorini kamaytirishi va eritmadan mis ionlarini ajratib olish darajasini oshirishi aniqlangan.

Gidrazin bilan ishqoriy yoki ammiakli muhitda tiklangan mis ionlari yuqori kimyoviy faolikka ega xususiyatni o‘zida namoyon etishi, rentgenofazali tahlil usuli bilan aniqlangan.

Shuningdek, yana rentgenofazali tahlil usuli va elektron mikroskopda ham misni ishqoriy yoki ammiakli muhitda jelatin yoki PAK ishtirokida kimyoviy tiklash 3-5 nm o‘lchamdagi mis nanozarralarining hosil bo‘lishiga olib kelgan.

Mis ionlarini gidrazin ishtirokida tiklash o‘lchami 10 nm kam bo‘lmagan nanodispers zarrachalar hosil bo‘lishiga olib kelishi hamda mis nanokukunining kimyoviy va katalitik faolligi uning sintez qilish sharoitidan kelib chiqishi o‘rganilgan.

Mualliflar [25] ishida ikki va ko‘p komponentli suvli eritmalardan kimyoviy cho‘ktiruvchi agent sifatida Na_2CO_3 yordamida mis (II) va nikel (II) ionlarini tozalashda pH muhit va dastlabki konsentarsiyaning ta'sirlari o‘rganilgan. Dastlab ikki komponentli suvli eritmaning boshlang‘ich konsentrasiyasi 500 mg/l li va Cu (II) va Ni (II) ionlari saqlagan boshlang‘ich konsentrasiyasi 50 va 500 mg/l li ko‘p komponentli suvli eritma tayyorlab olingan. Cho‘ktirish xona haroratida eritmani 300 aylana/min aralashtirish orqali 5 minut davomida davriy ravishda olib borildi va cho‘kma hosil bo‘lgan. Olingan cho‘kma eritmadan filtrlash yo‘li bilan ajratilgan

Mis konsentratlarini pirometallurgik qayta ishlash jarayonida bir qancha chiqindilar (gazsimon, qattiq va suyuq) hosil bo‘ladi. Birlamchi eritish zavodining oqova suvlari kislotali polimetalik eritma bo‘lib, sulfat kislotaning o‘rtacha va yuqori konsentrasiyasi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari ular, odatda, Cu va Ni kabi katta miqdordagi qimmatbaho metallarni, shuningdek, Pb, Zn, Fe, As, Sb, Bi va boshqa metall aralashmalarini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun kislotali polimetalik suvli eritmalardan qimmatbaho metallarni ajratib olish har bir zavod uchun katta ahamiyatga ega. Metallarni kaustik soda bilan neytrallab, differensial cho‘ktirish jarayoni qayta ishlashning alternativ echimi bo‘lib, bunda u o‘zining oddiyligi, samaradorligi va texnik xizmat ko‘rsatishga kam sarf xarajat talab etilishi va ishonchliligi bilan ajralib turishi aniqlangan.

Mis saqlagan oqova suvlarni temir kukuni bilan tozalash usuli ishda ko‘rib chiqilgan. Bir qator texnologik jarayonlarda hosil bo‘ladigan pH muhiti 2-3 bo‘lgan oqova suvlarda temir kukunini mis ionlari bilan dispergirlash va aralashtirishdek yangi texnologiya taklif etilgan. Tadqiqotlarda yuqori tezlikdagi kavitator-dispergatorlar qo‘llanilib, ularning ish unumdorligini taqqoslash uchun standart laboratoriya aralashtirgichi bilan solishtirilib ko‘rilgan bo‘lib, aralashtirishning bir qancha parametrlarining misni ekstraksiyalash jarayoniga bog‘liqliklari ham o‘rganilgan.

Xulosa: Ushbu ishda o‘tkazilgan eksperemental tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili asosida quyidagilar xulosa qilinadi. Yuqori konsentratsiyali eritmalar tarkibidan qimmatbaho kompanetlarni ajratib olishning istiqbolli usuli bu kimyoviy cho‘ktirish usuli hisoblanadi. Eritmalardan metallarni ajratib olish jarayonini takomillashtirish barcha tadqiqot ishlari yangi, mavjud va arzon reagentlarni topishga qaratilgan. Shuni aytish kerakki mis ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan texnologik eritmalardan mis va nikelni alohida ajratib olish bo‘yicha yetarli malumotlar mavjud emas. Shu munosabat bilan ushbu ishda mis-nikelli eritmalardan mis va nikelni alohida ajratib olish jarayonlari o‘rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гаврилов А. С. , Халезов Б. Д. , Ватолин Н. А. , Зеленин Е. А. Исследование гидролитического способа извлечения металлов из никельсодержащих растворов. Научный журнал: Проблемы недропользования. 2014 г, №2, с. 170–173.

2. . Воробьев С. А. Образование наночастиц меди в водных растборах при восстановлении меди (II) гидразином, борогидридом натрия и аскорбиновой кислотой/ Автореферат. диссертации на соискание ученой степени кандидата химических наук. Красноярск – 2013. 111

3. Сидеренко А. Ю. , Михайлов Г. Г. , Животовская Г. П. Получение сернокислого никеля из отработанных электролитов медной промышленности. Вестник ЮУрТУ, №10, 2006 г. с. 104–109.

4 Холикулов Д. Б. , Нормуротов Р. И. , Болтаев О. Н. , Новый подход к решению проблемы очистки сточных вод медного производства. Научнотехнический и производственный журнал: Горный вестник Узбекистана. №3, 2019 г, с. 92–96.

5. Khaydaraliev, K. R. , Karshiyev, H. K. , & Mamaraximov, S. K. (2023). EFFECT OF PARTICLE SIZE DURING LEACHING OF ZINC CAKES IN SULFURIC ACID. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(24).

6. Mamarahimov, S. K. , Rahimov, S. D. , & Xoliqulov, D. B. (2021). Kamyob metallar ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan chiqindi suvlar tarkibidan metallarni ajratib olish imkoniyatlarini o‘rganish. *Science and Education*, *2*(6), 278-283.

INNOVATIVE METHODS OF PROCESSING INDUSTRIAL WASTE

Ayubova I. X.
Tashkent State Technical University Associate professor of the Department of Ecology and Environmental Protection, (PhD)

Sultamuratov. T.S.
Graduate student of the Department of Ecology and Environmental Protection of Tashkent State Technical University

Annotation. This article will analyze innovative methods of waste processing in a period when the industry has developed with rapid successions and consider the conclusions of several approaches, proposals

Keywords. Innovation, processing, industrial waste, genetic method, pyrolysis, green economy, raw materials.

Consumer systems continue to have a serious impact on the environment and health during a period when production has developed with fast snapshots. As we know, most of the natural resources are returned to the environment in the form of waste, which in many cases leads to toxic consequences. It should be mentioned that the problem of elimination and decontamination of industrial solid waste is one of the most important problems in the world. The oil industry, on the other hand, ranks first among the leading sectors of the national economy in terms of the degree of negative impact on the environment. The issues of innovation and Investment Management in these industries are still not fully explored.


The Republic of Uzbekistan is facing serious environmental problems related to the production and disposal of industrial waste. The volume of waste generated by industrial enterprises in our country is growing, which has a significant impact on the environment and public health.

According to the analysis, 132 million tons of waste are disposed of in Uzbekistan each year, including 125 million industrial waste and 7 million household waste. According to the analysis results, only 30% of the disposed waste is recycled.

Tahlil natijalariga ko’ra O’zbekistonda yiliga 132 million tonna chiqindi tashlanadi, shulardan 125 millioni sanoat chiqindilari va yetti millioni maishiy chiqindilar hisoblanadi. Tahlil natiyjalariga ko’ra tashlanoyatgan chiqindilarning 30%i qayta ishlanadi.

There is several methods of processing industrial waste. We can conditionally disassemble these into two groups. Traditional and innovative methods. Traditional methods include waste recycling methods that have existed and been applied to this day. For example, composting, thermal, disposal, etc. Innovative methods include if plasma and genetic processing methods. (Scheme 1).

In addition, unique technologies for recycling solid waste in the industry have been developed by scientists. The world's newest developments in this area have been assembled into a single complex containing unique catalytic pyrolysis technology. The peculiarity of this technology is that activating the exhaust does not occur at all. A new catalytic pyrolysis method patented in 2013 allows solid waste to be completely, 100% recycled. High-quality valuable commodity products and secondary raw materials are obtained from waste. On the basis of the method, a new type of disposal complex will be created. Catalytic pyrolysis technology allows the recycling of waste that works to bury solid waste and is collected in closed landfills.



Scheme-1 methods of waste processing

The constant development of innovative technologies in the field of industrial waste disposal contributes significantly to the solution of the problem of environmental pollution. Industrial waste has a negative impact on human health and

ecosystem, so efficient and environmentally friendly recycling of this waste is an important aspect of modern society.

One promising technology in this field is the use of biotechnology and genetic engineering techniques. Due to genetic modifications, microorganisms can be created or improved to process complex chemical compounds present in industrial waste. This allows toxic substances to be converted into safe compounds or even useful products such as bioplastics or biofuels.

Another promising approach is the use of pyrolysis and gasification to convert industrial waste into synthesis gas or fuel. Pyrolysis is the process of decomposition and gas formation in conditions of heating organic material without oxygen. Such gases can be used for energy production or as raw materials for the chemical industry.

An additional approach is based on the use of bacteria to eliminate industrial waste. Some types of bacteria are able to break down contaminants such as petroleum products or toxic chemical compounds. Such bacteria can be used to clean contaminated soil and water bodies.

New systems and artificial intelligence also play an important role in improving the efficiency of industrial waste disposal. Analytical programs allow you to optimize the processes of sorting, processing and disposal of waste. Artificial intelligence is capable of processing large amounts of data and offers optimal solutions for waste disposal, taking into account economic, environmental and social aspects.

Innovative technologies in the field of industrial waste disposal will give impetus to the development of a green economy and the creation of new jobs. Companies using these technologies can dispose of waste, reducing the cost of storing and transporting them in their navatí and generating additional revenue from the sale of processed products.

In general, innovative technologies in the field of industrial waste disposal play an important role in reducing the negative impact of industry on the environment and contribute to sustainable development. They are an important step towards a more clean and environmentally sustainable future industry.

In our opinion, the main strategic areas of support and development of industrial waste processing using innovative technologies are as follows:

1.Improving the system of monitoring and accounting for industrial waste reserves, creating a cadastre of areas contaminated with waste.

2. Expanding the use of modern and effective innovative technologies for recycling, which includes industrial waste, focusing on the most promising technologies.

3. Improving the system of economic promotion of the implementation of conservation measures in the fields of industrial waste processing.

4. The development of support for the implementation of scientific developments in the field of industrial waste processing, in which industrial waste has used innovation both by the state and by its companies.

